

O'tkir HOSHIMOV

# Hurkitilgan tush



• HIKOYALAR •



O'TKIR HOSHIMOV



O'tkir Hoshimov

# Hurkitilgan tush

• H I K O Y A L A R •



ZIYO NASHR

Toshkent  
2019

UO'K: 821.512.133-32

KBK 84(5O')6

H 71

Ular ancha narsaga ega bo'lishdi. To'y qilishdi, ota-onasi xohlaganicha, Nasiba istagancha orzu-havas ko'rishdi. Hammasini taomildagidek, „Qars-badabang“ qilishdi. Hammasini! Bir narsani unutib qoldirishdi. Quyoshning o'chovi bo'ladimi! Nurning vazni-chi? Baxtning tarozisi-chi?..

Nasibaning ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi. Nega?! Bu hikoyaning yozilganiga qirq yil bo'libdi. Lekin mavzusi eskirmagan. Ayni bugungi kunning mavzusi. To'ylardagi dabdababozlik muammosi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning ushbu to'plamdan o'rinn olgan hikoyalari siz-u bizni o'ylashga, fikrlashga chorlaydi.

## QUYOSH TAROZISI

Murodjon bugun tag'in kech qoldi.

Nasiba deraza ro'parasidagi pastak yumshoq kresloda o'tirar, oqshom tushib qolgan edi. Kelin tushgan uyning fayzi boshqacha bo'ladi. Derazalardagi nafis darpardalar, oyoq os-tidagi cho'g'dek gilamlar, devorda ohista chiqillab turgan kattakon osma soat, naqshinkor arabi garnitur – hammasi bu xonadonda yaqinda to'y bo'lganidan darak berib turardi. Narigi uuda qaynisi televizorni baqirtirib futbol ko'ryapti. Hali qaynanasi egachisinkiga ketdi. Umuman, ularning xonadoni gavjum. Ammo Murodjon yonida bo'lмагандан keyin Nasiba baribir yolg'iz...

Murodjon keyingi paytda aynidi. Avvallari ishdan chiga solib uyga yugurardi. Yo'q, keyinchalik tez-tez kechikadi-gan, ba'zan yarim kecha qilib keladigan odat chiqardi. Tag'in topgan bahonasi bitta! Navbatchilik qilarmish. O'lar endi, har kuni bitta odam navbatchilik qilaversa. „Navbatchilik bahona, diydor g'animat“ bo'lmasin tag'in.

Nasiba devordagi soatga qaradi. To'qqizdan oshibdi. Tashqarida qorong'i quyuqlashib borar, allaqayerda qurbaqa qurillardi... Bir vaqtlar Murodjon ikkovlari bog'da kun bot-gunga qadar suhbatlashib o'tirishar, oqshom quyuqlashib ketganidan keyin xayrlashishardi.

Ularning tanishuvi g'alati bo'ldi. Nasiba bilim yurtining to'rtinchi kursida o'qirdi. Qishda shamollab qoldi. Bir-ikki kun parvo qilmay o'qishga qatnab yuraverdi. Ammo ke-chasi to'satdan isitmasi ko'tarilib ketdi. Dadasi bilan oy-

si qo'rqib ketishdi. Qo'shnining mashinasida kasalxonaga olib borishdi. O'pkasi qattiq shamollagan ekan. Uni Murod Vohidovich degan do'xtir davoladi. Nasiba ilgariyam betob bo'lgan, vrachlarga qaratgandi. Ammo mana shu baland bo'yli, qotmadan kelgan vrachning qo'li badaniga tegishi bilan negadir qamchi yegan otdek seskanib ketdi. Narigi karavotda yotgan xotin uning holatini sezdi. Piqillab kulib yubordi. Do'xtir zahargina ekan.

– Xotirjam bo'ling, ko'zim uchib turgani yo'q, – dedi qovog'ini solib. – Chuqur nafas oling...

Nasiba sog'ayib chiqib ketguncha ham Murod Vohidovich bilan tuzuk-quruq gaplashmadi. Ayniqsa, uning qosh-ko'zlar popukdek Marziya degan hamshira qiz bilan ochilib-sochilib gaplashib turganini bir-ikki ko'rghanidan keyin o'zini butunlay bepisand tutadigan bo'ldi. Agar Dilfuzaning to'yida yana uchrashib qolishmasa, balki, unutib yuborgan bo'larmidi...

Dilfuza Nasibaning jonajon o'rtog'i. Shu qiz turmushga chiqadigan bo'ldi-yu, ZAGSdan o'tish marosimiga Nasiba ham bordi. To'g'risi, dugonasining baxtiga juda havasi keldi. Umrida bunaqa tantanani ko'rmagan edi. Qiz tomon salkam yigirma kishi bo'lib borishdi. Kuyov tomondan ham ancha yigitlar keldi. ZAGS mudirasi kelin-kuyovni qutlab, nutq so'zladi. Kuyov Dilfuzaga brilliant sirg'a, oltin uzuk hadya qilganida hamma qarsak chalib yubordi. Nasiba kuyov tomon dan kelgan yigitlar orasida turgan Murod Vohidovichni tash-qariga chiqishganidan keyingina ko'rди. Doim xalatda yurgani uchunmi Nasiba e'tibor bermagan ekan. Bu gal yarashiqli kiyinib olgan, sochlarni silliq taragan, galstuk taqqan Murodjon uning ko'ziga cho'g'dek ko'rindi. Bosh silkib salom berdi. Murodjon shu ondayoq uning yoniga keldi.

– Siz kelin tomonmisiz? – dedi uning qo'lini ohista siqib. Nasiba indamay bosh silkidi. – Men kuyov tomon man. Demak, quda ekanmiz. – Murodjon kulib qo'ydi.

Yo'q, u ko'p ham zahar emas ekan. „Chayka“da sha-

har aylanishganida ham, „Lazzat“ kafesida o‘tirishganida ham Nasibaning ko‘nglini ovlashga harakat qildi. Hamma hamma bilan, u Nasiba bilan.

– Yaxshimi? – dedi Murodjon.

Nasiba tushunmadi.

– Nima yaxshimi?

Murodjon kelin-kuyov tomonga imo qildi.

– Shunaqa dabdabalar yoqadimi sizga?

– Albatta! – Nasiba yelkasini qisdi. – Umrida bir marta bo‘ladigan to‘y...

– Menga yoqmaydi. – Murodjon jilmaygan ko‘yi iltimos qildi: – kuzatib qo‘ysam maylimi? Baribir, hozir hamma tarqab ketadi.

Nasiba indamadi...

Ular tez-tez ko‘rishib turadigan bo‘lishdi.

Bir kuni ikkovlari dalaga chiqishdi. Shunchaki aylanib kelish uchun. Shahar chetidagi jamoa xo‘jaligiga qatnay-digan avtobusga o‘tirishdi-yu, halqa yo‘ldan o‘tgandan keyin duch kelgan bekatda tushib qolishdi. Yoz quyoshi olis ufqda olovli bir tumanlik ichiga botib borardi, Murodjon quyoshga tikilgancha chuqur o‘yga tolgan edi. Uning shu o‘tirishi Nasibaga nima uchundir g‘amgin ko‘rinib ketdi.

– Nimani o‘ylayapsiz? – dedi uning yelkasiga kaftini qo‘yib.

– O‘ylayotganim yo‘q. Orzu qilyapman, – dedi Murodjon botib borayotgan quyoshdan ko‘z uzmay. – To‘ydan keyin ikkalamiz dengiz bo‘yiga borsak. Mayli, qaysi dengiz bo‘lsa ham... Oy chiqib turgan bo‘lsa. Ikkalamiz qirg‘oqda shundoq o‘tirib, oydinda tovlanib turgan dengizni tomosha qilsak...

Nasibaning yuragi quvonchdan orziqib ketdi. Shirin jilmayib, uning yelkasiga bosh qo‘ydi.

Keyinchalik u o‘scha – Murodjon aytgan manzarani ko‘p o‘ylaydigan bo‘ldi. Umrida dengizni ko‘rmagan edi. Ammo

endi shovullab turgan dengiz ko'z o'ngiga aniq keladi-gan bo'ldi. Ana, tip-tiniq to'lin oy nurida dengiz oynadek yaraqlab turibdi. To'lqinlar shovullab qirg'oqqa uriladi, dahshatli guvullab suron soladi. Ammo u qo'rqlaydi. Uning yonida Murodjon bor. U Murodjonning ko'ksiga boshini qo'yib o'tiradi. Murodjonning yuragi bir me'yorda gurs-gurs uradi. Nasibani allalagandek bo'ladi.

Turmushga chiqayotgan qizning orzusidek afsonaviy narsa bo'lmaydi. Nazarida, to'y o'tishi bilan o'zga bir olamga kirib qoladigandek, xuddi bir sayyoradan boshqa sayyoraga uchib ketayotgandek tuyuladi. Nasibani ham shu olam asir etgandi. Agar o'zi oyisiga shipshitib qo'ymaganida, Murodjon yuborgan sovchilar dadasiga yoqmasligi tayin edi. Avvalo, Murodjonning otasi yo'qligi qiz tomonga unchalik ma'qul kelmadi. Qolaversa, Nasiba besh o'g'il orasida yolg'iz edi. Dadasi qiziga o'zgacha mehr qo'ygan. Ko'p yillardan buyon advokat bo'lib ishlaydi. Topganini bitta qizidan ayarmidi? Kuyov tomonning qo'li qisqaroq ekan. Kuyov bir o'zi ish-lasa, tag'in ukasi, singlisi bo'lsa... Nasiba bunisini ham o'z zimmasiga oldi. Bir kuni gap orasida Murodjonning ko'nglini og'ritmaydigan qilib qistirib ketdi:

– Dadamlar juda qiziqlar-da, Murodjon aka. Sen yolg'iz qizimsan, deydilar. Mendan orzu-havaslari ko'p emish. Esingizdam, Dilfuzaning to'yi zo'r bo'luvdi-a?

Murodjon uni yupatdi:

– Ko'nglingiz to'q bo'lsin. Men uyaltirib qo'ymayman.

Chindan ham Nasibaning dadasi kuyov tomondan xur-sand bo'ldi. Nasiba Dilfuzaga havas qilgan edi. Xuddi o'sha „Chayka“da sayr qilishdi, xuddi o'sha „Lazzat“ kafesiga kirishdi. Chiqib kelishayotganida u Murodjonning qulog'iga shipshidi.

– Yaxshimi?

– Nima? – dedi Murodjon.

– Mana shunaqa dabdabalar yoqadimi sizga?

Murodjon jilmayib, uning belidan quchdi.

– Qanaqa bo'larkan! – dedi Nasiba barmog'i bilan po'-pisa qilib.

To'y nihoyatda xushchaqchaq o'tdi. Murodjon bilan birga ishlaydigan Islom aka degan pak-pakana odam bor ekan. Shu kishi tamadalikni, ayniqsa, bopladi. Shunaqa qiziq gaplar aytdiki, to'yga o'z-o'zidan fayz qo'nib, hammaning qulfi dili ochilib ketdi. Ammo Nasiba o'zga olamga – sirli olamga kirib qolgani yo'q. Hayot o'z yo'lida davom etardi. Murodjon har kuni ishga otlanadi. Nasiba nonushta tayyorlaydi, qo'liga dazmollangan ro'molcha tutadi, keyin qaynisi bilan qaynsinglisi mактабга ketadi. Undan keyin qaynana-sining choy-nonini tayyorlab beradi-da, o'zi ham ishga jo'naydi. Kunlar xuddi muttasil aylanayotgan globusga o'xshaydi. Har kuni o'sha manzara...

Eng yomoni bu emas. Eng yomoni shuki, Murodjon ay-nidi. Nasiba buni darrov sezdi. To'ydan keyin ikki hafta o'tmay, navbatchi edim, deb kech keldi. Keyin haftada ikki martadan „navbatchilik“ qiladigan bo'ldi. Bora-bora kunora yarim kecha qilib keladigan odat chiqardi. Nasiba gapirsa, teskari qaraydi. „Ishim ko'p, nima qilay?“ deydi. Avvaliga Nasiba, to'y tashvishlari bilan charchagandir, deb o'ylagandi. Yo'q, bu yerda bir sir bor. Murodjon birinchi marta navbatchilikni bahona qilgandayoq Nasibaning ko'z o'ngiga qilpanglab turgan Marziya kelgan, yuragi jizillab ketgan edi. Keyin shubhalari yanayam kuchaydi. Bir kuni qayna-nasiga sekin gap ochgan edi, nasihat eshitdi: „Erkak kishi tirikchilik deb yuradi-da, bolam, yuragingizni keng qiling“, deb yupatdi.

Tirikchilik emish. Nima yetishmaydi! Ro'zg'ori but bo'lsa, hamma narsa yetarli bo'lsa, tag'in nima kerak? Yo'q, boshqa gap bor. U kishi ayshini qilib yuradilar, Nasiba sho'ppayib uyda o'tiradi. Mana, hozir ham... Nima, yerdan chiqqanmi?!

Uning xo'rligi keldi. Tag'in dengiz emish. Oydin kechalar emish!

U o'midan turib ketdi. Deraza oldiga keldi. Tashqari qorong'i bo'lib ketgan, ko'chadan ora-chora mashinalar guvullab o'tib qolardi. Nima qilsin? Uyiga borsinmi? Juda yaxshi bo'ladi-da! Murodjon kelsaki, uyda Nasiba yo'q. Ha, zir yugurib qolmas ekan-a! O'shanda biladi sayoq yurish qanaqa bo'lishini!

U beixtiyor toshoyna ro'parasiga keldi. Oynadan qiyg'och qoshlari chimirilgan, surma tortilgan ko'zlarida ehtiros yashiringan tiniq chehrali qiz qarab turardi. U o'zining aksiga o'zi bir zum tikilib turdi-da, sochini chaqqon turmakladi. Qavib tikilgan neylon xalatini yechib, atlas ko'ylak kiydi. Hozir ayni vaqtida! Qaynanasi yo'q, birov yo'lini to'smaydi. U ayvonga o'tib, hovliga tushdi. Ayvon peshtoqidagi lampochka yorug'ida hovlidagi atirgullar sokin, xayoliy tovlanib turardi.

U tez-tez yurib, darvoza oldiga keldi. Bu xonadondan bir umrga chiqib ketayotgandek, xo'rsinib eshikni ochdi. Tashqariga chiqli-yu, uyiga borolmasligini daf'atan tushundi. Yo'q, dadasi darrov sezadi. Bemahalda borganidan tushunadi. To'y aniq bo'lganida, oldiga o'tqazib qo'yib, lo'ndagina qilib tushuntirgan edi: „O'zing xohlab qilyapsan shu ishni, bilib qo'y, to'ydan keyin mayda-chuyda gaplarni ko'tarib keladigan bo'lsang, dilingni siyoh qilib qo'yaman“.

O'sha so'zlar qulog'i ostida tag'in jaranglagandek bo'ldi-yu, bir zum to'xtab qoldi. Lekin shu ondayoq boshqa bir fikrdan ko'ngli yorishib ketdi. Ishxonasiga boradi! Qani, ko'rsin-chi, qanaqa navbatchilik qilayotgan ekan Murod Vohidovich! Kim uni har kuni yarim kechagacha olib o'tirar ekan. Boshliqlarimi yoki anavi ko'kko'z Marziyami?

U duch kelgan mashinaga qo'lini ko'tardi. Oppoq „Jiguli“ ancha nariga o'tib to'xtadi.

– Beshinchi kasalxonaga! – dedi Nasiba orqa o'rindiqqa o'tirib.

O‘rtal yoshlardagi kishi bir zum ikkilanib turdi-da, indamay yo‘lga tushdi.

Nasiba bunaqa paytda kasalxonaga kirish qiyinligini bilardi. Yo‘l-yo‘lakay qorovulga nima bahona qilishni o‘ylab bordi. Lekin uning omadi chopdimi, bu yoqdan qorovulxonaga kirishi bilan u yoqdan „Tez yordam“ mashinasidirog‘ini lopillatib kelib qoldi. Qorovul chol oqsoqlanib borib panjarali darvozani ochguncha, Nasiba lip etib ichkariga kirib oldi. Hatto kinolardagi singari chaqqonlik qilgani uchun quvonib ham qo‘ydi. Ana, o‘sha birinchi qavat, terapiya bo‘limi. U oynaband eshikni oshib, yop-yorug‘ ayvonga kirdi. Vestibul kimsasiz, chekka-chekkadagi skameykalar bo‘sh edi. Nasiba yuragi gupullab urgancha to‘xtab qoldi. Hozir xuddi o‘sha Marziyaga duch kelsa nima bo‘ladi?

U endi yo‘lak tomon yurgan edi, oq xalat kiygan notanish qiz ichkaridan yugurib chiqди.

– Kim kerak sizga? – dedi qoshini chimirib. – Hozir „ot-boy“ bo‘ladi.

– Navbatchi vrachni chaqiring. – Nasiba ataylab Murodjonning otini aytmadи.

Hamshira qiz unga boshdan oyoq yana bir qarab chiqdi-da, ichkari kirib ketdi. Nasiba harchand beparvo bo‘lishga urinmasin, yaxshi ish qilmaganini endi tushundi. O‘zidan o‘zi ijirg‘ana boshladи. Nima keragi bor edi shu yoqqa kelib? Murodjon, nega kelding, desa nimani bahona qiladi? Sizni sog‘inib keldim, deydimi?

Yo‘lakdagи eshiklardan biri sharaqlab ochildi. Nasiba shu yoqqa qarab pildirab kelayotgan oq xalatli pakana kishini ko‘rib esankirab qoldi. Bu – ularning to‘yida kosagullik qilgan xuddi o‘sha Islom aka edi.

U yaqin kelib salomlashdi.

– Ha, kelin? – dedi qandaydir quruq ohangda. – Kuyovni izlab kepsiz-da!

Nasiba juda xijolatli ahvolda qoldi.

– Shundoq o'tib ketayotuvdim, – dedi ovozi zo'rg'a chiqib. – Murodjon akam, navbatchiman, degandilar.

– Murodjon akangiz navbatchi emas! – dedi Islom aka uning gapini bo'lib.

Nasiba yarq etib qaradi.

– Kecha... – dedi tutilib.

– Kechayam navbatchi bo'lganmas! – Islom aka tag'in uning gapini kesdi. Nasibaga bu odamning gapidan ko'ra, so'zlash ohangi og'ir botdi.

– Kechirasiz, – dedi kinoya bilan. – Bo'lmasa, siz bilar-siz qayoqda ekanliklarini?

– Bilaman! Xohlasangiz, oborishim mumkin.

– Mayli, men ham bilib qo'ysam zarar qilmas.

– Hovliga chiqib turing. Men hozir... – Islom aka shunday dedi-yu, o'zining pakanaligi uchun yer aybdordek qars-qurs yurgancha ichkari kirib ketdi.

Nasiba hovliga tushdi. Qandaydir mavhum o'ylardan ko'ngli bo'm-bo'sh bo'lib, sekin-sekin darvoza tomonga yura boshladи. Qiziq, bu nimasi? Nega bu odam u bilan bu-naqa gaplashadi? O'tkazib qo'ygani bormi?

Uning orqasidan kelgan mashina g'iyyillab to'xtadi.

– Chiqing, kelin!

U Islom akaning ovozini tanib, burilib qaradi. To'rt-besh qadam narida sutrang mikroavtobus to'xtagan, Islom aka avtobus eshigini qiya ochib, boshini chiqarib turardi. Nasiba ikkilanib mashinaga chiqdi.

Shu ondayoq dimog'iga dori hidi urildi. Mashina o'rta-siga oq choyshab yopilgan yig'ma karavot o'rnatilgan ekan. Nasiba shundoqqina eshik oldidagi ixcham o'rindiqqa o'tirdi. Islom aka mashinaning narigi biqinidagi o'rindiqqa cho'kdi.

– Qayoqqa boramiz o'zi? – dedi Nasiba unga tezgina qarab olib.

– O'zingiz aytdingiz-ku! Murod Vohidovichning ol-

diga, – Islom aka shofyor o'tirgan kabina tomonga engashdi. – Ketdik.

Shundagina Nasiba shofyor kabinasining devorida tuy-nukcha borligini ko'rdi.

Mashina bir silkindi-yu, shiddat bilan yurib ketdi. U ro'-parasidagi Islom akaga shubhalanib qarab qo'ydi. Islom aka o'rindiq yonidagi tutqichni ushlagancha ko'zini lo'q qilib o'tirar, shiftdagи chiroqning xira yorug'ida yuzidagi ifodani payqash qiyin edi. Nasiba beixtiyor ko'zini olib qochdi. Derazadan tashqariga qaradi. Mashina chiroqlar marjoni lovullab yotgan ko'chadan yelib borardi. Ancha yurishdi. Islom aka hamon miq etmay o'tirar, Nasiba uning o'ziga tikilib borayotganini bilar, shuning uchun ataylab ko'chadan ko'z uzmasdi.

Bir mahal shahar chekkasiga chiqib ketishayotganini ko'rdi-yu, xavotirga tushib qoldi. Ana, Qo'yliq bozorining darvozasi. Naryog'i dalalar... Ana, qop-qorong'i dala yo'-liga burilishdi.

Nasiba, yuragi gursullab urgancha o'midan turib ketdi.

– Menga qarang, qayoqqa ketyapmiz o'zi? – dedi tahdid bilan. – To'xtating!

Xira chiroq yorug'ida Islom aka kinoyali kulib qo'ygan-dek bo'ldi.

– Mana, yetdik... Hozir.

Mashina g'iyqillab tormoz berdi. Nasiba eshik tutqichini siltab ochib yubordi. Shu ondayoq ichkariga to'zon yopirilib kirdi. Yerga sakrab tushdi-yu, oyoq kiyimi to'pig'igacha tuproqqa botib ketdi. Islom aka eshikdan boshini chiqarib, qorong'i bo'shliqqa qarab qichqirdi:

– Mashinani bir soatdan keyin yuboraman!

Mashina orqasi bilan tisarilib bora-bora katta yo'lga burildi.

Nasiba qop-qorong'i zulmatda, tuproq ko'chaning qoq o'rtasida garang bo'lganicha turib qoldi. Vahima ichida at-rofga alangladi-yu, yigirma qadamcha naridagi chiroqqa

ko'zi tushdi. Yong'oq shoxiga kattakon lampochka ilib qo'yilgan, uning atrofida parvonalar muttasil aylanardi.

Shundagina u yo'sha tomonida devori chala tiklangan yakkam-dukkam uylar borligini payqadi. Ular qorong'ida qandaydir sirli, vahimali tuyulardi. Nasiba lampochka ostida allakimning sharpasini ko'rdi. Boshiga qiyiqchani chambarak qilib bog'lab olgan, maykachan odam bir qo'lida g'isht qolipni ushlagancha shu tomonga qarab turardi. U bir zum tikilib turdi-da, qichqirib yubordi:

– Nasi!

Nasiba erining tovushini taniy olmadi. Bu tovushda ham hayrat, ham qo'rquvgaga o'xshash ohang bor edi.

Murodjon qolipni yerga uloqtirgancha shu tomonga yugurdi. O'n qadamcha yugurgandan keyin qattiq hatladi. Nasiba o'rtada ariq borligini endi idrok etdi.

Murodjon yugurib kelib, qo'lini olg'a cho'zdi.

Chamasi, Nasibaning yelkasidan quchmoqchi bo'ldi-yu, qo'li loyligi uchun tegmadi. Nasiba erini hech qachon bunaqa ahvolda ko'rmagan edi. Qizil qiyiqcha bilan boshini bog'lab olgan, eski maykali, pochasi qaytarilgan shimi loy, yalang oyoqlarida balchiq qotib qolgan edi.

– Tinchlikmi? – dedi Murodjon uning ko'ziga tikilib. Keyin ancha xotirjam ovozda so'radi. – Kim opkeldi? Islom akami?

Nasiba hamon haykaldek qotib turar, ro'parasidagi mana shu odam, loyga belangan mana shu kishi eri ekaniga – Murodjon akasi ekaniga hech ishongisi kelmasdi. Murodjon uning ko'nglida kechayotgan gaplarni payqadi.

– Yuring, – dedi qandaydir sokin ovozda. – Mashina bir soatdan keyin kelsa, bitirib qo'yay. Loyim qotib qoladi.

U Nasibani ergashtirib ariq ustiga o'rnatilgan taxta „yakkacho'p“dan olib o'tdi. Nasiba shuursiz bir tarzda yong'oq tagiga keldi. Daraxt shoxiga ilingan lampochka atrofida katta-kichik parvonalar hamon muttasil aylanardi.

Maydoncha kaftdek tep-tekis bo‘lib ketgan, nariroqda qu-rigan g‘ishtlar devor qilib taxlab qo‘yilgan. Qutidagi shokoladdek tartib bilan quyilgan xom g‘ishtlar chiroq yorug‘ida sovuq yaltirab turardi.

– Oz qoldi. – Murodjon bir chekkada turgan uyumdan kafti bilan qolipga qum sepdi. Keyin usta doirakashlardek qolipni aylantirib-aylantirib to‘kdi. Tez-tez yurgancha beriroqdagi gumbazdek loy oldiga keldi. Cho‘nqayib o‘tirib oldi-da, loydan zuvala yasab, qolipga urdi. Qolipdan otlib chiqqan loy parchalari maykasiga, peshanasiga sachraganiga parvo qilmadi. Ortiqcha loyni sidirib tashladi-da, qolipni dast ko‘tardi. Ikki yelkasining bo‘yni bilan tutashgan yerida chuqurcha paydo bo‘lib, yalangoyoq tovonlari bilan yerni gurs-gurs urgancha yugurgilab bordi-da, qolipni boyagi g‘ishtlar safiga eltdi. Paq etgan tovush eshitildi. U qolipni ko‘targan edi, g‘ishtlar safiga yana to‘rttasi qo‘sildi.

Nasibaning tili endi kalimaga keldi:

– Tuzuk, bunaqa hunaringiz ham bor ekan.

Murodjon qolipni qumga qorar ekan, shu tomonga qarab jilmayib qo‘ydi:

– Yigit kishiga qirq hunar ham oz... – shunday dedi-yu, yana cho‘nqayib, loy zuvala qila boshladi.

Nasiba maydoncha o‘rtasida hamon qaqqayib turarkan, birdan hammasini tushundi. U hali erini ko‘rgandayoq nimanidir payqaganday bo‘lgandi... Endi hammasining tagiga yetdi. Murodjon nima uchun o‘zgarib qolganini ham, nega har kuni „navbatchi“ bo‘lishini, nima uchun yarim kechada burnidan tortsa yiqilgudek bo‘lib borishini – hammasini tushundi. Nima uchun Islom aka o‘ziga bunday muomala qilganini, nima uchun bu yerga olib kelib bir og‘iz so‘z aytmay tashlab ketganini... Bu bilan nima demoqchi ekanligini – hammasini!

„Mana, kelinposhsha! Eringning ahvolini ko‘rib qo‘y! Seni deb, sening orzu-havaslaring deb ering shu hunarni qilyapti“. Yo‘q, Islom aka buni aytgani yo‘q. Ammo...

Qandoq uyat! Qandoq sharmandalik! Xo'sh, bo'lmasa nima qilsin? O'g'irlilik qilsinmi? Yuz ellik so'm maosh bilan besh ming so'mlik to'y qilgan odam nima qilsin?

Orzu-havas emish! Umrida bir marta bo'ladigan to'y emish!

Nasiba boshi g'uvullab borayotganini, ko'ngli behuzur bo'lib ketayotganini his etar, qulog'i ostida hamon qolipning ora-chora yerga paq-paq urilgani eshitilib turardi. Go'yo yer yuzida shundan boshqa sado yo'qdek, shundan boshqa ohang qurib qolgandek.

U oyoqlarini sudragudek bo'lib bordi-da, yong'oqning g'adir-budur tanasiga suyandi. Shunda shamol turdimi yo o'zining shuuri tiniqlashdimi, yong'oq shoxlarining shovullashi eshitila boshladi. U ko'zlarini yumdi. Negadir tasavvurida yana o'sha dengiz shovullashi jonlandi. O'sha oydin kecha, o'sha dengiz, o'sha to'lqinlar... Sohilda Murodjon bilan o'tirishibdi.

Nasiba seskanib ko'zini ochdi. Yo'q, endi ular dengiz bo'yiga borishmaydi. Oydin kechada sohilda o'tirishmaydi. Mabodo, borishganida ham, beedad dengiz sathida oy nuri yaraqlab turganida ham, endi bu boshqa dengiz bo'ladi. Oy ham boshqa bo'ladi. To'lqinlar ham, hatto Murod akasi ham. Endi uning yuragi bir tekis gursullab urib, Nasibani allalamaydi.

Ular ancha narsaga ega bo'lishdi. To'y qilishdi, ota-onasi xohlaganicha, Nasiba istagancha orzu-havas ko'rishi di. Hammasini taomildagidek, „qars-badabang“ qilishdi. Hammasini! Bir narsani unutib qoldirishdi. Quyoshning o'lchovi bo'ladimi! Nurning vazni-chi? Baxtning tarozisi-chi?

Dengiz emish. Oydin kechalar emish?! Ana, loyga qo'shilib qolipga tushyapti. Qancha ko'p tushsa, qarzi shuncha kamayadi!

Nasibaning ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi. U

yong‘oqning g‘adir-budur tanasiga yuzini bosgancha o‘krab yubordi.

Bir mahal Murodjon loyli kafti bilan uning sochini silay boshladi.

– Nasi! Nima bo‘ldi sizga, Nasi? – dedi ovozi titrab.

Nasiba keskin burildi-yu, erining loy yopishgan, zax anqib turgan yelkasiga boshini tashlagancha, unsiz yig‘lar edi.

1979

## OQ BULUT, OPPOQ BULUT

*Badiiy asar ham tirik inson kabi tug'iladi. Uning ham qismati bo'ladi... Bu hikoyaning tarixi qiziq. U bundan salkam qirq yil avval yozilgan. Ammo keyinchalik e'lon qilingan kitoblarga kiritilmagan. Sababi shuki, ko'p o'tmay yaratilgan „Ikki eshik orasi“ romanida ham shunga o'xshash tasvir bor: ikki yigitchaning jonini garovga qo'yib suvga kalla tashlash manzarasi. Yozuvchi o'zini o'zi takrorlashga haqqi yo'q. Lekin bu hikoyadagi „yechim“, xulosa butunlay boshqacha. Asar bugungi kitobxonni ham hayajonga solishi, hayot va muhabbat degan sehrli narsa haqida o'ylashga undashiga umid qilaman.*

Muallif

Samolyot yomg'irdan qorayib yotgan beton yo'lkadan shiddat bilan yugurgilab bordi-da, birdan muallaq to'xtab qolgandek bo'ldi. Yomg'ir tomchilari muttasil chiziq tor-tayotgan illuminator oynasidan tashqariga qaradim. Samolyot qiyalab uchib borar, yerdagi ulkan rezervuarlar, aeroportning yo'laklari lipillab ortda qolar, olisda esa qorayib turgan o'rmon ko'zga tashlanar edi.

Zum o'tmay atrofni quyuq tuman o'rab olgandek bo'ldi. Bunaqa paytda samolyot silkinaverib odamni bezor qiladi. O'zimni chalg'itish uchun boyta aeroportda olgan gazetani yana ko'zdan kechira boshladim. Ammo uni o'sha yerning o'zidayoq o'qib bo'lgandim. Shuning uchun hafsalasizlik

bilan suyanchiqqa boshimni qo‘yib, ko‘zimni yumdim. Bilmadim, qancha fursat o‘tdi, bir mahal yonbosh tomondan ayol kishining ovozi keldi:

– Gazetangizni ko‘rib bersam maylimi?

Yonimga kelib o‘tirgan ayolga e‘tibor bermagan ekanman. Burilib qaradim. Qaradim-u, esankirab qoldim.

– Dilafro‘zmisiz? Nima qilib yuribsiz bu yerda?

U quralay ko‘zlarini suzib, qandaydir bosiq, ammo o‘ktam ovozda kuldi.

– Nima, samolyotda sizdan boshqa odam uchmasligi kerakmi?

– Yo‘g‘-e, men... shunchaki, sizni bunaqa vaziyatda uchrataman deb hech o‘ylamagandim.

Dilafro‘z tag‘in o‘sha, o‘zining go‘zalligini biladigan ayollarga xos bosiq, xiyol erkaroq ovozda kulib qo‘ydi.

– Durust, tanidingiz... Men qarib qolgan bo‘lsam kerak, deb qo‘rquvdim... – U bir zum o‘yga toldi-da, yana kulimsiradi. – Ko‘rishmaganimizga ham o‘n sakkiz yil bo‘pti.

Men unga endi yaqindan, sinchiklab qaradim. Dilafro‘z chindan ham ancha o‘zgargan, to‘lishib, qandaydir viqorli ayollarga o‘xshab qolgandi. Faqat ko‘zlar, kulganida ich-ichidan yonib ketadigan quralay ko‘zlar, o‘zining malohatiga ishongan ayollarga xos xotirjam kulgisi o‘sha-o‘sha edi. Hozir unga shuni aytishim kerakligini bilardim. Ammo og‘zimdan boshqa gap chiqib ketdi:

– Men sizni tushimda ko‘rib turaman. Haliyam...

Ha, men uni hanuz tushlarimda ko‘rib turishim rost edi. Men Dilafro‘zni har gal bir xil tush ko‘raman. U oppoq ko‘ylakda birdan paydo bo‘lib qoladi. Quralay ko‘zlarida o‘t yonib, allanimalarni gapiradi, kuladi... Keyin to‘satdan g‘oyib bo‘ladi.

O‘shanda, o‘ninchи sinfda o‘qib yurganimizda u kunora tushimga kirib chiqardi. Sochlari chiroyli turmaklangan, oppoq ko‘ylakda, ko‘zlarida tabassum... Butun mакtabda eng

chiroyli qiz shu – Dilafro'z edi. U boshqa maktabdan o'tgan „yangi“ qiz bo'lgani uchunmi, bir-birini sensirab gaplashadi-gan sinfdoshlarning hammasi uni sizlab chaqirardi. Dilafro'z darsning birinchi kuni oppoq ko'ylak kiyib, eshikdan kirib kel-ganidayoq uni sevib qoldim. Kechalari uyquga ketish oldidan Xudodan yolg'iz bir narsani tilar edim. Uni tush ko'rsam, tushimda aqalli bir marta qo'lidan tutsam... Ertalab uni ko'rish uchun maktabga shoshardim, o'zini ko'rganda esa undan qo-chishga urinar, xuddi arazlagan odamdek uzoqroqdan o'tishga harakat qilardim. Nazarimda, Dilafro'z osmon-falakda, oppoq bulutlar orasida suzib yurgan afsonaviy malakka o'xshar, unga gapirish, tikilib qarash gunoh edi men uchun.

Ochig'ini aytganda, sinfimizdagi bolalarning ko'pi oshiq edi unga.

Hatto Abjal degan „ataman“imiz ham Dilafro'zning shar-pasini sezishi bilan muloyim tortib qolardi. Asli ismi Abdusalil bo'lsa ham, fe'li yomonligidan Abjal deb laqab olgan bu bola qo'pol, to'nkamijoz edi. Ammo butun sinf undan hayiqar, allaqanday bezorilar to'dasiga qo'shilib yurishini bilardik. Abjal bilan faqat bitta bola – tulkidek ustomon Umar oshnachilik qilar, ikkovi doim birga yurishar, shuning uchun bolalar unga „Dum“ deb laqab qo'yishgan edi.

Muhabbat odamni chalg'itadi, deyishadi. Ishonmayman. Muhabbat odamga mislsiz kuch-qudrat bag'ishlar ekan. O'sha yili shu qadar yaxshi o'qiy boshladimki, avvallari uch olsa ham kuyunmaydigan, besh olsa ham suyunmay-digan mendek beparvoning bunchalik bilag'on bo'lib qolganiga o'qituvchilar ham, uyda akalarim ham hayron edi. Men bo'lsam, darsda qoyilmaqom qilib javob berayotganimda besh olishni emas, Dilafro'zni qoyil qoldirishni o'ylardim.

Bitirish imtihonlari cho'zilgandan cho'zilib, hamma-mizning sillamizni quritib yubordi. Bolalar miyasi achib ketganidan nolir, bu azoblardan tezroq qutulishni tilar, men bo'lsam, imtihonlar yanayam cho'zilishini ich-ichimdan

orzu qillardim. Maktabni bitirsak, Dilafro‘z bilan bir umr vidolashadigandek...

Esimda, o’sha kuni kimyo fani imtihonidan bir kun avval yig‘ildik. Negadir o’qituvchimiz kelmadı. Ko‘pchilik tarqalib ketdi. Saraton issig‘idan qizib ketgan, bo‘r isi anqib turgan sinfda o’n chog‘li bola qoldik.

– Yaqinda imtihonlar tamom! – dedi bolalardan biri orzumandlik bilan. – Keyin hammamiz har qayoqqa „husht!“

Parta ustiga minib o’tirgan Abjal do‘rillab kului.

– Biz qayoqqa ketsak ham, Dilafro‘zni opketamiz! – Bu gapni u shunchalik bepisandlik bilan aytdiki, o‘rnimdan sakrab turib ketdim.

– Nima-a? – dedim cho‘zib. – Sen...

„Olib ketasanmi?“ deyishga tilim bormadi.

Olib ketish u yoqda tursin, Dilafro‘z mana shu Abjalning yoniga kelishini tasavvur qilishning o‘zi dahshat edi men uchun. Abjal boyagidan ham bepisandroq ohangda kului.

– Iye, sen nega jirillaysan? Eshitib qo‘y! Men Dilafro‘zxonni...

U yog‘i qandoq bo‘lganini bilmayman. Bir mahal ikkalamiz polda dumalashib aylana boshladik. Abjal sochimdan changallab turib, boshimni uch-to‘rt yerga urgan edi, ko‘z o‘ngim qorong‘ilashdi-yu, hech nima ko‘rinmay qoldi. O‘zimga kelganimda Nizom degan o‘rtog‘im suyab o‘tirardi. Amallab o‘rnimdan turdim. Og‘zim negadir sho‘rtang edi. Kaftim bilan artgan edim, qo‘lim qon bo‘ldi. Abjal yo‘l-yo‘l ko‘ylagining yirtilgan yoqasini g‘ijimlaganicha kimyoviy formulalar yozilgan taxta oldida turar, hansirab nafas olardi.

– Agar yana bitta gapirsang, yo sen o‘lasan, yo men! – Bu gapni shu qadar ishonch bilan aytdimki, atrofnı o‘rab turgan bolalarning nafasi ichiga tushib ketdi.

– Unaqa bo‘lsa, bir yoqlik qilish kerak bu masalani. – Boyadan beri oxirgi partada o’tirgan „Dum“ sekin-sekin yurib yaqin keldi. Quvlik bilan hammaga bir-bir qarab chiqdi-

da, yelkasini uchirib davom etdi. – Dilafro'zni Abjal yaxshi ko'rishidan xabarim bor edi. Endi Ergash yondan chiqqan yonqoziq bo'lib qoldi. – U menga imo qildi. – Yigitchasiga biron chora topish kerak endi.

Nizomning rangi o'chib, „Dum“ning oldiga bostirib bordi.

– Gapni aylantirma, „Dum“! Nima demoqchisan?

– Biron narsadan garov o'ynashsin, ora ochiq bo'la-di-qo'yadi!

– Masalan?

– Masalan... – „Dum“ mushkul muammo qarshisida qol-gandek peshanasini tirishtirdi. – Masalan, Bo'rijarga kalla tashlashdan. Kim omon chiqsa...

– Dumingni likillatma, Dum! – Nizom nafrat bilan undan yuzini o'girdi. – Ergash yaxshi suzolmasligini bilib, jo'rttaga aytyapsan.

Men kaftim bilan og'zimni artgancha ularning bahsini beparvo eshitib turardim. Go'yo bu gaplarning menga mut-laqo aloqasi yo'qdek. Faqat „Bo'rijar!“ deyishganida bultur bir sinfdoshimiz temiryo'l ko'prigidan kalla tashlab, suvdan chiqmagani esimga tushdi. Uning jasadini bir haftadan keyin allaqaysi to'g'ondan topib kelishgan edi.

– Xo'sh, nima bo'pti? Garovni erkak kishi o'ynaydi. – „Dum“ har ehtimolga qarshi Abjalning yaqinrog'iga borib, ovozini balandlatdi. – Yigit degan do'ppi tor kelganida „viyt“ deb qochmaydi.

Sekin o'rnimdan turdim.

– Ketdik.

Nizomning rangi quv o'chib ketdi.

– Jinnimisan! Vey, ahmoq bo'lningmi?

– Hozirmas, – dedi Abjal hamon ko'ylagining yirtig'ini g'ijimlarkan. – Ertaga soat o'nda, ko'prik ustida.

„Dum“ qo'li bilan Nizomga imo qildi:

– Nizom sening sekundanting bo'ladi. Men Abjalga sekundantlik qilaman.

O'sha oqshom yarim kechagacha xayolan Dilafro'z bilan gaplashib yotdim. Qani endi bir marta ko'rsam, oxirgi marta ko'rib qolsam... Yo'q, u olisda edi. Oq, oppoq bulutlar ustida edi. Aksiga olib, o'sha kuni aqalli tushimga ham kirmadi.

Ertalab karaxt bo'lib uyg'ondim. Boshim lo'qillab og'rir, negadir xuddi yig'lagan odamdek ko'zim achishardi.

Ko'chaga chiqsam, darvoza oldida Nizom turibdi.

– Borma! – dedi qo'l siltab. – Bilasan-ku, Abjal bandit! Tegirmonga tushsa, butun chiqadi. Nima, joningdan to'ydingmi?

Ko'nglimning bir chekkasida Nizom to'g'ri aytayotgанини bilib turardim. Ammo o'zim ham tushunib yetmagan qandaydir qaysar tuyg'u nuqlu olg'a itarardi. Qaytaga yaxshi emasmi? Sen o'lib ketasan, Dilafro'z hammasini eshitib, zor-zor yig'laydi... Seni sevmaganiga, qadringga yetmaganiга pushaymon bo'ladi. Abjaldan bir umr nafratlanib yuradi.

– Menga qara, Nizom, – dedim sovuqqonlik bilan. – Qo'rqayotgan bo'lsang, bormay qo'ya qol, menga sekundantning keragi yo'q.

Nizom bora-borguncha meni ham, Abjalni ham, „hamma g'alvani boshlagan“ o'sha „Dum“ni ham so'kib bordi. Menga bu gaplar ta'sir qilmas, xayolim boshqa yodda edi. Dilafro'z qayoqdaykin hozir? Nima qilayotganiykin?

Ko'priq ustiga yetib kelganimizda hech kim yo'q edi. Kun ertalabdan qizib ketgan. Yaltirab yotgan temiryo'l izidanmi, qoramoyga belangan shppardardanmi chuchmal hid anqib, nafasni olgudek bo'lardi. Ko'priq chetiga o'rnatilgan liqildoq panjaraga suyanib pastga qaradim. Yuqorida yoyilib oqayotgan suv shu yerga – temiryo'l ostiga kelganda keskin torayar, ikki cheti betonlab qo'yilgan o'zan-dan shiddat bilan oqib o'tib, narigi tomondan otolib chiqib ketar edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, yuqoridan sarg'ayib kelayotgan suv narigi tomondan ko'piklanib, oppoq oqarib chiqardi. Jarning u yuzida sap-sariq qamishzor ko'zga

tashlanar, yanayam nariroqda botqoqlik qorayib ko'rinardi. Terak bo'yi pastlikda ajdardek vishillayotgan Bo'rijarga qarashim bilan yuragim orqaga tortib ketdi.

– Qalay, yuraging po'killab qolmadimi?

Do'rillagan ovoz egasini tanib, burilib qaradim. Abjal bir qo'lida „portveyn“ shishasi, bir qo'lini beliga tiragancha kinoyali iljayib turardi. Nariroqda esa Nizom bilan „Dum“ yuzma-yuz turishar, Nizom qo'lini paxsa qilib, jahl bilan al-lanimalarni tushuntirar edi.

– Ketar jafosida otib olasanmi? – Abjal shunday dedi-yu, shishani chaqqon ochdi. Boshi ustida baland ko'targancha qultullatib icha boshladи. U har yutinganida do'rdoq labining ikki chetidan qip-qizil vino sizib tushar, ko'ylagining yoqasidan toshib, pastga oqar edi. Turqi ko'zimga shu qadar jirkanch ko'rinib kетdiki, ijirg'anib, yuzimni o'girdim.

Dilafro'zni shunga topshirib qo'yamanmi? Shunga-ya! Undan ko'ra bir marta emas, o'n marta cho'kkanim yaxshi emasmi? Abjal vinoni ichib bo'ldi-da, kaftining orqasi bilan labini artdi. Shishani uloqtirib yubordi. Shisha temiryo'l chetidagi qirrador toshlar ustiga tushib, chil-chil sindi.

– Qani, tashla tangani! – Abjal „Dum“ga qarab qichqirdi. – Tashla, tolemizni sinab ko'raylik!

„Dum“ darrov jilpanglab yetib keldi.

– Mana bu 20 tiyinlik, – dedi qo'lidagi tangani ko'z-ko'z qilib. – Qayog'ini tanlaysan?

Abjal kayfdan qizargan ko'zlarini suzib qo'l silkitdi.

– Menga baribir.

– Sen-chi?

– Mengayam!

– Bo'lmasa bunday... – Uzoqdan eshitilgan gudok tovushi „Dum“ning gapini bo'ldi. – Shoshma, poyezd o'tib ketsin! – dedi u bilag'onlik bilan. – Hammasi qoidasi bilan bo'lishi kerak... Erkakchasiga...

Shiddat bilan kelayotgan teplovoz yaqinlashib qolganda yana bir signal berdi-da, vagonlarni sudragancha guldurab o‘tib ketdi. Yo‘l chetidagi mazut sachragan, qovjirab qolgan o‘tlar silkinib-silkinib, tag‘in qaddini rostladi. Zum o‘tmay pastda yana Bo‘rijarning guvullashi eshitila boshladi.

– Gap bundoq, 20 tiyin deb yozilgan tomoni tushsa, Ergash birinchi bo‘lib kalla tashlaydi. Orqasi tushsa – Abjal. – „Dum“ shunday dedi-da, tangani chirillatib osmonga otdi.

– Mana, Nizom, sen ham ko‘r! – „Dum“ shpalga tushgan tanga ustiga engashdi. – Qarasang-chi!

Nizom ikki temiryo‘lning qoq o‘rtasida karaxt bo‘lib turar, chamasi, bu garovning shunchaki o‘yin emasligiga haliyam ishonmas edi. Men bo‘lsam allaqachon hukm qilingan odamdek xotirjam edim.

– Mana, o‘zing ko‘r! – dedi „Dum“ negadir quvonib. – „Chuv“ tushdi. Birinchi bo‘lib Ergash tashlaydi.

– Bekor aytibsanlar! – Nizom jonholatda baqirib yubordi. – Senlar Ergashni o‘ldirmoqchisan!

Men qizib yotgan relsga o‘tirdim-da, indamay tuflimning bog‘ichini yecha boshladim. Paypog‘imni yechayotganimda negadir Nizom ham, u bilan g‘ijillashayotgan „Dum“ ham jimb qolishdi. Tuflimni bir chekkaga qo‘yib, o‘tirgan joyimda burilib qaradim-u, behush odamdek angrayib qoldim. O‘n qadamcha narida Dilafro‘z turardi. Xuddi o‘sha – tushlarimda ko‘rgandek oppoq ko‘ylak kiygan, sochlari chiroli turmaklangan Dilafro‘z turardi. U oq tuflisi bilan shpallarni bitta-bitta bosib yaqin kela boshladi. Nima bu? Oppoq bultlarning menga qilgan so‘nggi saxovatimi?

– Tinchlikmi? – dedi Dilafro‘z ularga yaqin kelib.  
– Tinchlik, – „Dum“ noqulay iljaydi. – Cho‘milmoqchimiz.

Dilafro‘z menga o‘girildi.

– Ergash, siz ham cho‘milmoqchimisiz?

Men shundagina o'zimga keldim. Uning ro'parasida ya-langoyoq, bema'ni alfozda o'tirganim uchun mulzam bo'lib, sekin o'rnimdan turdim.

– Shunaqa, – dedim ilozi boricha sovuqqon ohangda, – cho'milmoqchiman.

Dilafro'z keskin Abjalga burildi.

– Nima, men ko'chada tushib yotgan chaqamanmi, or-qamdan garov o'ynaysizlar?!

Dilafro'z Abjalga gapirdi-yu, mening ichim muzlab ketdi. Uning bu qadar shiddatli ohangda gapirganini hech eshitma-gan edim. Ko'zimni qayoqqa yashirishni bilolmay qoldim.

– Kim yetkazdi? – Abjal labining bir chekkasi bilan il-jaydi. – Hech kim sizni chaqirgani yo'q-ku!

Abjalning Dilafro'zga kinoya qilishi vujudimni qaq-shatib yubordi.

– Menga qara, o'v! – dedim ovozim titrab. – Gapni ko'paytirma. Boshladik!

Abjal oyog'ini rels ustiga qo'yganicha tuflisining bo-g'ichini yecha boshladi. Shu payt hech kutilmagan voqeа bo'ldi. Dilafro'z „Dum“ bilan Nizomning orasidan o'tdi-da, Abjalning yelkasiga qo'lini qo'ydi.

– Quloq soling.

Abjal boshini ko'tardi.

– Xo'sh?

– Men... – Dilafro'z Abjalning boshiga xiyol egildi. Ko'zlarida allaqanday o't yonib turardi. – Men sizni yaxshi ko'raman. Shuni bilmoqchimidingiz?

Quloqlarim shang'illab, ko'z o'ngim qop-qorong'i bo'lib ketdi. G'ira-shira tumanlik orasida Abjalning bir zum ang-rayib qolganini, keyin qaddini rostlaganini ko'rdim. Yura-gim gursullab urayotganini, oyoqlarimdan mador ketib bo-rayotganini sezib turardim.

Zum o'tmay qirrador toshlar ustiga cho'kkalab qoldim. Kechalari tushimga kirib chiqadigan Dilafro'z shumi? Xayo-

limda bulutlar orasida suzib yuradigan Dilafro'z shumi? Ho-zirgina osmonda uchib yurgan Dilafro'z birdan yerga tushdi. Yo'q, yerdan ham pastroqqa tushib ketdi... Ana, u ketyapti.

Abjalning, hamma yomon ko'radigan, hamma jirkanadi-gan Abjalning qo'lidan tutib ketyapti! Bundan chiqdi, Abjal kecha bekorga gapirmagan, bundan chiqdi ilgariyam...

Abjal uning oppoq bilagidan tutib borar, u esa tasma-dek rels ustidan dorbozlarga o'xshab ehtiyojkorlik bilan muvozanat saqlab yurib ketar edi. Go'yo bir umr shunday yuradigandek. Go'yo Abjal bir zum qo'lini qo'yib yuborsa, yiqilib ketadigandek. Bir necha qadam yurishgandan keyin u orqasiga burilib qaradi. Keyin yana... Men yuzimni chirt o'girdim-u, boshimni changallab qoldim.

Anchadan keyin hushim o'zimga keldi. Ro'paramda Nizom turardi. U aftimga tikilib turdi-da, qandaydir quruq ohangda so'radi:

- Qalay, o'lishingga arzirkanmi?
- Senga nima! – dedim jinnilardek baqirib. – Sening nima ishing bor? Yo'qol, toshingni ter!

Ertasiga kimyo imtihonidan uch oldim. Chiqsam, mak-tab darvozasi oldida yaproqlarini chang bosgan olcha tagida Dilafro'z iljayib turibdi. Ko'zimga shu qadar xunuk ko'rinish ketdiki, yuzimni teskari o'girdim. Shitob bilan o'tib ketayot-gan edim, chaqirdi:

- Ergash...
- Nima! – dedim baqirib. – Abjal kamlik qilib qoldimi? Birpas sabr qilsang, chiqadi! – Shunday dedim-u, yugurib ketdim.

Keyin... hammasi tamom bo'ldi. Maktab ham. Muhabbat ham... Toshkentdek shahri azimda institutga kirishga ko'zim yetmasdi. Omadim chopdimi, yaxshi tayyorgarlik ko'rdimmi, har qalay, Temiryo'l transport injenerlari institutiga kirdim. Ora-chora Nizomdan xat kelib turardi. Ikki marta Dilafro'z seni so'radi, adresingni beraymi, degan

mazmunda ham yozdi. Ko'nglimda quvonchga o'xshash bir nima yilt etgandek bo'ldi-yu, o'sha zahoti so'ndi. Uning Abjal bilan yetaklashib ketayotgani, men bo'lsam ahmoqona bir alfozda temiryo'l chetida angrayib o'tirganim ko'z o'ngimga kelib, „Aravasini tortsin“ degan mazmunda javob yozib yubordim. Shunda ham har gal uni eslasam, yuragimning bir cheti jiz etib qo'yardi... Bora-bora jizillamaydigan bo'ldi...

To'rtinchi kursni bitirgan yilim uylandim. Shunda ham qachondir ko'ngil qo'ygan kishingni unutish og'ir bo'larkan, uning qismatiga befarq qaray olmas ekansan.

Dilafro'z Andijon Tibbiyot institutida o'qiyotganidan xabarim bor edi. O'sha yili u ham turmushga chiqqanini eshitdim. Yo'q, yuragimda rashk yoki iztirob emas, o'kinchga o'xshashroq bir narsa uyg'ondi. Uyg'ondi-yu, so'ndi. Faqat bir narsaga hayron qoldim. Dilafro'z Abjalga emas, boshqa yigitga turmushga chiqibdi...

Keyin bular ham unutildi. Faqat onda-sonda tushlarimga oppoq ko'ylak kiygan Dilafro'z kiradigan bo'ldi.

O'n sakkiz yil oz muddat emas. Dilafro'z chindan ham o'zgargan, ammo o'ktam kulgisi, quralay ko'zlarining kiborona boqishi o'sha-o'sha edi.

– Men sizni tushimda ko'rib turaman, – deb takrorladim uning ko'ziga tikilib.

– Yo'g'-e! – Dilafro'z ko'zlaridan o't chaqnab kului. – Nahotki?

– Bu gapni sizga yoqish uchun aytayotganim yo'q. Bor gap shu.

– Qarang-a, men shuncha harakat qilsam ham, siz sira tushimga kirmaysiz.

Bu gapni u yarim hazil bilan aytди. Biroq mening ko'z o'ngimda yana o'sha sovuq manzara jonlandi. Uning Abjal bilan yetaklashib ketgani-yu, men ayanchli qiyofada termilib qolganim. Harchand o'zimni tutishga urinsam ham, bun-

day pallada aytish mumkin bo‘limgan eng ahmoqona gap og‘zimdan chiqib ketdi:

– Abjalni hech ko‘rasizmi?

U yarq etib qaradi.

– Kimni-i-i? – dedi cho‘zib.

Kuldim.

– Abjalni-da! Esingizdan chiqdimi?

Dilafro‘z ko‘zimga uzoq, sinovchan tikilib turdi-da, negadir istehzoli kului:

– Boshimga uramanmi uni?! – dedi qoshini chimirib.

Esankirab qoldim.

– Axir, o‘shanda...

Dilafro‘zning ko‘zlariga sezilar-sezilmas iztirob sharnasi soya solib o‘tgandek bo‘ldi. Biroq zum o‘tmay kulimsirab so‘radi:

– Doktorlik ishingiz bitib qoldimi?

– Siz... siz qayoqdan bilasiz? – dedim battar hayratlanib.

– Men shunaqa bilag‘onman! – Uning gap ohangida yashirin istehzo bor edi. – Hammasini bilaman! Qachon nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaganingizni, Guli bilan to‘yingiz o‘n to‘rtinchchi iyun, shanba kuni bo‘lganini. To‘ng‘ich o‘g‘lingiz may oyida tug‘ilganini... Xotiningiz hamshira bo‘lib ishlashini... Aytaveraymi? – U kului. Ammo bu safar kulgisida o‘ktamlik yo‘q edi. Buni o‘zi ham sezdi, shekilli, yuzini o‘girib, boshini quyi soldi...

Vujudim birdan bo‘m-bo‘sh bo‘lib qoldi. Samolyot hamon guvullab uchib borar, nazarimda, mening qalbimda ham allanima guvullab junbishga kelgan edi...

Nimaga u sening hayotingni miridan sirigacha biladi? Ilmiy ishingniyam, qachon uylanganingniyam... Nimaga? Nega u Abjalning nomini eshitganda ijirg‘andi? Demak, Abjaldan nafratlanar ekan-da?! Xo‘sh, o‘shanda ko‘prik ustida o‘zingning ayanchli qiyofada qolib ketganingni o‘ylaysan-u, nega Dilafro‘zni o‘ylamaysan? O‘shanda Dilafro‘z uchun,

maktabning eng go'zal, eng mag'rur qizi uchun o'zi yomon ko'rgan, o'zi jirkanadigan odam bilan qo'l ushlashib ketish oson bo'limgandir? Kim uchun qildi bu ishni? Shoshma... O'shanda rels ustida amallab muvozanat saqlab ketayotganida nima uchun orqasiga qayta-qayta termilib qaradi? Balki, o'shanda uning ko'zlarida ingragan iztirobini payqamay qolgandirsan? Balki, ertasiga maktab darvozasi oldida seni kutib turganida hammasini tushuntirmoqchi bo'lgandir? Sen bo'lsang, uni haqorat qilib, jo'nab qolgansan. U shundayam seni kechirgan. Bo'lmasa, nima uchun Nizomdan qayta-qayta surishtirdi seni? Nimaga sen bilan uchrashishni tiladi? Nimaga? Nimaga xotiningdan tortib, bolangning tug'ilgan kunigacha biladi? Nimaga? Nimaga?

Bir-biridan achchiq, bir-biridan armonli savollar ketma-ket yopirilib kelar, samolyot motorining guvullashi, miyamda charx urayotgan savollar – hammasi aralash-quralash bo'lib, vujudimni larzaga solar, Dilafro'z bo'lsa hamon nariyoqqa qarab o'tirar edi. Men uning yuzidagi ifodani aniq ko'rmasdim. Ammo ko'rmasam ham, o'zimning bepisandligim tufayli, o'zimning befahmligim tufayli shuncha paytdan buyon payqamay kelgan tuyg'ularni endi aniq sezib turardim. Faqat... faqat endi kech bo'lgandi. Ajab, sendek „olim“, sendek „zukko“ erkakning bir ayol qalbini tushunishi uchun o'n sakkiz yil kerak bo'libdi! O'shandayam tasodifan, to'satdan... Demak, shuncha yillardan beri bejiz tushlaringga kirmagan ekan-da?!

Sen bo'lsa... Sen galvars bo'lsa...

Dilafro'z hamon boshini quyi solib, nariyoqqa qarab o'tirar, nazarimda, u yana o'sha oq, oppoq bulutlar orasida uchib yuradigan malakka aylanib qolgandi...

## MUHABBAT

### I

Uzoq, entikib o‘pishdilar. Qizning soch tolalari Tirkashning yuziga tegib turar, allanechuk notanish, ammo totli is anqir, uning butun vujudi tarang tortilib, oyoqlari titrar, qizning ham yelkalari bilinar-bilinmas silkinayotganini his qilib turardi. To‘satdan qiz sultanib qaddini rostladi-yu, zarb bilan itarib yubordi uni.

Tirkash laylak qilib qo‘yilgan aravaga suyanib qoldi. U hamon o‘ziga kelolmas, allaqanday ichki bir to‘lqin borgan sayin qattiqroq jo‘sh urardi.

– Dadam so‘yib tashlaydi, – dedi qiz to‘zib ketgan sochlarini kafti bilan tekislarkan. Ammo dadasidan hech qachon hayiqmaganligi, bundan keyin ham hayiqmasligi uning ovozidan bilinib turardi.

Tirkash aravadan uch-to‘rt qadam narida, maysalar ustiga tashlab qo‘yilgan bir parcha namat ustida uxbab yotgan cholga qaradi. Chol ola-bula xurjunga boshini tashlab, oyoqlarini ker-ganicha, chalqancha yotar, qorong‘ida yuzi aniq ko‘rinmasdi. Undan ham nariroqda bir tup do‘lananing to‘kilgan xazonini shitirlatib, sharpaday qop-qora eshak o‘tblab yurardi.

Tirkash qaddini rostlab, qizga tikilib qoldi. Uning katta-katta ko‘zları yonib turar, uzun-uzun kiprikleri, qirra bur-ni qorong‘ida yanayam jozibali ko‘rinar, Tirkash hali ham hayajonini bosib ololmas edi. Ikkovlari anchagacha jimib qolishdi.

Arslonbob tog‘ining cho‘qqisi yonib ketdi. Zum o‘tmay dum-dumaloq to‘lin oy chiqdi. Chor atrofga nur aralash

sukunat seli quyilganday, hamma yoq jimjit bo'lib qoldi. Yaproqlari to'kila boshlagan do'lana soyaday qorayib ko'rinar, havoda xazon, g'o'zapoya isi anqirdi.

Qiz sochini qaytadan o'rib, orqasiga tashladi. Tirkashning yoniga keldi-da, niholday nozik gavdasini egib, arava ichidan paxtalik nimcha olib kiydi. Tirkashga bir qarab qo'ydi-yu, oyoqlarini osiltirib, aravaga o'tirib oldi. U endi hamma narsani unutganday, Tirkashni ko'rmayotganday edi. Boshini baland ko'tarib, oyga tikilib o'tirar, chehrasida be-parvolik ko'rinish turardi. Boyagi to'lqin yana jo'sh urib ketdi. Tirkash nima qilayotganini o'zi ham sezmay, tiz cho'kib, qizning oyoqlaridan mahkam quchoqlab oldi.

– Dilor, ketma. Iltimos qilaman, yalinaman... – U qizning tizzasiga bosh qo'ydi. Negadir shu tobda qizning qo'llari sochini silashini kutar, orzu qilardi. Dilor egilib uning yelkasidan itardi.

– Ket bu yerdan!

– Tushunsang-chi axir, qayoqqa borasan?! Nimaga borasan? – Tirkash qizning oyoqlarini mahkamroq qisib, iltijo bilan bosh chayqadi. – Yo'q dema, Dilor. Ikkalamiz birga ishlaymiz. Sen nimani xohlasang...

– Ket, men uxlayman! – Dilor tag'in uning yelkasidan itardi.

Tirkash qizning chimirilgan qoshlariga, qat'iyat bilan qimtilgan lablariga qarab, endi gapirish ortiqcha ekanini tu-shundi. Asta qaddini rostlab, boshini quyi soldi. O'ziga ham erish tuyulgan past, o'kinchli ovozda pichirladi:

– Ketib qolmanglar, tongotarda kelaman.

Shartta burildi-da, tasmaday oqarib yotgan tuproq ko'-chadan soyasini bosib, chopib ketdi. Oy koptokday sakrab-sakrab unga ergashib kelayotgandek bo'lar, qishloq tomondan itlarning akillagani eshitilar, soy shovullar edi. Qir ustiga chiqqanida old tomondan qishloq chiroqlari ko'-rindi. U to'xtab qoldi. Orqasiga burilib qaradi. Pastlikda,

yo'l yoqasidagi o'sha bir tup do'lana qorayib ko'rinar, Dilor ham, otasi ham daraxt ko'lankasi tagida qolib ketgandi.

Tirkash tez yurganidan nafasi qisib, terlab ketganini endi sezdi. Ko'ylagini yechib yelkasiga tashladi-da, tag'in qishloq tomonga qaradi. Katta yo'ldan nur zanjiri bilan bog'lanib qolganday qator-qator mashinalar o'tib borardi. „Punktga paxta olib ketishyapti“, deb o'yladi u. Birdan ko'ngli cho'kdi. „Yo'q! – dedi u pichirlab. – Hech qayoqqa bormayman. Bormayman! Uyga ham, Dilorning oldiga ham. Hech nima kerakmas menga, hech nima!“

U ko'ylagini yerga tashlab, qurib, sarg'ayib qolgan ko'-katlar ustiga o'tirdi.

„Nima bo'lyapti o'zi? Qayoqdanam shu qizni uchratdim?! Nahotki, endi hamma narsadan – uyim, qishlog'im, otamdan ayrilsam? Nahotki, endi Tentaksoydan bir umr boshimni olib ketsam? Nima bo'lyapti o'zi?“

U diqqat bilan quloq sola boshladi. Bu safar soyning shovullashi aniq eshitildi. Keyin xo'rozlar cho'zib-cho'zib qichqira boshladi. Ehtimol, ularning hovlisidagi tojdor xo'roz ham qo'nqoda turib bo'ynini cho'zgancha jo'r bo'layotgandir. Ehtimol, Qosim ota xirmondan qaytib, uning kelishini kutib, supada nos chekib, mudrab o'tirgandir.

Tirkashning xayolida Qosim otaning oppoq qoshi ostidan o'ychanlik, muloyimlik bilan boqib turgan ko'zları, so'l-g'inroq, ammo nuroniy yuzi, cho'qqi soqoli jonlandi. Shu ko'zlarining nurini olgan Tirkashning o'zi emasmikin? Shu soch-soqolga qirov qo'ndirgan Tirkashning o'zi emasmikin? Axir, uni odam qilgan, ota o'mida ota bo'lgan kishi shu emasmidi?.. Tirkashdan boshqa suyanchig'i bormi uning?

Koshki edi, Tentaksoyga o'sha eski arava kirib kelmagan bo'lsa... Koshki edi, Tirkash shu aravada kelayotgan lo'li qizni – Dilorni ko'rmagan bo'lsa...

Tirkash birdaniga o'rnidan sakrab turgisi, qishloq tomonga yugurib ketgisi keldi. Lekin qachonlardir go'dak-

lik xotirasiga mahkam o'mashib qolgan, unutilayozgan sog'inch bir tuyg'u ustun keldi-yu, chalqancha yotib oldi. Oy havolab ketgan, qatlam-qatlam kuz bulutlari ohista suzib o'tar, namxush tuproq isi anqir edi.

## ||

Bu voqeaga ancha yil bo'lib ketgan. Ancha yillar...

Hazin qo'shiqlar og'ushida mudragan oqshomlar, oy nuriga g'arq bo'lgan osmon... Tirkash dunyoga kelib eng avval shularni ko'rgandi. Kun botar-botmas ularning elati ko'kalamzor bir yerga chodir tikar, Tirkash ko'katlar ustiga chalqancha tushib olardi-da, childirmaning gumburlashiga, quvnoq qahqahalarga qulq solib yotar, gulxan atrofida lip-lip aylanayotgan soyalardan ko'zi tinib uxbab qolardi.

Tirkash o'shanda yetti-sakkizlarga borib qolgan, tishlari bir marta to'kilib chiqqan edi. Kun bo'yi yo'l yuraverib charchaganidanmi, hammadan oldin uxbab qolibdi.

Tongotarga yaqin entikib uyg'onib ketdi. Uyg'ondi-yu, to'lqinlar ketma-ket urilib, suv qa'rige tortib ketayotganini bilib chinqirib yubordi. Ammo ovozini o'zi ham eshitolmadi. Og'ziga suv to'lib o'xchiy boshladidi. Soy dahshatli guldurosdan titrar, yer-u ko'k qop-qora to'lqinlarga ko'milgan edi. Tirkash suvdan qalqib chiqib, qop-qora osmonni so'nggi marta ko'rdi-yu, tipirchilab cho'kib ketdi.

U ko'zini ochganida boshiga egilib turgan notanish kishini ko'rdi. Elatida bunday odam yo'q edi. Boshiga ko'k duxoba do'ppi kiyib olibdi. Yuzlari qizarib ketgan, oq oralagan mo'ylovi ho'l bo'lib, cho'qqi soqoliga yopishib qolibdi. U jiqqa suv ko'ylagining etagini qayirib, Tirkashning peshanasini artdi.

– Oting nima, o'g'lim?

Tirkash o'zini shu odam suvdan olib chiqqanini endi tushundi.

– Ketaman!

U o‘rnidan turmoqchi bo‘lgan edi, majoli kelmadi. Notanish kishi uning ustiga ko‘rpa tashladi.

— Elatlaring ketib qolishdi. Seni allaqachon o‘ldiga chiqarishgan bo‘lsa kerak. — Notanish kishi chuqr xo‘rsindi. — Sel yomon quturdi-da! Tentaksoy shunaqa o‘zi. Har bahorda jilovini yo‘qotib qo‘yadi.

Tirkash begona uyning guldor qog‘oz yopishtirilgan shiftiga tikilib yota-yota ko‘zлari ilindi.

...Bu voqeaga ancha yil bo‘lib ketgan... Ancha yillar...

Agar uch kun avval qishloqqa yana bitta lo‘li arava kirib kelmaganida, agar Dilorni ko‘rmaganida, qiz, ketaman, deb turib olmaganida, o‘sha damlarni eslab o‘tirarmidi u?

### III

Quyosh ufqqa lab bosdi. Kichkinagina shaloq arava tuproq yo‘ldan imillab borar edi. Qora eshak chillakday ingichka oyoqlari bilan tuproq changitib, aravani sudrab borar, g‘ildiraklar nola chekkan kabi hazin g‘iyqillardi.

Aravada o‘tirgan cholning ingichka, burishiq bo‘ynidagi chuchurchasi, oq oralagan sochi Tirkashga ko‘rinib turardi. Dilorning otasi hech qayoqqa shoshilmayotganini shama qilganday, eshakni qistamas, boshini tashlab mudrab borardi. Ertalabdan beri chol Tirkashga bir og‘iz ham gapirmadi. Faqat ahyon-ahyonda milki qizarib ketgan ko‘zлari bilan unga sinchiklab qarab qo‘yar, yana indamasdan teskari qarab olardi.

Aravaning ketida Tirkash bilan yonma-yon kelayotgan Dilor unga qarab jilmayib qo‘yar, allaqayoqdan sindirib olgan tol xivichi bilan yo‘l chetidagi giyohlarni savalab borardi. Uning shapaloq gulli qizil ko‘ylagi shafaqda lovullar, o‘zi ham o‘t bo‘lib yonib ketayotganday ko‘rinardi. Tirkash shu tobda qizning nima o‘ylayotganini bilolmas, ammo bir ko‘zini sal qisib, istehzoli, jozibali jilmayishidan o‘zining go‘zalligidan, yigitni ergashtirib kelayotganidan mammun ekanligini ko‘rib turardi.

Quyosh Yer ortiga yumalab ketdi. Oqshom shamoli ufqda yonib turgan shafaq alangasini puflab o'chirdi. Hamon g'ildiraklar nola chekar, shaloq arava tepalikka chiqib borardi.

O'sha, suvdan olib chiqqan yiliyoq Qosim ota unga papka, „Alifbe“ olib bergan, Tirkash maktabga qatnay boshlagan edi. Tong saharlab shudring qo'ngan dalalardan maktabga yugurganlari, yozlari jamoa xo'jaligi bog'ida bolalar bilan uzum uzishgani, bultur o'ninchini bitirganida maktabda o'tkazilgan kecha uning xayolida jonlandi-yu, yuragi gupullab urib ketdi.

Tirkash kuz kechalari xirmonda ishlashni yaxshi ko'rardi. U baland xirmon ustiga chiqib, chalqancha yotib olar, nazarida, osmon borgan sayin pastlashib tushayotganday bo'lar, paxtaning yelkalariga iliqqina, yumshoqqina botishi ham, salqin shamoldan junjikib, seskanib ketishi ham — hamma-hammasi juda lazzatli edi.

U rohat qilib yotganida pastdan mashinaning bo'g'iq ovozi eshitilar, kabina eshigi taraqlab ochilardi.

— Uxlab qoldingmi, hoy lo'li!

Tirkash shofyorlarning qo'polligiga parvo qilmas, o'zini shu qishloqning bir o'zbegi, bir farzandi hisoblardi. U xirmon ustidan sakrab tushardi-da, kuzovga panshaxa bilan paxta ortardi...

Keyin traktorchiga shogird tushdi. U omochlarni to'g'-rilab borar, palaxsa-palaxsa bo'lib ko'chayotgan tuproq isi, kerosin hidi mast qilib qo'yganday boshi aylanib ketar, motorning guvullashi ham, traktor atrofida parvonaday aylana-yotgan qarg' alarming qag'illashi ham gashtli tuyulardi unga.

Yigit o'sha tuproq isini, bahor qo'ng'irog'idan uyg'on-gan yerning iliq nafasini, Tentaksoyning tishni qamashtirib yuboruvchi muzday suvlarini hech qachon, hech nimaga alishmasligini, alisha olmasligini endi tushundi. Tushundi-yu, tishlari g'ijirlab ketdi.

...Tirkash yelkasiga kelib tushgan xivich zarbidan ses-kanib ketdi.

– Yurmaysanmi?

Dilor bir qo‘lini biqiniga tirab, bir qo‘lida xivich o‘y-natib jilmayib turardi. Atrof qorong‘ilashib qolgan, shaloq arava allaqachon pastga tushib ketgandi.

Dilorning hukmron jilmayib turishi ham, o‘tday yoniq ko‘zлari, qirra burni ham birinchi marta xunuk ko‘rinib ketdi unga.

– Turtmasdan gapir! – dedi u bo‘g‘ilib. G‘azabdan yuz-lari lovullab ketganini o‘zi ham sezib turardi.

– Bechora oshiq! – Dilor birdan qah-qah urib kulib yubordi. Sukunat cho‘kkan adirlar ustidan oqshom sharpasiday sirli, bo‘g‘iq aks sado keldi.

Tirkash bir siltanib, qizning xivichini tortib oldi-da, may-da-mayda qilib yerga ottdi. Dilor hech nima bo‘Imaganday, hamon jilmayib turardi.

– Qishloqqa qaytamiz! – Tirkash juda muhim, aziz bir narsani tushuntirmoqchi bo‘lganday, qizning yelkalaridan ushlab, o‘tinch bilan silay boshladи. – Iltimos, Dilor, yo‘q demagin! Ketishimizdan nima foyda, qayoqqa boramiz? Jon Dilor, xo‘p degin, – u birdan qizni bag‘riga bosib shivirlay boshladи: – Tentaksoyga qaytamiz. U yerda mening otam, o‘rtoqlarim, traktorim bor, bilasanmi, – u negadir bo‘g‘ilib ketdi. Tomog‘iga tiqilib qolgan iliq bir narsani yutib, arang shivirladi, – bilasanmi, Dilor, u yerda mening... mening vatanim bor. – Qizning soch tolalari yana yuziga tegib ketdi. Yana o‘sha, kishini mast qilib yuboruvchi mayin is gurki-radi. – Dilor, xo‘p degin, bir marta xo‘p degin...

Qiz siltanib chekindi. Endi u jilmaymas, ko‘zлari o‘t bo‘lib yonardi.

– Hech kim seni boshlab kelayotgani yo‘q. O‘zing kel-yapsan, – u birdan chinqirib yubordi. – Sen lo‘li emas-san, anqovsan! – Keyin ko‘zлari qisilib kinoya bilan ovo-

zini pasaytirdi. – Kim qo'yibdi senga duch kelgan qizga ergashib yurishni? Bor, qishlog'ingga boraver! Sen bilan ishim yo'q. Men bilan ham ishing bo'lmasin!

Dilor tuproq yo'ldan pastga qarab chopib ketdi. Tirkash uning shamolda hilpirab, uzoqlashib borayotgan ko'ylagini ko'rib turar, ammo nima bo'layotganiga hali ham tu-shunolmasdi. U bir nafas ikkilanib turdi-da, qizning ketidan yugurdi. Tepaning yarmiga borganda, halloslab yetib olib, qo'lidan tortdi.

- Dilor!
- Qoch! – qizning ko'zlarini nafrat bilan yonib turardi.
- Ketma, Dilor!
- Qoch, laycha!

Birdan Tirkashning vujudi muzlab qoldi. Boyagi qay-noq hislar o'rmini allaqanday yovvoyi kuch egalladi-yu, tar-sakilab yubordi uni.

- Yo'qol! – dedi xirillab, – yo'qol!

U Dilorning kafti bilan yuzini ushlab qolganini ko'rdi. Keyin keskin burildi-da, qishloq yo'lini mo'ljallab chopib ketdi. Bir marta ham orqasiga qaramadi.

Arslonbob cho'qqisidan qip-qizarib oy chiqib kelar, tuproq yo'l oqarib ko'rinar, Tirkashning soyasigacha qaltirardi.

#### IV

Qish erta tushdi. Hali g'o'zapoyalar yig'ishtirib olinmas-dan turib qor yog'di.

Ertasiga havo charaqlab ochilib ketdi. Tirkash qor ko'r-pasiga burkanib endigina uyquga ketgan yerni cho'chitib traktor haydar, qor bosgan dalalar oftob nurida ko'zni qa-mashtirib yarqirar, yakkam-dukkam g'o'zapoyalar taqdiri-dan noliganday shumshayib turardi. Traktor hali yaxlama-gan dalada yengilgina suzib, muzyorar kemaday orqasidan qop-qora iz qoldirib borardi.

U tushlikka chiqish uchun motorni o'chirib, kabinadan

sakrab tushdi-yu, paykal boshidagi tutzor yonida turgan qizni ko'rib qoldi. Boya, motorga suv quyayotganida ham ko'rganday bo'lgandi. Qiz sariq paxtalik kiyib, boshiga ko'k ro'mol o'rab olgandi. Uning bir qo'lini biqiniga tirab turishi tanishday ko'rindi yigitga.

„O'tkinchilardan bo'lsa kerak“. Tirkash shiypon tomon-ga burilib ketayotgan edi, qiz qo'l siltab imo qildi.

Tirkash kirza etiklari bilan qor kechib, besh-o'n qadam yurdi-yu, qizni tanib qolib, yugurib ketdi. Yuragi yana o'sha sog'inch hislar bilan jo'sh urar, etikning sirg'anishiga ham, g'o'zapoyalarga qoqilishiga ham parvo qilmasdi. „Dilor, Dilor!“ derdi u pichirlab. Negadir quvonchdan entikar, ni-maga quvonayotganini o'zi ham bilmasdi.

U nafasi tiqilib yugurib keldi-yu, Dilorning nozik, ammo chayir qo'llarini kaftiga oldi.

„Qo'li muzlab ketibdi“, deb o'yadi qizning yuziga tikilarkan. Dilorning rangi so'lg'inallashgan, ko'zlar cho'kkani, ammo hamon jozibali tabassum bilan jilmayib turardi. U isib ketganday, paxmoq ro'molining tugunini yecharkan, tirsagi bilan Tirkashning ko'kragiga turtdi.

– Haydab yubormaysanmi?

– Qachon kelding?

– Ertalab.

– Butunlaymi?

– Butunlay! – dedi Dilor beparvo. Tirkash qizning ko'zlariga bir qaradi-yu, shu bir og'iz so'zga ishonish mumkinligini tushundi.

– Jinni! – dedi u kulib.

Qizning yelkasiga ohista qo'l tashladi-da, qor bosgan da-la yo'lidan qishloqqa – o'z hayotiga boshlab ketdi.

## XAYOLLARGA BO'LAMAN TUTQUN

*Ko'r may desam, ko'zim ko'r emas.  
Yurmay desam, oyog'im butun.  
Ammo qalblar ortiq jo'r emas,  
Xayollarga bo'laman tutqun.*

Mirtemir

U ketdi... Yaproqlari oqshom shabadasida ohista silkinib turgan bir tup o'rik tagidan burilib o'tdi-yu, muyulishda ko'z-dan g'oyib bo'ldi. Qarg'ashoyi ko'ylagining etagini, o'ng bilagiga ilib olgan qizil sumkachasinigina ko'rib qoldim.

U ketdi... quloqlarim ostida anhoring qiqir-qiqir kulgisi-yu, xo'rsinishga to'lgan qiz yig'isi qoldi.

...Ko'zlarimda yosh qalqidimi?! Yo'q-yo'q, axir, nega endi?

U ketdi... U ketdi-yu, xayolimda ham shirin, ham ach-chiq, ham quvnoq, ham alamliuzuq-yuluq xotiralar qoldi...

...O'shanda men birinchi bosqichda o'qirdim. Birinchi imtihonni topshirgan edim. Qiziq, yoshlik ekan-da! Birinchi bosqich talabalarining hammasida bo'ladigan odad menda ham bor edi. O'zimni juda bilimdon, goho domlalardan ham ko'proq narsani biladigan kishi hisoblardim. Ha, men mag'rur edim. Buning ustiga birinchi imtihondan a'lo baho oldim. Men shod edim, allaqayoqlarga uchgim, baland-bal-land parvoz etgim kelardi. Gavjum yo'lkalarda borarkan-man, hech kimni ko'rmas, hech nimani sezmas edim.

Trolleybusga chiqdim. Bo'sh o'rindiqqa o'tirib kitob varaqlay boshladim. Kitob o'qirdim-u, satrlar mazmunini o'zim ham tushunmasdim. Xayollarim olislarga yetaklab ketardi meni. Yonimga kelib o'tirgan qizga parvo qilmab-man. Bir vaqt u piq etib kulib yubordi.

– Odamga qaragingiz ham kelmaydimi, Erkin aka?  
Cho'chib o'girildim.

– Iye, Xolida... – xijolatdan qip-qizarib ketgan bo‘lsam kerak, Xolida yashnab-yashnab kulib yubordi.

Noqulay ahvolda iljayib, unga razm soldim. Hech o‘zgarmabdi. Doim nimanidir kutganday, bolalarcha javdirab turuvchi charos ko‘zлari ham, chehrasiga allaqanday soddalikkami, bo‘shanglikkami o‘xshash ifoda beruvchi qalinroq lablari ham o‘zgarmabdi. Bu o‘sha Xolida edi. Bundan yarim yilcha avval o‘zim bilan bir partada – maktab partasida o‘tirgan Xolida edi. Hech o‘zgarmabdi... Faqat meni „aka“ deganiga hayron bo‘ldim. Maktabda bo‘lsa har doim „hey bola“ deb chaqirardi, shayton qiz!

Xayolimni yig‘ishtirib olmasimdanoq Xolida yana hujumga o‘tdi:

– Ja, talaba bo‘lib... a? O‘qishlar yaxshi ketyaptimi?

– Hm! – dedim so‘zimning yarmisini yutib. Men uni „siz“lashimni ham, „sen“lashimni ham bilolmay, bir zum istihola qilib turdim-da, faqat gapirish uchungina so‘radim: – Siz qayerda o‘qiyapsiz, Xolida?

Bilmadim, Xolida savolimni eshitmadimi yoki e’tibor bermadimi, yuzini chetga burib, u yoq-bu yoqqa alanglay boshladи. Oldinroqda turgan ayolni chaqirib joy berdi. Men ham turib ketdim. Ikkovimiz yonma-yon turib, anchagacha jim ketdik. Keyin Xolida yana avvalgiday jilmayib so‘radi:

– Shunday qilib, jurnalist bo‘lar ekansiz-da... Ko‘rsam maylimi? – Xolida qo‘limdagи kitobni oldi. – Lui Aragon! Yaxshi yozuvchi bo‘lsa kerak-a?

Men indamay bosh silkib qo‘ydim. Xolida kitobni varaqlarkan, ichidan zachyot daftaram chiqib qoldi. U menga yovqarash qildi. Quyuq qoshlari bir to‘lg‘anib qo‘ydi.

– Ruxsatsiz ko‘rsam, xafa bo‘lmaysizmi?

Men, avvaliga, mayli, dedim-u, keyin birdan uning qo‘llariga yopishdim. Surat! Axir, daftar ichida o‘zining surati bor-ku! Ko‘rsa, nima xayolga boradi? Bitiruv kechasi

sinfidoshlarimiz bilan surat almashgandik, negadir Xolidaning suratini o'shandan beri yonimda olib yurardim. Nimaga shunday qilayotganimni o'zim ham bilmasdim. Faqat... faqat Xolidaning menga boshqacharoq qarab yurishini bolalar shama qilishardi o'shanda. Menda ham shu qizga nisbatan mehrli, allaqanday his uyg'ongandi.

Lekin nima uchundir shu tobda unga suratini ko'rsatgim kelmadi.

– Xolida, kechirasiz, mumkin emas, – dedim sun'iy il-jayib. Daftaramni cho'ntagimga solib qo'ydim.

– Kechirasiz... Sizning ichki ishlaringizga aralasha olmayman.

Xolida hazillashyaptimi, chindan gapiryaptimi, bilolmadim. Oraga tushgan sovuq vaziyatni yo'qotish uchun tayinliroq so'z qidirar, ammo tilim kalimaga kelmasdi. Trolleybus Xadraga yaqinlasharkan, „Vatan“ kinoteatrining katta-katta afishalari lip etib ko'rinish o'tdi.

– Yaxshi kino ketyapti... Tushamizmi?

Men bu gapni ham oradagi noqlay vaziyatni buzish uchun aytdim. Dabdurstdan kinoga taklif qilishim Xolidani o'ylantirib qo'ydi. Uning yo'q deyishini kutib turardim. Ammo yo'q demadi. Yelkasini uchirib qo'ydi.

– Bilmasam.

– Bo'pti, yuring! – dedim quvonib...

Kinodan chiqib, zinalar yonidagi pastak archa tagida biroz turib qoldik.

– Erkin aka, bilasizmi... – Xolidaning yonoqlari qip-qizarib ketdi. Bir o'rim sochining uchini tutamlab turib, tutilib-tutilib gapirdi, – bilasizmi... Men... sizga xalaqit bermaymanmi?

Shu tobda u ko'zimga juda sodda, juda pok, shu bilan birga, allaqanday sirli ko'rinish ketdi. Bu savol oldida o'zim ham esankirab qoldim.

– Yo'g'-e, nimaga endi?..

– Bo‘lmasa... kelasi haftaning shu kuni, shu soatda, shu yerga kelsam, yo‘q demaysizmi?..

Xolida battar qizarib ketdi. Quyuq qayrilma kipriklari yuziga to‘kildi.

– Xolida, rostdan kelasizmi? – dedim sevinib.

– Men ketdim! Xayr!

Xolida yerdan ko‘z uzmay keskin burildi-da, kelib to‘xtagan trolleybusga qarab yugurdi. Sariq jemperiga quyib qo‘ygandek yarashib turgan bir o‘rim yo‘g‘on qo‘ng‘ir sochining silkinib borayotganini ko‘rib turdim. U trolleybus zinasiga oyoq qo‘yarkan, menga bir o‘girilib qaradi. Nazarimda, muloyim, juda muloyim jilmayib qo‘ygandek bo‘ldi. Shundagina men uni kuzatib qo‘yishim kerakligini tushundim. Axir, biz u bilan yonma-yon mahallada turamiz-ku! Ammo men kechikkan edim. Trolleybus bir silkinib yurib ketdi. Turgan joyimda serrayib qoldim. Hozir bo‘lib o‘tgan gap-so‘zlar qulqlarim ostida dilrabo kuy sadolaridek jaranglar, shu kuy meni bir umr sarxush qilib qo‘yayotgандay bo‘lardi.

Kelasi uchrashuvgacha shu kuy og‘ushida yashadim.

Chorshanba kuni Xolidani xuddi o‘scha yerda, kinoteatr zinalari yonidagi pastak, xonaki archa tagida kutib oldim. Xolida bu safar o‘ziga sal oro bergen, boshini yaqinda yuvgan bo‘lsa kerak, uzun sochlarning nami hali qurimagan edi.

– Bugun kinoga tushmay qo‘ya qolamiz, xo‘p? – Xolida qoshini chimirib, chiroyli jilmayib qo‘ydi.

– Ixtiyorингиз...

Hali oqshom qo‘nib ulgurmagan katta ko‘chadan o‘rdaga – Anhor tomonga yurib ketdik.

– Uydagilar yaxshi o‘tirishibdimi, Xolida? – dedim uning qadamiga qarab ohista borarkanman.

– Rahmat... – Xolida anchagacha jim qoldi... Anhor ko‘prigidan o‘tib daraxtzor orasiga kirdik. Oqshom eng avval shu yerga qo‘nadi. Daraxtlarning tekis shovullashi

anhorning bezovta to'lqinlari ovoziga qo'shilib, beozor, orombaxsh sukunatni chuqurlashtirayotgandek bo'lardi...

– O'tiramizmi? – Anhor labida turgan pastak skamey-kaga imo qildim. O'tirdik. Anhorning tub-tubidan qaynab chiqayotgan suvga tikilgancha qoldik. Anchagacha ikkovichizdan ham sado chiqmadi.

– Erkin aka, siz meni odobsiz qiz deb o'ylayapsizmi? – Xolida javdiragan ko'zlarini ko'zimga qadadi. Hayron bo'ldim.

– Nega endi?

Xolida anchagacha indamadi.

– Rost-da... O'zimdan o'zim sizga... – Xolida boshini yanayam quyiroq egdi. Qiynalib-qiyalib gapirdi. – Lekin nima qilay?

Butun vujudimni hali hech sezilmagan, hali hech sinab ko'rilmagan allaqanday yoqimli titroq qopladi. Hali ishq nimaligini bilmagan yurakda nozik, juda nozik, shamchiroq-dek bir o't – sevgiga chanqoq o't yiltillab turarkan. Muhabbat shabadasi bir marta, faqat bir marta siypalab o'tsa, bu uchqun lovullab ketarkan.

– Xolida, axir, nega unday deysiz? Axir, men sizni... sizni... Xayolimni yolg'iz siz olib qo'ydingiz-ku, axir! Menga nasib bo'ladimi, yo'qmi, deb xavotirlanib, o'zim ham topolmay yurgan aziz bir narsani taqdim qilasiz-u...

Men yana ancha-ancha gaplarni aytgim, yuragimdag'i hislarimning hammasini to'kib solgim kelardi-yu, ammo shu hislar oldida o'zim ojiz edim...

– Rostmi? Shu gaplaringiz rostmi? – Xolida qayrilma kipriklarini ko'tarib ko'zlarimga tikildi. Entikib ketdim.

– Nahotki, menga ishonmasangiz?

Xolida sekin bosh silkidi.

– Ishonaman... Lekin... Keling, endi bir-birimizdan sir yashirmaylik. Xo'p?

– Sizdan nimani ham yashiray?

- Yolg'onmi? – Xolida ayyorlik bilan qoshini uchirib qo'ydi, – huv, anunda, zackyot daftaringizni nega tortib oldingiz?
- Unda... unda sizning suratingiz bor edi.
- Rostmi? – Xolida yana o'sha bolalarcha soddalik bilan ko'zlarini javdiratdi...

Shu kuni ikkalamiz uygacha piyoda qaytdik.

Men Xolida bilan xayrlashgan daqiqadan boshlaboq yuragimda so'nmas bir o't alangalana boshladi. Bu o't hech to'xtamas, visol damlari yaqinlashgan sayin kuchayar, faqat o'zini ko'rsam sal bosilardi-yu, xayrlashishimiz bilan yana lovullardi. Bu o't ikki yilgacha, yo'q-yo'q, undan keyin ham, shu kungacha ham pasaymadi. Lekin, netayki, goho taqdir sening izmingga emas, sen taqdirming izmiga bo'ysunishga majbur bo'lib qolarkansan...

...Ikkinchisi bosqichning oxirgi imtihonini topshirgan kunim Samarqandga, viloyat gazetasiga uch oylik praktikaga ketish oldidan Xolidani uchrashuvga taklif qilgandim. Ammo u kelmadi. Har gal besh daqiqa kuttirib qo'ysa, alamimni papirostan olardim. Bu safar papiro ham dosh berolmadi. Xuddi o'sha Anhor bo'yidagi pastak skameyka yonida bir soat turdim. Yuragimni chulg'agan shubhalar chigallashib ketdi-yu, shahar ko'chalarida anchagacha aylanib yurdim. O'sha tanish xiyobonlar, o'sha sokin anhor, juft-juft bo'lib sayr qilib yurgan o'sha sevishganlar bir dardimni o'n qildi.

Xayolimda ikki savol, ikki muammo hukmron edi: Xolidaning oldiga boraymi, yo'qmi? Ehtimol, unga bir nima bo'lgandir? Yo'g'-e, axir, kuni kecha o'zim ko'rdim-ku! Agar u shunchaki noz qilayotgan bo'lsa-chi? Uning ostonasiga bosh urib boramanmi?

...Yo'q... Baribir muhabbat ustunlik qildi. Xolidalarning ko'chasiga qanday qilib borib qolganimni o'zim ham bilmayman. Ularning uyi tor ko'chaning ichida edi, ammo nechanchi eshik ekanini bilmasdim. Har safar uni kuzatib qo'ygan-

mizda ko'cha boshida xayrlashardik. Xolidaning o'zi ham uyalardi, shekilli, ko'cha ichiga kirishimni xohlamasdi.

Bir lahma ikkilanib turdim-u, ko'cha ichiga kirdim. Lekin yigirma qadamcha yurar-yurmas to'xtab qoldim. Ikkala tavaqasi lang ochib qo'yilgan eshikdan bir qo'lida belkurak, bir qo'lida kattakon paqir ko'tarib Xolidaning akasi chiqib keldi. Men uning otini ham bilmasdum. U bizdan uch yil avval maktabni bitirgan, hozir allaqanday idorada ishlayotganini eshitgandim. U menga qayrilib qaramay, paqirga simyog'och tagiga uyib qo'yilgan ko'mirni olib sola boshladi.

Yaqinroq kelib salom berdim. U belkurakni tashlamay, engashib turgan ko'yi yelkasi osha menga qaradi. Qaradi-yu, birdan qaddini rostladi. Jingalak sochi ter aralash peshanasiga yopishib qolgan, ko'mir tegib qorayib ketgan maykasi ham ho'l bo'lgandi. Bilmadim, salomimni eshitmadimi, alik olmadi. Yaxshilab tanib olmoqchi bo'lganday menga uzoq tikilib qoldi. Keyin peshana terini shaxt bilan sidirib tashla-di-da, ko'zimga tikilib turib so'radi:

– Xo'sh, xizmat?!

Esankirab qoldim. Uyalib ketdim. Nima deyishimni bilmay, to'g'risini aytib qo'ya qoldim:

– Xolidaxon bormilar?

– Akasi kerak emasmi, akasi! – uning rangi o'chib, belkurak ushlagan qo'li asabiy qaltiray boshladi. Meni yeb yubormoqchi bo'lganday, tishlarini g'ijirlatib ta'kidladi:

– Qadamingni bilib bos, bola! Qizlarga osilgandan ko'ra burningni eplasang-chi! Kimsan o'zing! Dadangga o'xshagan sartarosh bo'lsan-da!.. Esing borida tuyog'ingni shiqil-latib qol, ha!

Ko'z o'ngim qorong'ilashib, butun vujudim lovullab yona boshladi. Quloqlarim shang'llab ketdi. Inson uchun bundan ortiq haqorat, bundan ham uyatli narsa bormi? Xayolimda eng muqaddas narsa deb yurgan uy shumi hali? Yuragimning eng chuqr joylarida izzatini ardoqlab yurgan

kishilarim shu bo'ldimi? Men endi bu ko'chaga hech qachon qadam bosmayman, hech qachon!.. Yaxshi ko'rish – yalinish, yolvorish degan gap emas. Men Xolidaning oldida gunohkor emasman, yalinmayman ham...

Ertasiga ertalab Samarqandga jo'nab ketdim. Ketdim, ammo xayolim shu yerda – Xolida bilan qoldi. O'zimcha bu bema'nigarchilik uchun Xolidaning mendan kechirim so'rashini kutardim. Rostdan ham bir hafta ichida Xolidadan ketma-ket ikkita xat oldim. Ikkala xatning ham mazmuni bir xil edi: „*Men siz bilan uchrashishim kerak. Tezroq kelib ketmasangiz bo'lmaydi*“, debdi. Qayoqqa boraman? Yana o'sha uygami?! Kimning oldiga boraman? Meni shunchalik haqorat qilgan odamning oldigami? Nimaga boraman? Yalinish-yolvorish uchunmi?

...Xolidaga xat yozish uchun uch marta qo'limga qog'oz-qalam oldim-u, ammo yozolmadim. Har safar qalam ushlasam, ko'z oldimda uning akasi jonlanar, nazarimda, menga nafrat bilan tikilib turar, ayamay haqorat qilardi.

Qaytib borganimdan keyin Xolida bularning hammasi uchun mendan uzr so'raydi, deb yurgandim. Yo'q, butun xayolim puchga chiqdi. Praktika tamom bo'lay deb qolganda sobiq maktabdosh do'stim Javdoddan xat keldi. Xat juda qisqa edi: „*Xolidadan umidingni uz! Erga tekkaniga o'n besh kun bo'ldi. Akasining o'rtog'iga tegibdi...*“ Xatni burda-burda qilib uloqtirdim. Bevafo! Yaramas! Sotqin!

Yo'q, mening nafratlanishga, la'natlashga ham holim qolmagandi. Kipriklarimni to'sgan yosh pardasi tomog'imni bo'g'ib qo'ygandi. Baribir, endi ishlay olmasligimni tushundim. Lash-lushlarimni yig'ishtirib, uyga qaytdim.

Avtobusdan tushishim bilan ataylab Xolidalarning ko'chasiga burildim. Negadir, uni shu yerda, shu ko'chada uchratishimga ishonardim. Ha, yanglishmabman. Men uni ko'rdim. Faqat uzoqdan, orqasidan ko'rdim. U ko'cha eshik oldida to'xtagan yap-yangi „Volga“ mashinasining yonida

xayol surgandek qimirlamay turardi. Kulrang makentosh ustidan qo'ng'ir sochlarini tashlab olgan.

Birovdan cho'chigan odamdek to'xtab qoldim. Ichkardan oq ko'ylak ustidan qora bo'yinbog' taqqan novcha yigit chiqdi. Bilagidan ushlab, Xolidani mashinaga o'tqazdi. Keyin o'zi rulga o'tirdi-da, haydab ketdi. Chamadon bandini jon-jahdim bilan qisganimdan barmoqlarim qirsillab, qo'lim titray boshladi. Molparast!

Yana qancha turganimni bilmayman. Quyosh tikkaga kelib, ayovsiz qizitardi. Asfaltdan ko'tarilgan chuchmal hovur ko'nglimni bexud qila boshladi.

– Mayli, – dedim o'zimni yupatib. – Xolida kuyunishga, o'rtanishga ham arzimaydi o'zi. Mening unga olib beradigan mashinam yo'q-ku, axir?

Bu so'zlar bilan yupana olmasligimni bilsam ham o'zimni ovutishga tirishar, ammo o'zimni ovutishga, Xolidani unutishga qancha urinsam, uning xotirasi qalbimga shuncha mahkamroq o'mashib borardi. Men uchun faqat bir narsa ayon edi: Xolida – bevafo!

...Shu kungacha mana shu fikr bilan yashadim. Ammo bugungi voqealar butun fikrimni ostin-ustin qilib yubordi. Ko'zim moshdek ochildi.

...Bugun ham Xolidani xuddi o'sha birinchi safardagi kabi trolleybusda uchratdim. Eshikdan kirishim bilan orqa deraza yonida turgan Xolidaga ko'zim tushdi-yu, yuragim jiz etib ketdi. Indamay konduktoring yoniga o'tib oldim. Endi pul uzatayotgan edim, orqadan Xolidaning tovushi eshitildi:

– Ikkita bilet bering...

Titrayotgan qo'llarimni yashirish uchun shimimning cho'ntagiga suqdim. Yo'q, yuragimni rashk emas, g'azab ham emas, alamlı iztirob chulg'ab olgandi. O'girilib qaramaslikka harakat qilib, indamay turaverdim. Ammo Xolidaning o'zi qarashga majbur qildi meni.

– Erkin aka, sizga ham bilet oldim.

Yelkam osha nazar tashladim. U haliyam o'zgarmabdi. Faqat ko'zlari, bolalarcha javdirab tikiluvchi ko'zlari endi ehtiyyot bilan boqardi kishiga. Rangim o'chib ketganini o'zim ham sezib turardim.

– Rahmat! Hisobni to'g'rilab qo'yemoqchi bo'libsiz-da...

Birdan Xolidaning ham rangi o'chdi, burni qisilib, lablari pirpirab uchdi. Ikki tomchi yosh ko'zlaridan duv etib yumalab tushdi-yu, keyin yelkalari silkinib-silkinib, unsiz yig'lay boshladi. Dovdirab qoldim. Odamlarning bizga hayron bo'lib tikilayotganini ko'rib, trolleybus to'xtashi bilan Xolidani sudrab tushib ketdim.

– O'zingizni bosing! – dedim quruqqina qilib. U yoq-bu yoqqa alanglab, tushgan joyimizni tanidim. O'rda ekan. Xolidani qo'yib yubormay, Anhor bo'yiga olib tushdim. Sarg'ish qumni yalab oqayotgan suv qirg'og'iga yetib kelganimizdan keyin qo'lini qo'yib yubordim. – Yuvinib oling...

Xolida ho'l qumda chuqur-chuqur iz qoldirib suv bo'yiga cho'nqaydi. Yuvinib bo'lgunicha skameykada o'tirdim. Deyarli, hech narsa o'zgarmagan. Oqshom sukunatini chuqurlashtirib shovullayotgan daraxtzor ham, ohista oqayotgan anhor ham, muyulishdagi bir tup o'rik ham – hammasi o'sha-o'sha. Pastak skameyka ham o'z o'rnida turibdi. Faqat bir narsa yetishmaydi. Qani o'sha, belanchakka solib allalaganday shirin hislarga yetaklagan suhbatlar? Qani o'sha, muhabbat cho'g'ini alangalatgan ehtirosli so'zlar, qani? Qani o'sha, bolalarcha ma'sumlik bilan javdiragan ko'zlar, qani? Nahot, hammasi yoshlikning sirli so'qmoqlarida to'zonli iz qoldirib, o'tmishta singib ketgan bo'lsa?

Xolida hamon cho'nqayib o'tirganicha suvni shapillatib yuvinar, yelkasidan oshib tushgan sochining uchi to'lqinlar yuzidan o'ynab ho'l bo'lib ketgandi. Men bo'lsam uning ko'zyoshlari suvga qo'shilib oqib ketayotganini his qilib turar, o'zim ham yuragimni o'rtab yuborayotgan hislarimni bazo'r bosib o'tirardim.

Nihoyat, Xolida qizil sumkachasidan ro'molcha olib yuzlarini arta-arta yonimga kelib o'tirdi. Anhorga tikilgancha o'tiraverdim.

– Gapiring, Erkin aka! – dedi u qizarib ketgan ko'zlarini menga tikib.

– Nimani?

– Bir yigitga ko'ngil qo'yib, boshqasiga tegib ketgan qiz qanday ta'naga loyiq bo'lsa, shularning hammasini gapiravering...

– Sizga aytadigan gapim bitta – baxtli bo'ling.

– Kim?

– Siz... Turmush o'rtog'ingiz...

– Yana qanaqa tilaklaringiz bor?

Xolidaning gapi ta'na bo'lib eshitildi. Yuragimdagi iztirob o'mini g'azab egalladi.

– Bo'lgani shu!

Xolida anchagacha javob bermadi. Anhor qattiqroq shovullay boshladи. Xiyobon tepasida chiroqlar lip-lip etib, birin-ketin yondi.

Kutilmaganda Xolida horg'in kulib qo'ydi.

– Qaysi kuni tush ko'ribman: ikkalamiz shu yerda... yo'q, bu yerda emas, boshqa joyda – kattakon anhor bo'yida turganmishmiz. Yuvinaman deb egilsam, boshimdagи ro'molim sirg'alib tushib, suvga oqib ketibdi. Huv birda menga ko'k shoyi ro'mol sovg'a qilgandingiz-ku, ana o'sha ro'molish... Qo'limni cho'zsam, hech yetmasmish...

„Erkin aka, qarang-qarang, ro'molim oqib ketyapti“, desam indamay turaverdingiz. „Jon Erkin aka, tutib bering ro'molimni! Axir, uni o'zingiz olib bergansiz-ku... Qarang, endi uni boshqa odam tutib oladi“, desam, arazlab burilib ketibsiz. Birpasda sizni ham, ro'molimni ham yo'qotib qo'yibman. Uyg'onsam, yostig'im ho'l bo'lib ketibdi... – Xolida lablarini qimtib, boshini quyi soldi. Shamol turdi. Yaproqlarning yerdagi soyasi titray boshladи. Anhorga to'kil-

gan chiroq nurlari chil-chil bo'lib ketdi. Xolida ilkis boshini ko'tarib, ko'zlarimga ayanchli tabassum bilan tikildi.

– Esingizdam, Erkin aka, birinchi marta shu yerda o'tirib gaplashgan edik. Qiziq, biron marta bir-birimizning qo'limizni ham ushlagaganmiz...

U birdan qo'limdan ushlab oldi. Qo'llarining yengil titrayotganini sezib turardim. Vujudimni tentaklarcha bir ehtiros qoplab oldi. Birpasda mast odamdek ko'z o'ngim qorong'ilashdi.

Qiziq, nima demoqchi u? Axir, bu... bu... Bordi-yu, payti kelib mening xotinim ham birovga shunday gaplarni aytsa... Xolidaning qo'lini shaxt bilan siltab tashladim. U shunchalar ma'yus, shunchalar alamli o'kinch bilan tikildiki, ko'zimni qayerga yashirishimni bilmay qoldim. Yo'q, bunaqa tikilganidan ko'ra ayamay tarsakilab yuborgani, dod solib yig'lagani ming marta afzal edi. Men Xolidadan nima bo'lsa ham bir narsa kutardim, ammo u hamon haykaldek qotib turardi. Anchadan keyin u havo yetishmagandek entikib-entikib gapira boshladi:

– Siz meni... o'shanaqa... yomon ayol deb o'ylaysizmi?

Xolida bu so'zlarni shivirlab aytdi. Ammo shu to'rtbesh og'iz so'z qulqlarimni batang keltirib, chippa bitirib qo'ygandek bo'ldi.

– Rost... – Xolidaning ko'zlarida yosh yiltilladi. – Rost. Majburan qurilgan turmush xiyonat qilishga olib kelsa, ehtimol. Lekin men o'z nomusimni hech nimaga, sizning muhabbingizga ham alishmayman...

Men nimadir demoqchi bo'ldim. Ammo so'z topolmadim. Xolida menga navbat berib o'tirmadi.

– Siz meni... meni xiyonatchi, bevafo deb o'ylaysizmi? O'zingiz-chi?.. O'zingiz nega menga shunaqa beparvo qarab keldingiz?

Endi u yig'lamasdi. Men bo'lsam bir nima deyishga ojiz edim.

– O'sha... hammasi uchun bitta men aybdormanmi? Yo'q, muhabbatimizning uvolini ikkalamiz baravar bo'lishib olamiz! – Xolidaning ko'zлari o't bo'lib chaqnab ketdi. Ammo bir lahzadayoq yana o'shanday ma'yus bo'lib qoldi. – Agar meni chindan... rostdan ham yaxshi ko'rganingizda, ataylab fakultetingizga borib, adres topib, Samarqandga yozgan xatlarimga javob bermasmidingiz? Mening nima uchun o'qishga kirolmaganimni, uydagilar bunga yo'l qo'yishmaganini bildingizmi? Oxirgi marta uchrashuvga borolmay qolgan kunim uyga sovchilar kelganini bildingizmi? O'shanda yordam berdingizmi menga? Yo'q... – Xolida o'ksib-o'ksib yig'lab yubordi. – O'sha kuniyoq singlimdan uyingizga xat berib yuborgandim. Akam eshik oldida ko'rib qolib, xatni tortib olibdi... Hammasini eshitdim... O'sha kuni siz uyga kelgan ekansiz. Akam sizni xafa qilibdi. Siz bir gap bilan arazlab ketdingiz. Men sizga ishonardim... O'zimga ishongandek ishonardim. Siz bo'lsangiz... Men bir yo'la hammasidan ayrildim... Agar chindan yaxshi ko'rsangiz, shunaqa qilarmidingiz?.. Keyin... keyin men hech kimga ishonmay qo'ydim. Endi menga baribir edi.

Xolida chuqur iztirob bilan yig'lar, uning har bir so'zi yuragimni tilimlar, har tomchi yoshi qalbim yarasiga tomar edi.

– Iltimos, yig'lamang! – dedim titrab-qaqshab. – Xolida, yig'lamang! Yig'lamang!

Xolida chuqur uf tortdi.

– Mayli, hammasi shirin tushdek o'tdi-ketdi. Endi qaytib kelmaydi. Faqat sizdan bir iltimos... Endigi muhabbatingizni – boshqalarga nasib bo'ladigan muhabbatingizni ehtiyyot qiling...

Xolida sekin o'rnidan turdi. Qizil sumkachasini bilagiga ildi-yu, menga uzoq tikilib qoldi.

– Erkin aka, esingizada bo'lsin. Men, baribir, sizni yaxshi ko'raman. Umrimning oxirigacha yaxshi ko'raman. Eshityap-

sizmi, oxirigacha, oxirigacha... – U yana yig‘lab yubordi. Keyin asta burildi-yu, uzoq kasaldan turgan odamday gandirak-lab-gandiraklab yurib ketdi.

Qayoqqa? Nimaga? Nahotki, men yoshligimning, umrimning oltin daqiqalari bilan abadiy vidolashsam! Dahshat ichida o‘rnimdan sakrab turib ketdim.

– Xolida!

Men butun xiyobonni yangratib hayqirib yubordim, deb o‘ylagandim. Yo‘q! Bu so‘z yuragimning tub-tubidan bo‘g‘iq, alamli bir nido bo‘lib chiqdi. Muyulishdagi o‘rik yonida unga yetib, bilaklaridan mahkam ushlab oldim. U ham, men ham terak bargidek qaltirardik...

– Xolida! Jonim. Qorako‘zim. Siz... Siz...

Men nima qilayotganimni o‘zim ham bilmas, nimadir degim, allanimalar deb hayqirgim kelardi. Xolida ko‘zlarimga xotirjam tikilib turib, past, ammo qat’iy ohangda gapirdi:

– Qo‘lingizni torting. Men birovning xotiniman!

– Xolida, axir, tushunsangiz-chi! Men...

Xolida qo‘limdan beholgina siltanib chiqdi-yu, yaproqlari oqshom shabadasida ohista silkinib turgan o‘rik tagidan burilib, muyulishda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Qarg‘ashoyi ko‘ylagini etagini, o‘ng bilagiga ilib olgan qizil sumka-chasini ko‘rib qoldim. U ketdi...

U ketdi-yu, ham shirin, ham achchiq, ham quvnoq, ham alamliuzuq-yuluq xotiralar qoldi menda.

Shu xotiralardan boshqa nimam ham bor mening? Axir, men muhabbatimni ehtiyot qilolmagan, asray olmagan, yolg‘iz yaxshi ko‘rish bilan kifoyalanib yurgan odamman-ku! Shu baxtimni avvalroq asrasam bo‘lmasmidi?!

...Ko‘zlarimda yosh qalqidimi? Yo‘q-yo‘q. Nega? Endimi?

## HURKITILGAN TUSH

*Ko 'ngil vayron bo 'lishi uchun  
taqdirning ojizgina zarbasi kifoya.*

S. Sveyg

Tishlari to'kilgan kemshik bola edim. Soy bo'yidagi o'tloq biz – bolalarning „katta yerimiz“ edi. Har kuni erta bilan oyim chiyduxoba shimmuning cho'ntagiga yarimta zog'ora, bir bo'lak qaynagan lavlagi solib berardi-da, shoxsiz, yuvosh echkimizni yetaklab „katta yer“ga jo'nardim. Ovozi do'rillab qolgan Meli-voy ko'KKO'zni aytmasa, hammamiz yosh bolalar edik. O'tloq yonidagi ikki tup azim tol bizning ovunchog'imiz edi. Bahor kelishi bilan bolalar tol novdalaridan hushtak yasashar, qizlar bo'lsa bargak taqib, daraxt soyasida „cherta“ o'ynashardi.

Bir kuni oramizga yangi mehmon – Halima degan qizcha qo'shildi. Uning qishlog'imizga kelganini hammadan avval men bildim. Kechqurun oyim dadamga aytgan gapini eshitib qolgandim.

– Hakim sassiq shaharga borib qizini topib kelibdi. Xotining boshiga itning kunini solibdi. „O'zing-ku, sharmandalik qilding... Mayli, sen o'sha topganing bilan bo'laver. Menga qizimni ber“, debdi...

Hakim sassiq urushdan kelgach, polizda brigadir bo'lib ishlardi. Men uni yomon ko'rardim: bir marta echkim poliziga kirib ketganida meni ikki tarsaki urgan. Oyimning gapidan hech nima tushunmagan bo'lsam ham, Hakim sassiqning qizini ko'rgim keldi. Ertasiga ko'rdim ham...

\* \* \*

O'sha kuni ertalab momaqaldiroq bo'lib, jala quygani esimda bor. Oyim odatdagiday echkinining yelin qopini

bog‘lab (bo‘lmasa bolasi emib qo‘yardi) arqonni qo‘limga tutqazdi:

– Yaxshilab to‘yg‘iz!

„Katta yer“ga yetib kelgunimcha havo charaqlab ochilib ketdi. Echkining arqonini yechib, mollarga qo‘shib yubordim-da, tol tagida to‘dalanib turgan bolalar yoniga keldim.

O‘rtada urushda o‘lgan dadasining kattakon beqasam choponini kiyib olgan Melivoy yonboshlab yotar, yalango-yoq bolalar uning atrofida o‘tirib olib nimagadir xaxolab kulishardi.

– Hakim sassiqning qizini ko‘rdingmi, Anvar? – Melivoy yaqin kelishim bilan do‘rillab so‘radi. Keyin qo‘lidagi tol yog‘och bilan imo qilib ko‘rsatdi. – Dadasiga o‘xshagan daroz ekan.

Bolalar tag‘in baravariga kulib yuborishdi. Tolning panasida turgan novcha qizaloqni endi ko‘rdim. Uning katta-katta ko‘zлari ma‘yuslik bilan javdirar, nima qilishini bilmay, kalishining uchi bilan maysalarni ezg‘ilardi. Melivoydan hammamiz qo‘rqardik, u hech kimni ayamasdi. Lekin hozir u qizni masxara qilishi alam qildi menga.

– Daroz bo‘lsa senga nima? – dedim alamimdan chiyillab.

Halima yalt etib menga qaradi-yu, indamadi. Melivoy birpas baqrayib turdi-da, tayog‘ining uchi bilan soy tomonni ko‘rsatdi.

– Bor, buqamni qaytarib kel! Sening galing keldi.

U har doim molini bizlarga qaytartirardi. Nimagadir bu safar o‘jarligim tutdi. Soy bo‘yiga tushib ketgan qora buqaga qarab qo‘ydim-u:

– O‘zing qaytar! – dedim.

– Shunaqami? – Melivoyning ko‘k ko‘zлari olayib ketdi. Irg‘ib o‘midan turdi-yu, qo‘lidagi tayoqni baland ko‘tardi. Hozir yelkamga kaltak tushishini bilib, qo‘rquvdan ko‘zlarimni yumib oldim. Ammo kaltak tegmadi. Bir mahal ko‘-

zimni olib qarasam, Halima tayoqni ingichka tizzasiga tirab, sindiryapti.

– Buzuqning bolasi! – dedi Melivoy unga qarab.

Halimaning labi pirpirab, yig‘lab yuboray deyotganidan bu yomon gap ekanligini tushundim.

– O‘zing buzuqning bolasi! – dedim baqirib. – Ko‘kko‘z!  
Ko‘kqarg‘a!

...O‘sha kuni „katta yer“ning xo‘jayini – Melivoyning buyrug‘i bilan „qiz bola“ degan laqab oldim. Echkimni ham soyning narigi betida boqadigan bo‘ldim.

\* \* \*

Bolalar orasiga qaytgim kelardi-yu, „Ko‘kqarg‘a“dan qo‘rqardim. Faqt bir narsaga xursand edim: Halima ham ola sigirini men bilan birga boqardi. Keyin bilsam, u mendan uch yosh katta ekan. Kun bo‘yi ikkalamiz chillak o‘ynardik. Halima bu o‘yinda o‘g‘il bolalardan qolishmasdi.

Yozda tag‘in bir odat chiqardik. Har kuni peshinda soy bo‘yida olov yoqib, qo‘riga ikkitadan kartoshka ko‘mib yeydigan bo‘ldik. Bir gal u, bir gal men uydan kartoshka olib kelardik.

Cho‘g‘da qop-qorayib pishgan kartoshkani shosha-pisha artib, og‘zimiz kuyishiga qaramay, yeb olishdan lazzatliroq narsa yo‘q edi bizga.

Hech esimdan chiqmaydi. Bir kuni o‘sha totli tushlikni yeb bo‘lib, maysalar ustiga chalqancha yotib oldim. Tubsiz osmonning bir chekkasida ko‘pikday oppoq bulutlar ohista suzib yurar, baland-balndlarda jajjigina bir to‘rg‘ay turgan yerida tipirchilab, shodon sayrardi...

Halima yonimda o‘tirib olib, o‘tlardan „ajina kavush“ to‘qir, uzun-uzun barmoqlarinig shunchalik chaqqon harakat qilishiga hayron qolardim. Birpasdan keyin u ingichka, past tovushda ashula ayta boshladi.

*„Ochil-ochil oq toshlar-a...  
Men onamni ko‘rayin-a...  
Diydoriga to‘yayin-a...“*

Uning sekin xo‘rsinganini eshitdim. Zum o‘tmay yana qaytardi.

*„Oyijonim...  
ko‘rayin-a,  
Diydoriga...“*

Keyin birdan jim bo‘lib qoldi. Allanimadan qo‘rqqanday, sekin boshimni ko‘tarib qaradim. Halimaning katta-katta, qop-qora ko‘zлari jiqqa yosh edi.

Nima qilishimni bilmay, dovdirab qoldim.

– Yig‘lama, – dedim yalinib. – Yig‘lamagi-in...

Halima qo‘lidagi „ajina kavush“ni uloqtirib yubordi-da, qizil chit ko‘ylagining etagini qayirib, ko‘zyoshini artdi.

Arpaga o‘roq tushdi. Endi bizning ham ishimiz ko‘payib qolgandi, har kuni mashoqqa borardik. O‘sha kuni peshingacha ikkalamiz bir to‘rvadan mashoq terdik. O‘roqchilar narigi adirga o‘tib ketishgan, qizib yotgan arpazorlarni quyosh yondirardi.

– Yur, soydan suv ichib kelamiz, – dedim to‘rvachamni orqalab.

– Polizga borib qovun yemaymizmi?

– Dadang bermaydi-da, – dedim ishonmay.

– Beradi, beradi, – Halima qo‘limdan ushladi. Chopib ketdik. Soy bo‘yidan yurib, poliz yoniga yetib borganimizda to‘xtab qoldim.

– Qo‘rqma! – Halima sudraguday bo‘lib poliz ichiga yetaklab kirdi. Pushtalar ustida yumalab yotgan katta-katta qovun-tarvuzlarni ko‘rib ko‘zim o‘ynardi. Lekin chayla yoniga yaqin borganda qo‘rqa-pisa yana to‘xtadim. Chayla

soyasida Hakim sassiq bilan tabelchi To'lash aka chordana qurib o'tirgancha kosa qilingan bosvoldini yeishardi.

– Dada, bizgayam qovun berasizmi? – Halima avval men-ga, keyin dadasiga qarab qo'ydi.

Hakim sassiq qizarib ketgan ko'zlarini menga qadagan edi, urgani esimga tushib ketdi. O'shanda ham ko'zları shunaqa qip-qizil edi.

Birdan To'lash aka og'zini katta ochib, xaxolab kula boshladi. Yakkam-dukkam tishlari orasida yarim chaynalgan oppoq bosvoldi bo'lagi ko'rindi.

– Sassiq! – dedi u og'zini to'ldirib. – To'yni boshlayversang ham bo'larkan. Mana, kuyovbolayam tayyor. – Keyin yana xaxolab kului.

Hakim sassiq labining bir chekkasi bilan iljayib qo'ydi. Hayron bo'lib Halimaga qaradim. U ham ko'zları javdirab, atrofga alanglar, hov o'shanda – Melivoydan so'kish eshitganda qandoq qilgan bo'lsa, hozir ham o'shanday, kalishining uchi bilan yer chizardi.

To'satdan miyamga bir nima urilganday bo'ldi. Ular men bilmaydigan, yomon bir narsa to'g'risida gapishtayotganini tushunib qoldim. Sekingina burildim-u, yig'lagancha chopib ketdim. Katta-kichik qovunlarni bosib, pushtalar ustidan sakrab-sakrab borarkanman, yelkamdan og'ir bir narsa bosib tushayotganini anchadan keyin bildim. Bo-shoq to'la xaltam ekan. Uni ham uloqtirdim-u, soy bo'yiga yugurdim.

...Aqlimni taniganimdan keyin bilsam, men shirin, beg'ubor tush ko'rayotgan ekanman-u, To'lash bir og'iz gapi bilan ustimdan muzday sovuq suv quyib, uyg'otib yuborgan ekan. Men bo'lsam mana shu tush uzoq, juda uzoq davom etishini xohlardim. O'sha-o'sha Halimani boshqa ko'rma-dim, nimagadir ko'rishni xohlama-dim ham. Keyin eshitsam, shaharga – oyisining yoniga ketib qolibdi.

\* \* \*

Kecha panorama kinoteatri yonida Halimani ko'rib qoldim. Agar o'zi chaqirmasa, tanimasdim. U yo'lkadan kolyaska yetaklab borardi. Qiziq, Halima meni qanday taniganiga hayronman... Arg'uvon tagidagi skameykada o'tirib gapplash-dik. Halima turmush quribdi. Eri aspirant, o'zi vrach ekan.

– Bu – ikkinchi o'g'lim, – dedi u aravachada uxlاب yotgan shiringina chaqaloqni ko'rsatib. Anchagacha jim o'tirganimizdan keyin sekin xo'rsindi.

– Qandoq yaxshi opa-uka edik-a... Qarang, o'n olti yil o'tib ketibdi.

Men uni sizlashni ham, senlashni ham bilolmay ikkilanib qoldim.

– Haliyam qo'rga ko'milgan kartoshkani yaxshi ko'rasiszmi? – dedim anchadan keyin.

– Haliyam yosh bolasiz-a, Anvar... – U kuldi. Bu o'sha – o'zimga tanish opalarcha mehribon kulgi edi.

Yuragimning bir burchida sog'inch tuyg'usi jo'sh urib ketdi. Rost-a, qandoq opa-uka edik-a!.. To'lash aka o'shanda nimagayam shunaqa dedi-a?

1966

## LAYLAK

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi. Bola g'o'r edi, bola go'dak edi... Kunlarning birida ona-bola qishloqqa – uzoq qarindoshlarinikiga boradigan bo'lishdi. Ona qaddini g'oz tutib, tez-tez yurib borar, bola esa alang-jalang bo'lib, atrof-dan manzaralarni tomosha qilar edi. Qishloq guzarida yarmi-ni yashin uchirib ketgan bahaybat chinor bor ekan. Bola daraxtni ko'rib angrayib qoldi. Chinorning tarvaqaylab o'sgan shoxida supradek kattakon uya qorayib ko'rinar, uyada esa oyog'i, tumshug'i uzun bir qush turar edi.

Bola mo'jiza ko'rgandek taqqa to'xtab qoldi.

– Anavi nima, oyi? – dedi o'sha tomondan ko'z uzmay.

– Laylak, o'g'lim, laylak! – Ona o'glining boshini silab qo'ydi. – Yura qol, jonim.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko'rmagan edi. Qush negadir bir oyoqlab turardi. U yana to'xgab qoldi.

– Nima u, oyi? – dedi tag'in chinor uchiga ko'z tikib.

– Laylak, o'g'lim, laylak.

– Nimaga bir oyoqda turibdi?

Ona kului:

– Bir oyog'i charchagandir-da. Yura qol, jonim.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko'rmagan edi. Qush negadir bo'ynini cho'zib tumshug'ini osmonga qaratib silkitar, shunda „tarak-tarak“ degan ovoz eshitilardi.

Bola tag'in to'xtab qoldi.

– Nima o'zi u, oyi?

Uning ko'zlarida quvonch bor edi. Hayrat bor edi. Ona

shoshib turardi. Mingta yumushi bor. Hali shaharga qaytishi kerak.

– Laylak dedim-ku, jinnivoy, – deya ohista egilib, o‘g‘-lining yuzidan o‘pdi. – Senga salom beryapti-da.

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi.

...Oradan o‘ttiz besh yil o‘tdi. Bola yigit bo‘ldi. Ona kek-sayib qoldi. Oyog‘idan mador, ko‘zidan nur ketdi.

Kunlardan birida ona-bola ittifoqo yana o‘sha qishloqqa borib qoldilar. Yigit qaddini g‘oz tutib tez-tez yurib borar, ona esa toliqqan oyoqlarini og‘ir-og‘ir ko‘tarib bosgancha harsillab kelardi. Guzardagi yarmini yashin uchirib ketgan chinor hali ham bor ekan. Buni qarangki, chinorning tarva-qaylab o‘sgan shoxida hamon supradek kattakon uya qora-yib ko‘rinar, uyada esa oyog‘i, tumshug‘i uzun laylak turardi. Yigit laylakka bir qarab qo‘ydi-yu, qadamini tezlatdi.

Orqada kelayotgan ona nursizlanib qolgan ko‘zlarini chinorga, chinor shoxida qorayib turgan uyaga tikdi. Shoxda osilib turgan narsa ko‘ziga g‘alati ko‘rindi.

– Anavi nima, o‘g‘lim? – dedi to‘xtab.

– Laylak, oyи, laylak!

Ona yaxshi eshitmadni. Uch-to‘rt qadam yurib yana to‘xtab qoldi. Savatdek narsa ichida bir nima oqarib ko‘rinyapti. Qiziq...

– Nima, o‘g‘lim? – dedi ko‘zlarini pirpiratib.

O‘g‘il taqqa to‘xtadi. G‘ashi keldi. O‘zi shoshib turibdi: mingta ishi bor! Odam qariganidan keyin ezma bo‘lib qolar-kan-da!

– Laylak! – dedi jerkib. – Laylak deyapman-ku, kar-misiz!

Shunday dedi-yu, jahl bilan tez-tez yurib ketdi. Nachora, yigit yosh, yigit navqiron. Uning yumushi ko‘p. Hali shaharga qaytishi kerak... Uning g‘o‘r, go‘dak bolalari bor...

## O'ZBEKLAR

Mahallada qaysi kampirni uyidan topolmasangiz, to'ppa-to'g'ri Otinoyinikiga boravering!

Otinoyining hovlisi past ko'chaning etagida. Uyi ham boshqalarnikidan ajralib turadi. Ikkita derazali pastak uy. Boshqalarning derazasi oldida gilos bo'lsa, Otinoyinikida ikki tup tut bor. Boshqalarning tomi tunuka bo'lsa, Otinoyining tomi shifer. Hammaning tomida televizor antennasi bor, Otinoyinikida yo'q. Ammo uning uyi hamisha hammanikidan gavjum bo'ladi. Doimo ochiq turadigan pastak darvozadan kirishingiz bilan eng avval dimog'ingizga gup etib rayhon isi uriladi. Keyin bir mahalla xotinning gangur-gungur suhbatini, bolalarning qiy-chuvini eshitasiz. Mashina sig'maydigan (unga mashinaning nima keragi bor) tor yo'lakdan o'tib, qutidekkina shinam hovliga kirasiz. Ariq tortib ekilgan rayhonlar belga uradi. Oshrayhon, sadarayhon, oq rayhon, qora rayhon. Hovli etagida, eski bostirma oldida bir tup o'rik bor. Dovuchcha tukkandan boshlab turshak bo'lguncha mahallaning qora-qura bolalari shoxdan shoxga tarmashadi. Otinoyi o'rikni qizg'anganidan emas, bolalarga achinganidan chirqillaydi: „Hoy, uyingga bug'doy to'lgur takalar, tush, yiqilib ketasan!“ „Takalar“ parvo qilmaydi. Biladiki, Otinoyining tuti ham, o'rigi ham ularniki! Umuman, bu hovli hammaniki. Erta ko'klamda sumalak shu yerda bo'ladi. Ismaloq somsa, yalpiz somsa Otinoyining bostirmasidagi tandirda yopiladi. Keyin tut pishadi. Ketidan o'rik. Mahalladagi xotinoshi bormi, challarmi, beshik to'yi bormi,

quda chaqiriqmi – hammasining maslahati shu yerda pishadi. Qancha non yopiladi, qancha guruch damlanadi. Qudalarga „to‘qqiz-to‘qqi“da nimalar tortish kerak...

To‘g‘ri, u otinlikdan ko‘ra, ko‘proq xodimlik qilgan. Ammo uni xodim xola emas, Otinoyi deyishadi, Qolaversa, hozir dasturxonchilikni tashlagan. Uch yil bo‘ldi. Keksayib, kuchi yetmay qoldi. Lekin haliyam Otinoyi deyishadi. Yozda o‘rik tagidagi eski so‘ri, qishda „chiylampa“ suvoq qilingan pastak shiftli, tokchalariga barkashlar, chegalangan qadimiyy „gardim“ laganlar terib qo‘yilgan uy hamisha gav-jum bo‘ladi.

Hozir yoz. Dumbul bo‘lgan o‘rik shoxida, odatdagidek, qo‘sni bolalar kir maykasining qo‘yniga o‘rik to‘ldiryapti. Bittasini og‘ziga tashlaydi, bittasini qo‘yniga soladi (har ehti-molga qarshi). Otinoyi pastak shiftli uyida og‘zi ochilgan eski sandiq oldida cho‘kkalab o‘tiribdi. Uyni kuyadori hidi tutib ketgan. O‘rtadagi xontaxta atrofida Inoy garangning xotini Bahri xola, zavodda ishlaydigan „giroy“ Ahmadning onasi Muattar xola, „Kelinposhsha“ o‘tirishibdi. Otinoyi sandiqdan birma-bir o‘limliklarini olib, „ko‘z-ko‘z“ qilyapti.

– Mana bu – kafanlik, – deydi u bejirim qilib o‘ralgan dokani ko‘rsatib.

Muattar xola dokaning bir uchini chimchilab ko‘radi.

– Yaxshi, misqoli doka ekan.

– Iskandarim ataylab Maskovdan obkelgan. – Otinoyi kerilib qaddini rostlaydi. – Mana buni yirtishga berasila. – U tag‘in bir tugunni ochadi. – Ammo-lekin ro‘mollardan sal ko‘nglim to‘lmay turibdi. Hammasi bir xil bo‘lgani yaxshi. Mana, o‘ttiztasi ko‘k, yigirmatasi moshrang. Mayli, Iskandarimga aytaman, obkeb beradi.

– Qo‘ying, ovsin moshsha, hali ko‘p yurasiz, – deydi Bahri xola ming‘irlab. U ming‘irlamasdan gapirolmaydi. Dimog‘i shunaqa bechoraning. Ayniqsa, „p“ni aytolmaydi, „m“ deydi. Sal g‘iybatchiroq-ku, ammo yaxshi xotin, ko‘ngli

bo'sh. Qo'shnining mushugi tug'sayam, „joni og'rigandir“, deb yig'laydi. U ro'molining uchini mijjasiga bosib xo'rsindi. – Qarab turing, hali qo'sha-qo'sha nevaralar ko'rasiz, to'ylar qilasiz, ovsin moshsha! – U „poshsha“ deganda ovozi „moshsha“ bo'lib chiqadi.

– Aytganingiz kelsin, – Otinoyi ma'yus jilmayadi. „O'limligini“ tartib bilan yana sandiqqa joylaydi.

– Xudo Iskandarimgayam qo'chqordek o'g'illar bersa ajabmas. Kechayam kelib ketdi, bolam boyaqish. – Otinoyi sandiqni qaytadan titkilaydi. – Mana, – deydi ikki lo'ppi yaltiroq qog'ozli sovunni olib. – Polcha degan joydan mozor bosib kelgan. Iskandarim obkeldi.

U sovunning bittasini Bahri xolaga, bittasini Muattar xolaga beradi.

– Voy, munchayam yaxshi! – Muattar xola „polskiy“ sovunni huzur qilib hidlaydi. Bahri xola ham hidlayotganida Muattar xoladan dashnom eshitadi.

– Is bilmaysiz-ku, hidlab nimaning farqiga bordingiz...

– O'g'limni duo qilinglar, – deydi Otinoyi astoydil yaliniib. – O'zidan ko'paysin, denglar, yaxshi farzandlar bersin, denglar.

Boyadan beri indamay o'tirgan „Kelinposhsha“ jilmayadi.

– Menga-chi, Otinoyi? Mozor bosib kelgan „Polcha“ sovundan menga bermaysizmi?

– Siz sovunni nima qilasiz, Kelinposhsha, o'zingiz oydaysiz. Undan ko'ra borib choy damlab kelng.

„Kelinposhsha“ – Otinoyining devor-darmiyon qo'shni si. O'rtadan tuyruk ochib qo'yishgan. Eri provodnik. Makhalladagi yosh-yalanglar uni Kelinoyi deb chaqirishadi. Otinoyi uchun u „Kelinposhsha“. Yaxshi juvon, bechora. Sakkizta bolasi bor. Eng kichkinasi endi yo'lga kirdi. „Kelinposhsha“ shu ko'klam tag'in boshqorong'i bo'ldi: dovuchchaga. Hovuch-hovuch dovuchcha yeb esi ketdi boyaqishni. Kelinposhsha „dik“ etib o'midan turadi. Otinoyi ketidan tayinlab qoladi:

– Iskandarim obkegan choydan damlang, bolam. Dutor chalib turganidan.

„Kelinposhsha“ bir zumda choy damlab keladi.

– „Polcha“sovunni to‘yana qilasiz, Otinoyi, – deydi kilib. – Aqining to‘yiga!

Aqida „Kelinposhsha,ning to‘ng‘ich qizi. Hamshira bo‘lib ishlaydi. Yaqinda uzatishmoqchi. Yangiyo‘llik paxta brigadiriga fotiha qilishgan.

– To‘yana sizdan aylansin! – Otinoyi ham kulimsiraydi. – Aqi qizimning to‘yi bo‘ladi-yu, men qarab turarmidim. Sovun nima bo‘pti, hali Iskandarimga aytsam, gilam olib beradi.

Iskandar – Otinoyining yolg‘iz o‘g‘li. Katta joyda ishlaydi. Oq mashinada yuradi.

Markazda to‘rt xonali uyi bor. Otinoyining aytishicha, vannasi chinnidan emish. Iskandar yaxshi bola. Domga olib ketaman, deb uvvalo yalinsayam, Otinoyi ko‘nmaydi: hovlisiga o‘rganib qolgan. Otinoyining bitta-yu bitta orzusi bor. Shu – Iskandarining aqalli bittagina bolasini bag‘riga bossa, oyoq-qo‘lini bemalol uzatib ketardi.

– Mayli, to‘y bo‘lsin, – deydi u negadir xo‘rsinib. – Endi... Tirik jon-da, o‘rgilaylar. Vaqt qazoyim yetsa, bolam bechora yugurgilab qolmasin, deyman-da, ishi og‘ir, lak-lak odamga xo‘jayin bo‘lish osonmi?

\* \* \*

Iskandar Vahobovich „vertushka“ go‘shagini joyiga qo‘ydi-yu, ichidan xo‘rsiniq keldi. Vazir o‘rinbosari telefonda yigirma daqiqa „qovurdi“. Yubiley obyekti o‘lda-jo‘lda bo‘lib yotgani uchun Iskandar Vahobovich boshchilik qila-yotgan trest aybdor emish. Iskandar Vahobovich yotig‘i bilan tushuntirmoqchi edi, vazir o‘rinbosari, „Bahona izlamang“, deb jerkib berdi.

U sirqillab ketayotgan chakkalarini kafti orasiga olib bir zum ko‘zlarini yarim yungancha stol qirrasiga tikilib o‘tirdi. „Har kuni bir g‘alva!“

Eshik g'iyqillab ochildi. Iskandar Vahobovich ostonada turgan do'mboq kotibaga „Ha, tag'in nima gap!“ degandek zardali qaradi.

– Shahar telefonidan so'rashyapti, – dedi kotiba hurnibroq.

– Kim?

Kotiba quyuq bo'yalgan kipriklarini pirpiratdi.

– Tanishiman, deydi.

„Padariga la'nat tanishlarniyam, notanishlarniyam! Qaysi birining ishi tushsa, darrov „tanish“ bo'lib qoladi“. U olcharang telefon go'shagini shahd bilan ko'tardi.

Shu zahotiyoq shang'illagan ovoz qulog'ini teshib yuboray dedi.

– Iskandarmisan?

„Qanaqa savodsiz bu! Baqiradi, sansiraydi“

– Kim o'zi bu? – dedi Iskandar Vahobovich qoni qaynab.

Javob o'rniga yana savol eshitildi.

– Iskandarmisan?

– Ha. O'zingiz kimsiz?

Go'shak yana shang'illadi:

– Xolmatman! Qo'shning...

Iskandar Vahobovich beixtiyor qo'shnilarini bir-bir eslab ko'rди, Xolmat degan qo'shnisi yo'q. Jinni bo'lganmi bu odamlar??!

– Qiladigan ishingiz bo'lmasa, telefonni joyiga qo'ying!

Shunday deb endi go'shakni uloqtirmoqchi edi, boyagi ovoz yana shang'illadi:

– Otinoyimning ahvoli og'ir!

Iskandar Vahobovich esankirab qoldi. Axir Otinoyi... O'zining onasi-ku!

Bo'ldi-bo'ldi! Xolmat aka ularning devor-darmiyon qo'shnisi. Provodnik.

– Nima bo'ldi?! – dedi birdan yuragiga g'ulg'ula tushib. – Oyimga nima bo'ldi?

- Ahvoli og‘ir.
- Shoshmang, hozir „skoriy“ chaqiraman.
- „Skoriy“ni nima qilasan? – Xolmat aka tag‘in baqirdi. – O‘zing kel, tezroq!

Telefon uzilib, „tut-tut-tut“ degan qisqa tovush eshitila boshladi. Iskandar Vahobovich ichida bir nima uzilib ketgandek bo‘ldi. Nahotki, onasi...

U yugurib qabulxonaga chiqdi. Mashinka chiqillatayotgan kotibaga buyurdi:

- Dilya! Tezroq mashina chaqiring! Podyezdga!

...Oq „Volga“ gavjum ko‘chalardan shiddat bilan uchib borar, Iskandar Vahobovich orqa o‘rindiqda o‘tirgancha yuragi gursullab bir savolni xayolan qaytarardi. „Nahotki!“

Mashina chorrahalarda hadeb to‘xtar, u xayoliga kelgan dahshatli o‘yni haydashga, „Toblari qochgandir-da“, deb o‘zini yupatishga urinar, ammo o‘sha zahoti boyagi shafqsiz savol yana vujudini teshib o‘tar edi. „Nahotki!“

Mashina choyxo‘rlar chaqchaqlashib o‘tirgan guzar oldidan o‘tayotganida u bir qadar taskin topgandek bo‘ldi. „Xayriyat, tinchlik ekan“. U biladi. Xudo ko‘rsatmasin, biron kor-hol bo‘lsa, choyxonada odam qolarmidi? Ammo mashina past ko‘chaga kirishi bilanoq yuragi muzlab ketdi. Ana, o‘sha shifer tomli pastak uy, ana ikki tup tut, rangi unniqib ketgan taxta darvoza. Darvoza oldida besh-olti erkak to‘dalashib turishibdi. Allaqanday ayol tut tagini supuryapti.

„Nahotki!“ Bu savol uning miyasiga so‘nggi bor chaqmoqday urildi-yu, majolsiz oyoqlarini arang sudrab, mashinadan tushdi. Shu ondayoq Xolmat aka yugurib kelib, uni quchoqladi.

- Onamizdan ayrilib qoldik-ku, ukam! – U Iskandar Vahobovichni bag‘riga bosgancha birdan o‘krab yig‘lab yubordi. – Ayrilib qoldik!

Iskandar Vahobovichning ko‘z o‘ngi qorong‘ilashib ketdi. U karaxt bo‘lib qolgan, Xolmat akaning yelkasi muttasil

silkinayotganini, mo'ylovi o'zining yuziga tegib, g'ashini keltirayotganini sezib turar, ammo boshqa narsani idrok etolmas, xayolida faqat bir fikr charx urardi. „Oyim!“ „Oyim!“ U amallab Xolmat akaning quchog'idan chiqdi-da, gandiraklagudek bo'lib uy tomon yo'naldi. Darvoza oldida turgan kishilar negadir unga tik qaramas, biri boshini xam qilib turar, biri yuzini o'girganga o'xshardi. Biroq hozir u bunga e'tibor beradigan ahvolda emassi.

Chayqalib-chayqalib g'ishtin zinalardan chiqdi-yu, salqin dahlizdan o'tib, uyg'a otilib kirdi. Qandaydir ayollar (Iskandar qaramadi) unga yo'l bo'shatishdi.

Iskandar yaltiroq qubbalari zanglab ketgan sim karavotda yotgan onasini ko'rdi. Ustiga oq choyshab yopib qo'yilgan. Onasi qandaydir osoyishta yotar, xuddi uxlayotganga o'xshardi. Iskandar hozir „Oyi!“ deb chaqirsa, uyg'onib ketadigandek.

U shunday qildi. Karavot oldiga, namatga cho'kkancha iltijo qildi:

– Oyi! Oyi-i!

Yo'q, onasi ko'zini ochmadi. Shunda u choyshabni ochib tashladi-yu, onasining qo'lini, yillar zahmatidan barmoqlari qing'ir-qiyishi bo'lib ketgan qo'lini changallab o'pdi. Qiziq, onasining qo'li muzdek edi!

– Oyi! Oyijo-on! – dedi hayqirib. Keyingi so'zlar bo'g'-zidan yig'i aralash otilib chiqdi. – Oyi-i!

U ko'zyoshlardan ho'l bo'lib ketgan lablari bilan onasining qo'llarini o'pa boshladi. Keyin nima uchundir ikki qo'llab namat to'shalgan yerni mushtladi.

– Nega? Oyi, ayting, nega?

U hadeb yerni mushtlar, ammo bu xitob onasiga qaratilganmi, o'zigami, aqli yetmas edi. U cho'kkalagan ko'yi tag'in onasining qo'llariga yopishdi. Muzdek, dag'al qo'lni yuziga bosib, o'krab yubordi.

...Bu qo'llar uning boshini silagan, ko'p silagan. Ko'ngli o'ksiganida, betob bo'lganida, ilk bor maktabga borganida,

maktabni oltin medal bilan bitirganida... Nihoyat... uylan-ganida... Bu qo'llar uning boshini ko'p silagan. O'zi-chi, o'zi onasining boshini silaganmi? Biron marta, aqalli biron marta silaganmi?!

Yuragining tub-tubidan otilib chiqqan bu savol a'zoyi badanini o'rtab yubordi.

– Oyi-i-i! – dedi ingrab.

Bu qo'llar uni yo'rgaklagan, unga ko'krak tutgan, shammollaganda badaniga qo'y yog'i surgan. Bu qo'llar sigir sog'gan, tappi qilgan, kir yuvgan, ovqat pishirgan, non yopgan...

Non! Onasining nazarida, nondan tabarruk narsa yo'q edi. Qo'ni-qo'shnilarning go'dak bolasi yo'lga kirsa, oyog'i orasidan kulcha yumalatib, boshqa bolalarga obqochtirardi. Nikoh to'yidan avval ikki yoshning pok turmushidan nishona bo'lsin deb non ushatardi. Bostirmadagi tandirda kunora non yopardi. Zog'orami, arpa nonmi, ishqilib, nonda! Tandir yonida o'ralashib yurgan Iskandarga eng avval pishgan nonni yuziga suv sepib uzib berardi...

U yosh to'la ko'zlar bilan beixtiyor karavot ustiga, shift tomonga tikildi. Ana, ana, o'sha non! „Chiylampa“ qilib shuvalgan shift ostida, devordagi mixga ilig'liq turibdi. Bir cheti tishlangan, ana, o'sha tish izlari. Bu – dadasi tishlagan non. Qip-qizil...

U onasining nonni arta-arta joyiga ilib qo'yganini ko'p ko'rgan. Mixdan hadeb olib qo'yilaverGANI uchun teshigi kengayib ketgan. Ammo non hamon turibdi. Mog'or bosmagan, qip-qizil...

Bir mahal u kimdir ohista turtganini idrok etib, yelkasi osha burilib qaradi. Tanidi: Bahri xola. Ko'k ro'mol tang'ib, ko'k ko'ylak kiyib olibdi. Yig'layverib, shishib ketibdi.

– Bandalik-da, bolam, – dedi u ming'irlab. – Olloning irodasi, jon bolam! Yuvg'uvchi keldi... – Shunday dedi-yu, hiqillab yig'lagancha ko'k ro'molini yuziga bosdi.

Iskandar chiqib ketishi kerakligini tushundi. Ostonaga borganida to'xtab qoldi. Onasiga termildi. Onasi qubbaları zanglab ketgan sim karavotda yotar, go'yo uxlayotgandek, hozir o'midan turib, uni bag'riga bosadigandek, ikki kafti bilan ikki yuzidan ushlab, peshanasidan o'padigandek edi. U doim shunday qilardi. Shu uyda, shu karavotda onasi uni bag'riga bosib uxlatgan. Ertalab peshanasini silab uyg'otgan.

...Esida, o'shanda Iskandar birinchi sinfda o'qirdi. O'rik gullagan kun edi. Maktabdan isitmalab keldi. Onasi ming zo'r lamasin, bir piyola choy ichdi-yu, xuddi mana shu karavotga cho'zildi. Uyda xotinlar ko'p edi. U isitma aralash Bahri xolaning dimog' bilan ming'irlab aytayotgan gaplarini eshitib yotardi.

„Endi, ovsinmoshsha, Xudodan ham, bandasidanam qarzingiz qolmadi. Urush bitdi. Kelganlar keldi. O'lganlarning joyi jannatda bo'lsin. Yosh umriningizni xazon qilmang.

Bolagayam ota kerak, o'rgilay. Sizga og'iz solayotganlar tag-zoti ko'rgan odamlar...“

Iskandar onasining javobini eshitmadı. Uxlab qoldimi, hushidan ketdimi, o'zi bilməsdi. Umuman, bu gaplarning ma'nosini tushunmasdi. Faqat ertasiga onasi kuyib-yonib aytgan so'zlar qulog'iga o'rnashib qoldi.

„Ikkinci unaqa gaplarni gapirmanglar! Xudoning qahri keldi. Bolamga qizamiq toshib ketdi. Dadasi omon bo'lsa kelar, kelmasa peshanamdan ko'rdim. Yolg'iz emasman, shukr, oldimda bolam bor...“.

– Iskandarjon, jon bolam, – Bahri xola uning yelkasiga qoqdi. – Chiqa qolinq, qoqindiq.

Iskandar (u endi Iskandar Vahobovich emas, Iskandar, oddiy Iskandar bo'lib qolgandi, negaki, o'lim hammani bavar qilib qo'yadi) vazmin qadamlar bilan salqin dahlizga chiqdi.

Peshayvon ustunidagi mixlarga onasining butun „bisoti“ ilib qo'yilibdi: bitta yangi, ikkita eski ko'ylak, unniqib ket-

gan baxmal nimcha, bir burchi teshilgan jun ro‘mol, hali ti-kilmagan bir kiyimlik shtapel, shol dasturxon...

Kavshandozda onasining kavushi turibdi. Qiziq, bu kavushni Iskandar uch yil ilgari olib bergen edi. Nega yap-yangi turibdi?

Xolmat akaning xotini – Kelinoyi yig‘idan qizargan ko‘zlar bilan unga termildi. Iskandar kavushga tikilib turganini sezdi shekilli, tushuntirdi:

– Ayab yurardilar. To‘yga borsalar yonboshlariga – ko‘r-pachaning tagiga berkitib o‘tirardilar. Iskandarim obergan, deb maqtanardilar.

Iskandar hamon kavushdan ko‘z uzmasdi. Kelinoyining savolini daf’atan yaxshi eshitmadni.

– Nima qilaylik, mastavami, sho‘rvami?

Iskandar hech nimaga tushunmadi.

– Nima? – dedi garangsib.

– Hali-zamon uyni odam bosadi. Issiq ovqat qilish kerak. – Kelinoyi kuymalanib tushuntirdi. – O‘lik chiqqan uydha qozon qaynatib bo‘lmaydi. Biznikida qilamiz. So‘ramasam ham bo‘lardi-ku, siz – o‘zimiznikisiz, ukam.

Iskandarni Kelinoyining savoli emas, o‘zini o‘rtayotgan muammo qiynar edi.

– Nima bo‘ldi? – dedi ingrab. – Oyim soppa-sog‘ edilar-ku!

Kelinoyi o‘pkasi to‘lib xo‘rsindi.

– Tappa-tuzuk edilar, – dedi burnini tortib. – Ertalab o‘ynab-kulib o‘tirdilar. O‘limliklarini ko‘rsatdilar. Hazillashdik. Men aytdim: „O‘limni o‘ylamang. Aqining to‘yini... – Kelinoyi hiqillab qoldi. – Aqidaning to‘yini o‘zingiz bosh bo‘lib o‘tkazasiz“, dedim. Xo‘p, dedilar. Keyin birdan, g‘alati bo‘p ketyapman, dedilar. Karavotga yotqizgan edik...

Iskandar kavshandozga o‘tirgancha boshini changalladi. Bu qanday gap! Bu qandoq adolatsizlik! Nimaga? Tappa-tuzuk yurgan onasi nimaga to‘satdan...

Kelinoyi hamon hiqillagan ko'yi uning boshiga egildi.

– Sho'rva qila qolamiz.

Ajab, shu tobda taom o'tadimi tomoqdan! Darvoqe, onasi sho'rva pishirishga usta edi. To'uda, ma'rakada xotinlar uning ovqatini maqtashsa quvonib ketardi. Ayniqsa, moxorani ko'p qilardi. Bu taomni Iskandar ham yegan. Ko'p yegan. Onasi beva qolganidan keyin jamoat uni Otinoyi qildi. U maktabda farrosh bo'lib ishlar, lekin uyda ham tinchi yo'q edi. „Kelin tushdi,,ga qovurma chuchvara pishirish bormi, „to'qqiz-to'qqiz,,ga qatlama qilish bormi, nikoh to'yida „tortishmachoq“ bo'ladimi, kuyov-kelinning boshidan sochqi sochishmi, kelin salomda quda-qudag'aylarga salom berishi – hammasi onasining zimmasida edi. U to'ydan albatta tuguncha olib kelar, tugunchada non, monpasi, qovurma chuchvara, keyin... albatta, moxora bo'lardi. Ba'zan yarim kechalari eshik taqillab qolar, Iskandar onasining dik etib o'rnidan turib ketganidan uyg'onar, zum o'tmay onasi qaytib kirardi. „Jon bolam, Ismat cho'loq omonatini topshiribdi, bormasam bo'lmaydi, sen qo'rqmaysan-a, katta yigtsan-ku“, deb peshanasidan o'pib chiqib ketar, shu ketgancha ertasiga peshinda qaytib kelar, o'zicha qur'on o'qir: „Joyi jannatda bo'lsin“, deb yuziga fotiha tortar edi.

...U onasi yotgan uygaoqsoqlanib kirib ketayotgan paranjili kampirni ko'rdi-yu, garangsib hovliga tushdi. Dimog'iga rayhon hidi kirdi. Negadir onasining isi kelgandek bo'ldi.

Kelinoyi hovlidagi rayhonlardan shosha-shana yulgancha uygaoqsoqlanib kirib ketdi. Iskandarning xayoliga yarq etib bir fikr urildi: „Gulyaga aytish kerak. Xabari yo'q-ku hali“.

U endi eshik tomon yo'nalgan edi, xotiniga ko'zi tushdi. Gulya, qo'lida oq sumkacha, xuddi to'yga kelgandek yasanib olgan, vodolazka kiygan, qulog'ida brilliant zirak yaltirab turardi. „Qayoqdan eshitibdi bu“, degan xayolga bordi-yu, uning orqasidan sumka ko'tarib kelayotgan hay-

dovchisi Shavkatni ko'rib, hammasini tushundi: „Shavkat xabar qilgan“.

– Iskandar aka! – Gulya uning yelkasiga boshini qo'yib quchoqladi. – Bechora oyim! – U bir zum shu alfovza turdi-da, negadir teskari qarab kafti bilan yuzini changalladi. Shosha-pisha oq sumkachasidan ro'molcha olib ko'ziga bosdi.

„Sen aybdorsan! – deb o'yladi Iskandar vujudi titrab. – Hammasiga sen – qanjiq aybdorsan!“ U xotinidan shart yuzini o'girdi-da, burchakda, o'rik ostida turgan so'riga borib o'tirdi.

Shu ondayoq shafqatsiz bir savol a'zoyi-badanini sirqiratib yubordi. „O'zing-chi, o'zing!..

Uning uylanishi qiziq bo'ldi. Qurilish fakultetida Iskandar Vahobovning oldiga tushadigan talaba yo'q edi. A'luchi, jamoatchi... To'rtinchi kursda o'qiyotganida „Turarjoy qurilishini mahalliy sharoitga moslash“ degan mavzuda ma'ruza qildi. U shu qadar dadil fikrlarni o'rta ga tashladiki, muhokama janjalga aylanib ketdi. Birovlar uni modernist dedi, bosh-qalar donishmandga chiqardi. Shunda kafedra mudiri, Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, professor Zarif Hodiyevich uni himoya qildi. „Yosh do'stimiz Iskandar Vahobovichdan kelgusida yetuk olim chiqadi“, dedi komil ishonch bilan. Rostdan ham shunday bo'ldi. Zarif Hodiyevich uni o'z tarbiyasiga oldi. Iskandar aspiranturada qoldi. Birinchi bor domlaning qizi – jinsi shim kiyib yuradigan Gulyani ko'rganida e'tibor bermadi. To'g'rirog'i, e'tibor bermaslikka harakat qildi. Kimsan, akademikning qizi qayyoqda-yu, mahalla otinining o'g'li qayyoqda! U shunday deb o'ylar, lekin domla bilan olcha soyasida o'tirib suhbatlashayotganida ichkarda royal chalayotgan, ba'zan xiyol bo'g'iq, ammo yurakni o'rtovchi ovozda qo'shiq aytayotgan Gulandom – Gulyaga ko'ngli talpinayotganini sezib turardi. Gulya konservatoriada o'qir, zamonaviy, o'ktam qiz edi. Xullas, Gulyaning o'zi unga ko'nglini yordi.

To'y restoranda o'tdi. Kelinning dugonalari past ko'chadagi kulbagaga kelishganida Iskandarning yetti nomusi yerga bukildi. Nazarida, Otinoyi kelinining boshidan sochgan sochqilar ham, pishirgan moxorasi ham o'ta bachkana, o'ta g'arib ko'rinar edi. Buni qarangki, Zarif Hodiyevich mard odam ekan! Xuddi shu hovlida, xuddi shu so'rida o'tirib (Otinoyi katta oxurdan yem yegan qudalaridan uyalib, restoranga bormagan, ammo uyda chiroyli dasturxon tuzab qo'ygan edi) qiziga nasihat qildi:

„Iskandarni o'zing tanladingmi, endi bilib qo'y, shu oila-ning jirini jirlaysan. Ona bechora bir ko'zlab o'g'il o'stiribdi. Mening ham bir bolam ikkita bo'ldi, Otinoyining ham“.

Otinoyi bu gapdan boshi osmonga yetdi. Tog'dek su-yanchiq topganiga quvonib, qudasining yelkasiga bosh qo'-yib yig'lab yubordi.

Yarim yilcha yaxshi turishdi. Otinoyi kelini uyg'onmasidan avval pechkaga ko'mir qalab qo'yar, ataylabdan tandirda non yopar, kechqurun er-xotin ishdan qaytishiga ovqat tayyor turar edi... Boshqa paytlarda u to'ygami, ma'rakagami chiqib ketar, alla-pallada bir lagan sovigan osh, bir kosa moxora, bir chekkasi ushatilgan qatlama olib kelib, o'rtaga qo'yar, tantana bilan e'lon qilar edi: „Olinglar, bolajonlarim! Sizlarniyam to'yga yetkazsin!“ Keyin bir kiyimlik chitmi, satinmi keliniga uzatardi: „Obqo'ying, kelinposhsha, Xudo xohlasa, o'g'il to'yi qilsangiz kerak bo'ladi!..“

Gulya qaynanasining oldida bir nima deya olmas, kechasi Iskandarni egovlardi: „Onangiz tilanchilikni bas qilsin! Menga birov tishlagan qatlamalar, birov sadaqa qilgan lattalar kerakmas“.

Katta janjal arzimagan narsadan boshlandi. Bir kuni Iskandar ishdan kelsa, xotini divanda muk tushib yig'lab yotibdi.

Iskandar uning yelkasidan ohista tutgan edi, Gulya divan suyanchig'ini mushtladi, yoshdan tushi erib ketgan ko'zida g'azab chaqnadi:

„Yo'qoling! – dedi yig'lab. – Tilanchi onangiz bilan,

qo'shmozor bo'ling! Gilamim! Gilamimni nima qildi? Belgiyskiy gilam edi! Irim-sirimlaring boshingda qolgurlar!"

Iskandar esankirab qoldi. Devordagi ipak gilamga qaradi. Yo'q, hammasi joyida. Keyin, yerga to'shalgan gilamni sinchiklab tekshira boshladi. Qarasa, Gulyaning gapi rost. Gilamning bir burchagi teshilib qolibdi. Tangadek teshik. Iskandar go'yo shu bilan teshik bekilib qoladigandek bar-mog'ini tiqib ko'rdi. Yuragi siqilib uf tortdi. Boshini ko'tarsa, tepasida onasi turibdi. Otinoyi, „Bu yoqqa kel“, degandek uni imladи. Iskandar hamon divanda yuztuban yotgan xotiniga o'g'rincha qarab qo'ydi-da, onasiga ergashdi.

„Ayb menda, – dedi onasi shivirlab. – Kecha tunda bir uy xotin Gulandomni maqtadi. Kelinimga ko'z tegmasin, deb isiriq tutatgandim. Xokandoz o'lgurdan cho'g' tushganini bilmay qolibman. – U bir zum o'ylanib turdi-da, tushuntirdi: – Xotiningni ko'nglini ol. Xapa bo'lmasin. Ja bo'lmasa, pensiyamdan yig'ib-yig'ib olib berarman!"

Na ilojki, bu bilan janjal tugamadi. Gulya masalani ko'n-dalang qo'ydi: „Yo meni deng, yo tilanchi onangizni!

Ketaman! Dadamnikiga ketaman! Onam meni ko'mirning sassig'ini hidlasin, deb tug'gan emas“.

Oxiri er-xotin boshlashib Zarif Hodiyevichning oldiga borishdi. Maslahat so'rashgan edi, qaynatasi Iskandarni jernib berdi: „Qanaqa erkaksiz o'zi! Bir yil turmasdan onangizni tashlab qochishni mo'ljallab qoldingizmi? Xotin deganni qattiq ushslash kerak-da bundoq!"

Dadasining gapi Gulyaning jon-jonidan o'tib ketdi. „Uyingizga sig'masam, ijaraga kvartira olaman“, deb yig'la-di. Qiziq, shunda yana Otinoyining o'zi yordamga keldi. „Bolalarimga yordam bering, joy olishsin. Gulandomim katta oxurdan yem yegan, mening chaldevorimda tursa uyat bo'ladi“, deb qudasiga yalindi.

Shundoq bo'ldi. Zarif Hodiyevichning ko'magida shahar markazidan uy olishdi. Er-xotin, „Yuring biz bilan“, deb

Otinoyini hol-joniga qo'yishmadi. Ammo Otinoyi ko'nmadi. „Qorada ko'rsam qornim to'q, o'zlariningdan ko'payinglar. Men cholimning chirog'ini o'chirib ketmayman“.

To'g'ri, Iskandar onasini qarovsiz qoldirmadi. Loysuvoq tom ustiga starapil o'rnatib, shifer yoptirdi. Uy „zamonaviy-roq“ bo'ldi. Keyin... keyin gaz tushirib berdi. To'g'ri, tabiiy emas, ballonli... Otinoyi ularning „dom“iga borsa ko'p o'tirolmas, mahalladagi biron to'ynimi, ma'rakanimi bahona qilib, tezgina tura qolardi.

Avvaliga er-xotin bu hovliga bot-bot kelib turishdi. Keyin Iskandarning ishlari ko'payib ketdi. Iskandar endi kimsan Iskandar Vahobovichga aylandi, fan kandidati, trest boshqaruvchisi... Ajab, uning ishi ko'paygandan ko'payib borar, biroq hammasiga ulgurur edi. Faqat bir narsaga – onasini ko'rishga vaqt topolmasdi. Bunga bir chekkasi Gulya ham sababchi edi. Er-xotinning umri o'tib borardi. Farzandlari yo'qligi avvaliga bilinmasa ham, bora-bora Gulya serzarda bo'lib qoldi. Bir kuni eriga piching qildi: „Oyingiz sizga yangi xotin izlab yurganmish. Eshikma-eshik tentirab o'rganib qolgan-da! Topsa-topadiyam!“

Iskandar o'shanda xotinini birinchi marta sansiradi. „Uyat bormi sanda“, dedi g'azabdan titrab. Onasi har doim bir gapni qaytarardi: „Xotiningni xafa qilma, bolam. Umid bilan bir yostiqqa bosh qo'ygan“. Gulya har ehtimolga qarshi „profilaktika“ uchun shunday deganini bilib, Iskandar battar g'azablandi: „Uyat bormi sanda?“ Gulya kinoyali kului: „Uyat nima qiladi menda, hammasini yig'ishtirib sizga bergen“.

„Mana endi hammasi tamom bo'ldi. Hammasi“. Iskandar hovlida odamlar kuymalanib yрганини payqар, ammo hech nimani ko'rmas edi.

Chekkisi keldi. Shimining cho'ntagiga qo'l suqsa, sigaret yo'q. Hali ishxonada stol ustida qolib ketaveribdi. U ma'nosiz nigohini ro'parasidagi bostirmaga tikdi. Loysuvoq

tom yupqalashib qolibdi. Katalakdek derazaning bir ko‘zi singan, oynalari xiralashib ketgan.

Ajab, oxirgi marta qachon keluvdi bu hovliga? Ha, bayram arafasida, yettinchi martda kelgan edi. Tushlik tanaffusidan foydalanib, birrov keldi-yu, ketdi. Odatdagidek shoshib turardi. Keyin, Gulya mehmon keladi deb qo‘yan... Onasini to‘rtta choy,sovun bilan qutladi. Mashina kutib turganini bahona qilib tuflisini ham yechmadi. Onasi shoshib qoldi. Yalpiz somsa qilgan ekan. Majbur qilib shundan bittasini yedirdi. Iskandar mashinaga o‘tirganda harsillab yugurib chiqdi. Ro‘moli qiyshayib yelkasiga tushib ketgan. Qo‘lida eski gazetaga o‘rog‘lik bir nima. „Ma, – dedi mashinaning qiya ochiq eshididan uzatib. – Gulandomniyam og‘zi tegsin“. Iskandar gazeta ostidan issig‘i sezilib turgan somsalar ni mashinaning orqa oynasi tagiga tashlab, eshikni yopdi... O‘sanda onasini oxirgi marta ko‘rayotganini bilsa edi! Bugun nechanchi o‘zi? O‘n ikkinchi iyul. Bundan chiqdi uch oydan oshibdi. Uch oy! Nahotki, shuncha vaqt ichida bir soat vaqt topolmadi? Topardi, xohlasa, albatta, topardi.

U allakim o‘zining otini aytib chaqirayotganini idrok etib, boshini ko‘tardi. Qarasa, jinsi shim kiygan talabanamo yigit yelkasida karton quti ko‘tarib turibdi.

Iskandar uni tanimadi. Talmovsirab qaragan edi, yigit so‘radi:

– Qayoqqa qo‘yay?

Iskandar hech nimaga tushunmadi. Yuki og‘irroq bo‘lsa kerak, yigit qutini qo‘shqo‘llab chirani yelkasidan oldi-da, so‘ri burchagiga, soyaga qo‘ydi. Iskandarning ko‘zi qutiga yopishtirilgan konfet etiketasiga tushdi. Zum o‘tmay boyagi yigit tag‘in bir quti ko‘tarib keldi, uniyam so‘ri ustiga, boyagi qutining yoniga qo‘ydi.

– Mayiz, – dedi sekin.

Shundagina Iskandarning xayoliga keldi: „Pulini berish kerak“.

– Shoshmang, – dedi cho'ntagini kavlab. – Necha pul bo'ladi?

Yigit to'xtab qoldi. Hayron bo'lib unga tikildi.

– Necha so'm? – dedi Iskandar ovozi xirillab.

Yigit negadir yerga qaradi.

– Otinoyim... – Shunday dedi-yu, u yog'ini gapirmadi.

Ko'ziga shu qadar ma'noli tikilib qaradiki, Iskandar beixtiyor pulni qaytib kissasiga soldi. Yigit ohista burildi-da, indamay ketaverdi. Qiziq, nima demoqchi bo'ldi u? „Otinoyim mening ham onam edi, sen pastkash hamma narsani pulga chaqasanmi?“ dedimi? Kim o'zi bu yigit? Nimaga Iskandar uni tanimaydi? Umuman, o'zidan boshqa – Iskandar Vahobovichdan boshqa kimni taniydi?

Bir mahal u kavshandozda Kelinoyi imlab chaqirayotganini ko'rди. Paranjili yuvg'uvchi oqsoqlanib zinadan tuшиб kelardi. Kelinoyi yoshdan qizargan ko'zlarini Iskandarga tikdi.

– Otinoyimning ziraklarini yuvg'uvchiga berdik, – dedi sekin. – O'zları vasiyat qilgandilar.

„Yuvg'uvchi“, „vasiyat...“ Bu so'zlar Iskandarga xunuk, sovuq eshitilar, go'yo bu gaplar hammasi yolg'ondek, tushida bo'layotgandek edi. Hozir uyg'onib ketadi-yu, yengil tortadi.

– Mana... Olib qo'ying...

Iskandar merovsirab Kelinoyining qo'liga qaradi. Ikki lo'ppi choy. „Indiyskiy“.

– Ikkitasini yuvg'uvchiga berdik. Rozi bo'ling. – Kelinoyi titrayotgan labini tishladi. – To'rtta edi. Sakkizinchı martda olib kelgan ekansiz. Otinoyim... Otinoyim... – Kelinoyi entikib qoldi. – Barkash orqasiga berkitib qo'ygan edilar. Birov kelsa, Iskandar obkelgan choydan damlang, dutor chalib turgan choydan, derdilar. Men boshqa choy damlardim. Bunisi ni Otinoyim har kuni hidlab-hidlab barkash orqasiga bekitib qo'yardilar.

Iskandar boshi g‘uvullab borayotganini, hozir yiqilib ketishini his etib turardi. Kelinoyi „dutor chalib turgan“ hind choyini peshayvon taxtasiga qo‘ydi. Burnini torta-torta yig‘lagancha ko‘ylagining yoqasidan qo‘yniga qo‘l suqib, eski gazeta qog‘oziga o‘rog‘lik allanima chiqardi.

– Olib qo‘ying, – dedi qog‘ozni uzatib. – O‘limligim deb, yostiqlarining orasiga tiqib qo‘ygan edilar. Siz tashlab ketgan ekansiz. Yuvg‘uvchining haqini berdik. Bunisi – qol-gani. Sanab oling.

U gazeta qatini ochib, mayda-yirik aralash pullarni Iskandarga uzatdi.

Qachon, qachon shuncha pul bergandi u onasiga! Bu qandoq bedodlik! Shu kunidan ko‘ra onasi emas, o‘zi o‘lgani yaxshi emasmidi!!! Onasi bir so‘mlab yig‘gan pensiya pulini ham Iskandarim berdi degan. Shu gapga o‘ziyam ishongan, boshqalarniyam ishontirgan. Qani endi ko‘kragini shundoq yirtsa-yu, yuragini sug‘urib olib yerga uloqtirsa!

Ich-ichidan otolib kelgan bo‘g‘iq yig‘idan titrab, pulni tashlab yubordi. Bir dasta pul parishon pirpirab kavshavdozga tushdi.

...Iskandar hovliga, undan yo‘lakka otildi. Uzun atlas lozim kiygan qandaydir kelinchak tor yo‘lakka „shakarob“ qilib suv separ, sachratmaslik uchun qo‘lidagi paqirni borgan sayin pastroqqa egar edi. Ochiq darvozadan zabardast yigit kirib keldi. Iskandar uning aftini ko‘rmadi. Yigit maykachan yelkasiga yo‘l-yo‘l dasturxon tashlab olgan, yelkasi aralash gardaniga ortilgan bir qop un zalvari ostida ikki bukilib kelardi. Iskandar bir tomonga, suv sepayotgan kelinchak bir tomonga chetlab yo‘l berishdi. Yigit yalang oyoqlarini gurs-gurs bosgancha Iskandarning oldidan o‘tib, hovliga kirib keldi.

Iskandar darvozadan chiqdi-yu, to‘xtab qoldi. Eshik oldiga tumonat odam to‘plangan, tor ko‘chaga mashina sig‘may ketgandi. Qiziq, qayoqdan keldi shuncha mashina! „Ishxonadan bo‘lsa kerak“, degan o‘y xayolidan lip etib o‘tdi. Ammo o‘sha

ondayoq bular boshqa mashinalar ekanini, ishxonadan faqat o'zining mashinasi bir chekkada turganini payqadi.

Nariroqda yuk mashinasi turibdi. Mashina ustida ikki o'spirin turib olib, yig'ma stollarni, xarraklarni uzatib beryapti. Pastda esa to'rt yigit stollarni paydar-pay tushirishib, bir chekkaga olib qo'yishyapti.

Iskandar tut panasida turgan tobutni ko'rib, ko'ngli buzilib ketdi. Tobutdan beriroqda, hozirgina mashinadan tushirilgan xarraklarda salsa o'ragan, yaktak kiygan chollar o'tirishibdi.

– Bandalik-da, ukam!

Iskandar yonida turgan mahalla oqsoqoli Shokir akaga ma'nosiz qarab qo'ydi.

– Hammaning boshida bor, – oqsoqol xo'rsindi. – Onamiz boshqacha edilar-da, jannati xotin edilar.

Keyin oqsoqolning poxol shlapa kiygan „zami“ Iskandarning qo'lini qisdi.

– Necha yoshda edilar? – dedi sekin.

„Buning nima ahamiyati bor?! – Iskandar shuni o'yladi-yu, daf'atan xayoliga boshqa fikr keldi. – Darvoqe, necha yoshda edi onasi? Ha, o'n sakkizinchchi yil edi. O'zi qirq ikkinchi yilda tug'ilgan bo'lsa, demak, onasi yigirma to'rt yoshda beva qolgan ekan“.

O'zini quchoqlagan to'nli kishini Iskandar daf'atan taniy olmadi. Keyin bildi: qaynatasi. Zarif Hodiyevich uning peshanasidan ohista o'pdi.

– Bardam bo'ling, o'g'lim, – dedi sekin. – Ota-onha o'l-mog'i meros...

Keyin kimdir yelkasiga turtdi. Qarasa, Xolmat aka.

– Bu yoqqa yur, – dedi-yu, uni yo'lakka boshlab kirdi.

Devor tagidagi kursida yotgan to'nni kiygizdi, beliga belbog' o'radi. Qati buzilmagan do'ppi uzatdi – kiyib ol!

Do'ppi kichkina ekan. Iskandar kafti bilan bosib-bosib tashqariga yo'nalarkan, Xolmat aka yana pichirladi:

– Laylaktepaga olib boramiz-da, a! O‘zлari aytgan ekanlar.

Iskandar yuk mashinasi faqat stol-stulni olib kelishga mo‘ljallanmaganini tushundi. Laylaktepa olis, to‘rt chaqirim keladi. Oyog‘i ostida o‘ralashayotgan o‘n-o‘n ikki yashar bolakaylor ham to‘n kiyib, belini bog‘lab olganiga avval hayron qoldi-yu, keyin tushunganday bo‘ldi. Ehtimol, Xolmat akaning bolalaridir, ehtimol, qo‘shti bolalardir...

...Old tomoniga paranji, orqasiga mursak yopilgan tobutni olib chiqishganida hamma yoq dilni o‘rtovchi faryodga to‘lib ketdi. Kelinoyi, Bahri xola, Muattar xola, allaqanday qizlar, kelinlar chuvvos solib tobut ketidan yugurishdi.

– Voy, onam!

– Ro‘shtolik ko‘rmagan, onam!

To‘n kiyib, belbog‘ bog‘lagan bolakaylor ko‘zidan duv-duv yosh oqib: „Buvijonim, buvijonim!“ deb chirqirishar edi. Xolmat akaning mo‘ylovi ho‘l bo‘lib ketgan, nuqlu titrardi.

– Hammamizning onamiz edingiz-a!

Yo‘q, Iskandar o‘ylagandek tobutni mashinaga ortishmadi. Yelkada ko‘targancha yo‘lga tushishdi. Iskandar tobut bandidan ushlab olti-yetti qadam yurgan edi, uni siqib chiqarishdi. U tobut bandiga hadeb qo‘l cho‘zar, ammo navbat tegmas edi. Tanish-notanish odamlar goh oldinga, goh orqaga o‘tib talashib-tortishib tobutga yopishar, har kim iloji boricha ko‘proq ko‘tarishga, yelkasini uzoqroq tutib berishga harakat qilar edi.

Bekatga chiqishganda trolleybus kelib qoldi. To‘xtashi bilan duv etib o‘ttiztacha erkak tushdi-yu, tobutga yopishdi.

– Kim? – deb so‘radi ziyolinamo ko‘zoynakli yigit Iskandarning yonida ko‘z yoshini to‘nining yengiga artib-artib ketayotgan Xolmat akadan.

– Otinoym!

– Iye! – ko‘zoynakli yigit rangi o‘chgancha tobutga qaytadan tirmashdi.

Endi katta ko'cha odamga to'lib ketgan, orqada trolleybus to'xtab qolgan, ro'paradan kelayotgan yengil mashinalar chekkaga chiqib to'xtar, haydovchi ham, yo'lovchilar ham shu tomonga yugurishar edi.

– Kim?

– Otinoyim!

– Iye!

Ko'chada harakat butunlay to'xtab qoldi. Burilishga yetganlarida Iskandar beixtiyor orqasiga qaradi. Odamlar oqimi ikki bekat orasiga cho'zilib, butun ko'chani to'ldirib kelar, tobut ularning yelkasida osoyishta tebranib borar, oqimga esa yangidan yangi odamlar kelib qo'shilar, qo'shilar, qo'shilar edi...

## YANGA

Akmal qo‘ng‘iroq tugmasini bosishi bilan ichkaridan ovoz eshitildi:

– Ana, Akmalxon keldilar.

„Kelinoyim“, deb o‘yladi u yangasining ovozidan tanib.

Yangasi negadir uning nomiga „xon“ qo‘shib gapirardi.

Akmal yangasining kelganidan quvondi. Har safar uni ko‘rsa onasini ko‘rgandek bo‘lardi.

Eshikni yangasining o‘zi ochdi. Akmalning yelkasidan quchoqlab ko‘rishdi. U yashil jemper kiygan, shtapel durra o‘rab olgan, qoracha, ozg‘in yuzida iymalanuvchan tabassum bor edi. Akmal uning qo‘lidagi oddiy xo‘jalik sumkasi ni ko‘rib, ketishga hozirlanayotganini payqadi.

– Nega otlanib oldingiz? – dedi astoydil ranjib.

– Bolalar yolg‘iz, – dedi yangasi tuflisini kiyarkan. – Qorong‘i tushmasdan bora qolay.

– Akam bor-ku, – dedi Akmal hamon uning ketishini xohlamay.

Yangasi yana iymangan qiyofada jilmaydi.

– Choyxonaga chiqadilar, bilasiz-ku.

Yonbosh tomondagi oshxonadan parcha gulli xalat kiy gan, oldiga kleyonka fartuk tutgan Klara chiqdi.

– Ovqatga qoling desam, ko‘nmayaptilar, – dedi u goh eriga, goh ovsiniga qarab.

– Mayli, o‘zinglar boringlar, – yangasi eshik tutqichidan ohista tutib, tashqariga chiqdi.

Akmal uni zinadan kuzatib qaytib kirganida oshxonada jiz-biz eshitilar, uyni piyozdog‘ hidi tutib ketgan edi.

– Kelinoyim qachon keluvdi? – so‘radi u go‘sht qovura-yotgan xotinidan.

Klara achishgan ko‘zini kaftining orqasi bilan artib, unga yuzlandi.

– Yaqinda.

– Biron yumushi bor ekanmi?

– Nima yumushi bo‘lardi, pul so‘raydi-da...

Akmal xotinining ovozidagi pichingni payqab, ko‘ngli ranjidi.

– Necha marta pul so‘radi sizdan? – dedi zarda bilan.

Klara kapgirni taraqlatib stolga tashladi.

– So‘ramasa, endi so‘raydi. Bir marta bersangiz, kelaveradi. Nima, bizning pul zavodimiz bormi?!

Klara oilasida yolg‘iz qizligi uchunmi, kelin bo‘lib tushgandayoq ovsinini xush ko‘rmagan edi. Seksiya olib bu yoqqa ko‘chib kelishguncha ancha mayda-chuyda gaplar o‘tgani, ularning ko‘piga xotini sababchi bo‘lganini Akmal bilardi, ammo indamagan edi. Hozir g‘ashi keldi.

– Bizning pulimizga zor qaqqashab qolgan joyi yo‘qdir, – dedi ovozi bo‘g‘ilib. – Bir narsaga kerak bo‘lib qolgandirki, so‘ragandir.

– Nega zoriqadi?! Eri ishlaydi, o‘zi ishlaydi. Rejasи bilan ishlatsin! – Klara gap tamom, degandek indamay burilib qozonini kavlashga tushdi.

Akmal xotinining xalat ostidan tirsillab turgan bo‘liq yelkalariga, kapgirni chaqqon aylantirayotgan tilla uzukli qo‘liga birpas qarab turdi-da, burilib, xonaga kirib ketdi. Hali uyga kirganida yangasi nimagadir iymanib jilmayib turganini, nima uchun shoshilib ketib qolganini endi tushundi. Xotinining mix qoqqandek qarsillatib muomala qilishidan, o‘zi bo‘lsa jilovini shunchalik berib qo‘yganidan g‘ashi keldi. „Bo‘ynini egib pul so‘rab kelish osonmi? Qish kelyapti. Bolalardan birontasiga

qishlik kiyim olmoqchidir. Topgani yetishmayotgandir. Buning ustiga akamning ichishi bor...“ U divanga chalqancha yotgancha shularni o‘ylar, o‘ylagan sayin ko‘ngli g‘ash bo‘lar edi.

O‘rtadagi eshik ochildi. Akmal xotini o‘ziga qarab turga-nini payqab, indamay yotaverdi.

– Yana qancha yotasiz? – dedi Klara tag‘in o‘sha o‘yib oluvchi ohangda. – Lolani kim olib keladi?

– Bilmayman, – dedi Akmal karavot tepasiga ilingan arabiyl gilam gullarini tomosha qilgan bo‘lib. – Bog‘chaga har kuni men borishim shart emas.

– Bo‘lmasa, ovqat qiling!

Akmal gilam tomonga butunlay o‘girilib oldi.

– Masalan, men ovqat yemayman, – dedi sovuqqonlik bilan.

– Qarang-a, men sizning to‘yib kelishingizni bilmab-man. – Klara eshikni qarsillatib yopib chiqib ketdi. Zum o‘tmay tashqi eshikning kaliti shiqirladi.

Akmal o‘sha alfozda yotganicha xotinini ham, qizini ham emas, negadir yangasini o‘ylardi.

Adham akasi uylanganda Akmal uchinchi kursga o‘tgan edi. Mexanika-matematika fakultetida fanlar og‘ir bo‘lgani uchunmi, yo o‘zining qobiliyati sustroqmidi, xullas, u stipen-diyyaga ilinmadi. Onasi yigirma besh yil ishlab, pensiyaga chiqqan, uning nafaqasi Akmalning joniga ora kirib turardi.

Yangasi kelin bo‘lib tushganida ham qop-qora, ozg‘in qiz edi. Akmal o‘zidan nari borsa ikki yosh katta bu qizga avvaliga unchalik ko‘nikolmay yurdi. Negadir undan o‘zini olib qochar, yangasi paypog‘inimi, maykasinimi yuvayot-ganini ko‘rib qolsa, iymanar, onasiga „O‘zingiz yuvmas-siz-da“, derdi. Ammo onasining kun sayin nari ketayotgani-ni, oyoq-ko‘llari shishib, yotib qolganini Akmal bilardi. U har kuni o‘qishga ketayotganida onasi yotgan xonaga kirib, shunday ahvol so‘rab o‘tardi. Shunaqa paytlarda har doim onasining tepasida yangasi o‘tirganini ko‘rardi.

Xuddi shunaqa erta kuz kunlaridan birida u o'qishdan qaytganida, eshik tagida to'planib turgan odamlarni ko'-rib hammasiga tushundi. U qachondir shu hodisa ro'y berishi muqarrar ekanini bilardi. Ammo, nazarida, bu narsa hech kutilmaganda ro'y bergandek, allaqandayadolatsizlik bo'lгandek tuyuldi. U bir hovli xotinlar orasidan o'tib, onasi yotgan xonaga otolib kirdi. Qiziq, o'shanda u yig'lamadi. Yig'lay olmadi. Faqat tong saharda o'qishga ketayotganida onasining qilgan duosini esladi. „Tuproq olsang, oltin bo'l-sin, bolam. Umrинг uzoq bo'l sin...“

O'sha kundan boshlab Akmal eng katta tayanchi yo'qolganini tushundi. Endi uning hayoti chalkashib ketgandek, allanima o'zgarishi kerakdek tuyulardi. O'qishdan ko'ngli soviy boshladi. Stipendiya olmasa, kap-katta yigit birovga tirik tovon bo'lib o'tirsa...

Uydagi hayot o'sha-o'sha davom etardi. Xuddi onasi bor vaqtdagiday har kuni karavotining boshidagi stul suyanchi g'ida dazmollangan shim, oppoq ro'molcha, yoqasi qordek toza ko'ylak, cho'ntagida har kuni tushlikka loyiq pul...

Akmal bularning hammasini yangasi qilayotganini bilar-di. Akasining topgani o'zidan ortmaydi. Yangasi qurilishda ishlaydi. O'z erining tashvishi yetmaganday, tong saharlab turadi. Akmalning kir-chiriga qaraydi.

Yangasi og'iroyoq bo'lganidan keyin ta'tilga chiqdi. Hamon Akmalning yonidan pul arimasdi. Lekin o'zi endi ortiq bu ahvolda yurish mumkin emasligini tushundi. O'qishdan butunlay aynidi. Bir kuni akasiga qat'iy qarorini aytди:

– Men zavodga ishga kiraman.

Akasi tayinli bir gap aytmasa ham, Akmal uning qarshi emasligini bildi. Ertasiga u kech uyg'ondi. O'sha qish tongi aslo esidan chiqmaydi. Akmal uyg'onganida cho'yan pechka-da o't guvullab yonar, yangasi pechka oldida cho'nqayib o'tirgancha xayolga tolgan, go'yo uxlab qolganga o'xshardi. Akmal pechka g'irasidan tushayotgan yog'duda yangasining

dog‘ bosgan yuzini ko‘rib, yanayam ozib ketganini, chehrasi g‘amgin ekanini sezdi.

Karavot g‘irchillaganini eshitib, yangasi yarq etib unga qaradi. Ammo o‘rnidan jilmadi.

– Akmalxon, men eshitdim, – dedi u past tovushda. Keyin bir zum jim qoldi-da, uf tortdi: – Mayli, bizni o‘ylamay qo‘ya qoling. Oyimning arvohini chirqillatgani qo‘rqmaysizmi? Oyim sizni menga topshirib ketganlar. Tushundingizmi?

Akmal yangasiga qaradi-yu, ko‘zlarida yosh aylanayotganini, bu gaplarni yurakdan ezilib aytayotganini sezdi. Sezdi-yu, o‘zining ham yuragi orziqib ketdi. Shu tobda yangasining ko‘ksiga bosh qo‘ygisi, dog‘ bosgan yuzlarini silagisi, nimadir deb uzr so‘ragisi keldi.

O‘sanda u mana shu yangasi o‘z onasiday aziz bir odam ekanini his qildi. Mana, u o‘qishni ham bitirdi. Bola-chaqalik bo‘lib, yangasidan ko‘pda xabar ham ololmaydigan bo‘lib qoldi...

Eshik kaliti shiqirlaganini eshitib, Akmal qaddini rostladi. Yo‘lakda Klaraning tovushi eshitildi:

- Televizor ko‘rasanmi, Lola? Hozir multik bo‘ladi.
- Yo‘q, dadamga boraman...

Eshik ochilib, jamalak sochiga oppoq lenta taqib olgan Lola chopqillab kirdi-da, Akmalni quchoqladi. O‘sha tomon dan yana Klaraning ovozi keldi:

- Qo‘y, Lola, dadangga tegma, chaqib olasan.
- Akmal qizini yetaklab yo‘lakka chiqdi.
- Kelinoyim necha so‘m so‘radi?

Oshxonaga kirib ketayotgan Klara, haliyam o‘sha gapmi, degandek burilib qaradi.

- Nimaydi?

Akmal indamay yotoqqa kirdi-da, Klaraning pardoz qutisini ochdi. Ularning puli, odatda, shu qutida turardi.

Qutidan pul olayotganida oshxona tomonidan tag‘in Klaraning ovozi eshitildi:

– U pulga tegmang. Lolaga shuba olishim keraq.

Akmal indamay yo'lakka chiqdi. Tuflisining bog'ichini bog'layotganida tepasiga xotini kelganini ko'rib, qaddini rostladi. Klaraning rangi o'chib ketgan, nafis bo'yoq yurgizilgan bejirim lablari pirpirab turardi.

– Ularning bolasi bola bo'lganida meniki bola emasmi? – dedi u ovozi titrab. – Nega bolamning nasibasini qiyasiz, yo o'tkazib qo'ygani bormi?

– Ovozingni o'chirasanmi, yo'qmi?! – dedi Akmal baqirib.

Klara hayron bo'lganidan eriga tikilib qotib qoldi. Ular laboratoriyada birga ishlashar, sevishib turmush qurishgan, to'rt yildan buyon biron marta eri unga san demagan, baqirmagan edi.

– Obora qoling, – dedi Klara yig'lamsirab. – Bor-yo'g'i-nigizni oborib bera qoling, o'sha gadoyvachchalarga!

Akmal yana bir dam tursa katta janjal chiqishini bilib, eshikni qars etib yopib, chiqib ketdi.

...Akmal shahar chekkasidagi hovlilarining temir darvozasini taqillatganda vaqt allamahal bo'llib qolgan, sutday to'lin oy pastak uy ro'parasidagi olchalarining sarg'aya boshlagan yaproqlarini allalar, mayin shabada esib turardi.

Eshikni nimcha kiyib olgan yangasi ochdi.

– Tinchlikmi, Akmalxon? – dedi xavotirli ohangda. Chamasi, Akmalning vajohatidan jahli chiqib turganini payqagan bo'lsa kerak.

– O'zim. – Akmal ichkari kirib, gapni ataylab boshqa yoqqa burdi. – Akamlar keldilarmi?

– E, hali kelmaydilar. Bolalarni endi uxlatuvdim. Yuring.

– So'rida o'tira qolaylik, – dedi Akmal olma tagidagi temir panjarali so'rige imo qilib.

Yangasi uydan darrov ko'rpacha olib chiqdi. Akmal chinniday qilib supurilgan hovlidan yurib borarkan, dimog'iga gup etib rayhon isi urildi. Bu hid unga allanechuk qadrdon, allalovchi tuyg'ularni eslatdi. Onasi har yili rayhon ekar,

„Rayhon fayzli bo‘ladi, bolam“, deb qayta-qayta takrorlar edi. Chindan ham mana shu hid butun hovliga qandaydir osoyishtalik baxsh etganday bo‘lardi.

Akmal so‘ridagi ko‘rpachada yonboshlab atrofni kuzatdi.

Deraza romlari qayta bo‘yalganini aytmasa, Hech nima o‘zgarmagan edi. O‘sha ikki uy, bir ayvon, ustundagi uzun mixga bir tutam isiriq ilib qo‘yilibdi. O‘sha kaftdekkina, ozoda hovli, bo‘yra bo‘yi joyga ekilgan rayhon. Olma shoxiga ilingan lampochka. O‘sha so‘ri... So‘rining shundoq yoni-ga ikki dona olma tushibdi. Sap-sariq...

Oshxona tomondan yangasining o‘tin yorayotgani eshitildi.

Akmal o‘girilib qaradi. Yangasi hovli etagidagi oshxona eshigi oldida cho‘nqayib o‘tirgancha o‘tin yorardi.

– Qo‘ying, kelinoyi, men ketaman, – dedi Akmal.

Yangasi „hozir“ dedi-yu, ishini qilaverdi.

Qiziq, oshxona ham, uning yonboshida devorga tirab tiklangan tandir ham o‘sha-o‘sha o‘zgarmagan, tandir ostiga xuddi o‘sha kezlardagiday o‘tin taxlab qo‘yilgan edi.

Bir mahallar, Akmal bolalik chog‘ida, onasi shu tandirda zog‘ora non yopar edi. Tandirdan chiqqan birinchi zog‘oraning yarmisini ushatib, sopol piyoldagi sutga to‘g‘rab berardi. Akmalga dunyoda ivitilgan zog‘oradan lazzatliroq taom yo‘qdek tuyulardi.

U hozir ham o‘sha lazzatli non ta’mini sezganday yutinib qo‘ydi-da, sekin entikdi.

Erta kuz kechasiga xos chuqr sukunat cho‘kdi. Faqat onda-sonda bir shamol kelib, olma yaproqlarini duv to‘kib ketadi, keyin yana sukut quyiladi. Olisdan teplovoz tovushi keldi. Guldurab o‘tayotgan poyezdning bir me’yorda guvullashi eshitildi. Ovoz pasaya-pasaya tinib qoldi. Bu tovush Akmalga yana o‘sha bolalik damlarini eslatdi.

Bir vaqtlar mana shu so‘ri o‘rnida supa bo‘lardi. Onasi yotar chog‘ida ko‘loblatib suv separ, butun hovlini rayhon

hidi tutib ketardi. Akmal onasi bilan Adham akasining o'rtasida ko'rpadan boshini chiqarib, osmonga tikilib yotar, uzoq vaqt uxlay olmay xayol surardi. Akmal, ishchi bataloniga ketib, o'sha yerda vafot etgan otasini eslay olmas, ammo onasining bir gapi go'dak xotirasiga o'mashib qolgan edi.

„O'lgan odamning joni osmonga chiqib, yulduzga aylanib qolarmish“. Akmalning nazarida, osmondag'i eng yorqin yulduz otasining joni bo'lib tuyular, o'sha yulduzga uchib ketgisi kelardi. Shunaqa oydin kechalarda parovoz ovozi, uzoqlashib borayotgan poyezd sadosini eshitsa, olis joylariga ketib qolgisi kelar, yuragi orziqib-orziqib qo'yardi. Hozir ham negadir xuddi o'sha tuyg'u yuragini qamrab oldi. Bolalik damlariga bir zum qaytgisi keldi. Laboratoriya dagi murakkab tajribalar-u Klaraning injiqqliklari ham, bugungi dilsiyohlik ham, hammasi bachkana, mayda narsalar bo'lib ko'rindi. Qaniydi onasi tirilib kelsa-yu, bir kecha mana shu so'rida osmonga, yulduzlarga, to'lin oyga tikilib yotsa.

Bir qo'lida choynak, bir qo'lida tuxum qovurdoq ko'targan yangasi temir zinalardan chiqib keldi. Akmal qaddini rostlab o'tirdi. Yangasi non ushatdi, choy quydi.

Akmal ishtahasiz bir tarzda non kavsharkan, gapni nimadan boshlashni bilmay taraddudlanardi. Tayin gapki, Klara pulimiz yo'q degan, endi nima deydi? Xotinin sizni aldagan ekan, deydimi?

– Asqar katta bo'p qolgandir? – dedi u anchadan keyin. Yangasining yuziga tabassum yugurdi.

– Ha, besh bilan o'qiydi. Dastyor bo'p qoldi. – U bir lahma jimb qoldi-da, yana jilmaydi. – Bu yil Laylo ham maktabga boradi.

Akmal bahona topilganiga suyunib ketdi.

– Shunaqami? Qarang, darrov mакtabga boradigan qiz bo'lib qoldimi? – U hamon kulgancha asosiy maqsadga ko'chdi. – Layloga biron ta sovg'a olmoqchi bo'lib yuruvdim. Hali durustroq gaplasha olmadik. Klaraning xabari yo'q, bu-

gun men oylik oluvdim. – U cho‘ntagidan pul chiqarib, das-turxon chetiga qo‘ydi. – O‘zingiz bironta qishlik kiyim olib berarsiz, kelinoyi...

Akmal yolg‘on gapi-rayotganini, gaplari sun’iy chiqayot-ganini bilib to‘xtab qoldi.

Yangasi yarq etib uning yuziga qaradi.

– Rahmat, Akmalxon, – dedi yangasi ohista tovushda. Uning ovozida zarda ham, o‘kinch ham yo‘q edi. – Bolalarimning kiyimi yetarli, – dedi u dasturxon popugini o‘ynab. – Boshqa narsaga zarur bo‘lib qoluvdi... Bilasiz, indinga oyim vafot etgan kunlariga o‘n yil to‘ladi. Shunga uzoq-yaqin qarindoshlarni chaqirmoqchiydik. Ozroq yetmay turuvdi...

Akmal seskanib yangasiga qaradi-yu, haykalday qotib qoldi. Yangasi hamon dasturxon popugini o‘ynab o‘tirar, chamasi, hozir hamma narsani unutib, qaynana-sining xoti-rasini o‘ylar edi.

## UCH XIL ODAM

Bayram hamma yerda bir xil tantana qilinadi. Ammo hammayam bayramni bir xil nishonlayvermaydi...

Iskandar to‘rtinchı qavat derazasidan tashqarini tomosha qilib turardi. Kasalxona hovlisi gavjum. Ikki chetiga xo-naki archalar ekilgan yo‘lkadan ola xalat kiygan bemorlar, bashang kiyangan kishilar tinmay o‘tadi. Qayerdadir birinchi qavatda, televizor qo‘yilgan vestibulda bo‘lsa kerak, tanta-navor musiqa yangraydi. Ikki bino oralig‘idagi gulzor atrofiga qo‘yilgan skameykalar tirband. Hov chekkada, kasal-xona atrofini o‘ragan beton devor yonidagi bir tup yong‘oq soyasida, shundoq maysalar ustiga gazeta yozib er-xotin o‘tirishibdi. Erkakning egnida kasalxona xalati. Xotin atlas ko‘ylak kiyib olgan. To‘rt-besh yoshlardagi bolakay qip-qizil pufagini havoda silkigancha, ularning atrofida pildirab yuribdi. Er-xotin unga ko‘pda e’tibor berishmaydi ham: o‘zлari bilan ovora.

„Sog‘inishib qolgan bo‘lsa kerak, – deb o‘yladi Iskandar xayolan jilmayib. – Bugun shunaqa kun. Xotinlar eridan, er-lar xotinidan xabar oladi“.

Shu tobda u o‘zining yolg‘izligini, bugun ham, ertaga ham hech kim yo‘qlamasligini o‘ylab, ko‘ngli cho‘kdi. Holidan xabar oladigan xotini yo‘q. Bola-chaqasi yo‘q. Ota-onasiga esa kasalxonaga tushganini xabar qilgisi kelmadı. Nima ke-ragi bor, keksa odamlarni ovora qilib? Operatsiyaga yotishi kerakligini aytsa, battar vahimaga tushishadi. Dashnoboddan Toshkentga kelib ketish osonmi?

U noxush xayollarni quvish uchun ishxonadagi do'stlarini o'yladi. „To'lqin ham kelmadi. Kim biladi, balki, kecha navbatchilik qilgan bo'lsa, uyida uyquni urib yotgandir“. Navbatchilik qanaqa bo'lishini gazetachilar yaxshi bilishadi. Bitta harf o'zgarishi bilan „shahar“ „zahar“ga aylanib, baloga qolishing hech gapmas...

O'sha kecha Iskandar ham navbatchi edi. Yarim kechagacha sahifa o'qib qattiq toliqdi. Chanqab, muzdekkina sovuq choy ichganini biladi. Oshqozonida shu qadar qattiq og'riq turdiki, changak bo'lib qoldi. Tongotarga yaqin to'ppa-to'g'ri shu yerga olib kelishdi. Uning baxtiga professor Narimonov kasalxonada ekan. Iskandar ikki yilcha avval shifoxona haqida maqola yozgan, mana shu mashhur jarroh bilan ham suhbatlashgan edi... Tekshirib ko'rishsa, dard oshqozonda emas, o't xaltasida ekan. Xaltachadagi tosh siljisa, tiqilib qolib, yomon oqibatga olib kelishi mumkin ekan. „Parvo qilmang, – dedi professor, – bu – murakkab operatsiya emas. Ko'richakni kesgandek gap. Sizni o'zim „kesaman“.

Avvaliga palatada muttasil anqib turadigan dori hidi, operatsiyadan yangi chiqqan bemorlarning oh-vohiga ko'nikolmay yurdi-yu, keyin o'rganib qoldi. Endi o'zini ham „kesish“ga tayyorlab qo'yishdi...

Hozir bir ko'ngli pastga tushib, televizor ko'rgisi keldiyu, tag'in „aynidi“. Shu yerdan tashqarini kuzatishning o'zi tomosha emasmi?

Boyagi yong'oq ostida hamon er-xotin o'tirishar, xotin oldidagi sumkasidan tuxum olib, eriga archib berar, bolakay esa pufagini o'ynar edi. Yo'lakdan oq xalat kiygan uch hamshira o'tdi. Har qaysisining qo'lida shoda-shoda siren. Qizlar nima haqdadir qattiq-qattiq gaplashishar, xandon otib kulisshardi. „Bu yil siren ko'p bo'libdi, – deb o'yladi u qizlardan ko'z uzmay. – Redaksiya xonasida biqinib o'tirib gulniyam unutib yuboradi odam“.

Iskandar yana o'sha tomonga qaradi-yu, yo'lakdan birbiriga suyanib kelayotgan ikki yigitni ko'rди. Ularning biri mast bo'lsa kerak, ko'ksiga lolaqizg'aldoq bosgancha gandiraklab qadam tashlar, sherigi uni qo'ltiqlab olgan edi. „Shunaqa joygayam mast bo'lib keladimi!“ Iskandar ensasi qotib yuzini o'girdi. O'girdi-yu, birdan o'sha tomonga qaragancha seskanib ketdi. Yigitning ko'ksidagi lolaqizg'aldoq emas, qon edi. Uning oppoq ko'y lagi qizarib, yoqavayron bo'lib ketgandi. „Birov pichoq uribdi“, deb o'yladi Iskandar vujudi muzlab. Yigitlar bir-birini suyagan ko'yi deraza tagidan o'tib, bino tomon burilib ketdi. Iskandar yo'lakka shoshildi. Zinalardan yugurgudek bo'lib, birinchi qavatga – jarrohlik bo'li-mining qabulxonasiga keldi. Ostonasiga ho'l latta tashlangan ochiq eshik oldida to'xtab ichkariga razm soldi.

Boyagi oq ko'yakli yigitcha kushetkada ikki buklanib o'tirar, boshini changallab nuqul so'kinar edi. Iskandar birov pichoq uribdi, deb o'ylagani xato ekan. Bemorning boshidan oqqan qon ko'yagini qizartirganini endi ko'rди. Kalta yengli katak ko'yak kiygan og'aynisi esa nima qilarini bilmay ser-rayib turar, rangi o'chib ketgandi.

– Nega o'zidan o'zi senlarga butilka otadi!

Iskandar ichkariga mo'ralab, devor tagidagi stol qarshisida o'tirgan vrachni endi ko'rди. Bu – ko'zoynak taqib yuradigan rangsiz jarrohning familiyasi Olimboyev ekanini Iskandar bilib olgan, bemorlar undan negadir cho'chishini ko'rib hayron qolgan edi. O'zi yosh-u, negadir hamma undan qo'rqadi. Iskandar yana bemorga o'girilib qaradi-da, uning boshidan hamon qon oqayotganini payqadi.

– Bilmadim, – dedi katak ko'yakli yigit kipriklarini gunohkorona pirpiratib. – Ko'chada ketayotgandik. Birov avtobus derazasidan shisha otdi. Shisha Anvarning boshiga tegdi. – U gapini tasdiqlamoqchi bo'lganday bemorni barmog'i bilan ko'rsatib qo'ydi.

Anvar ko'zlarini vrachga qadab, boshini changallagancha yana so'kindi.

– Shunday qilib, shisha otdi degin? – Jarroh xotirjam o'tirgancha ko'zoynagini yiltillatib bemorga qarab qo'ydi. – Qiziq, – dedi ingichka barmoqlari bilan stolni chertib, – bitta shisha shuncha ish qildimi, a! Avval boshingga tegsa, keyin yoqangni yirtsa, ko'ylagingni dabdala qilsa. Qo'lli, oyoqli butilka ekan-da!

Anvar labini yana ham qattiqroq tishlab, yig'lab yubordi. U yelkalari silkinib baralla yig'lar, ovozi endi xasta bo'l-gani uchunmi, xunuk eshitilar edi. Katak ko'ylakli yigitcha esa nima qilishini bilmay, bir unga, bir vrachga qarab javadirardi.

– Xo'sh, sizga nima kerak? – dedi do'xtir birdan boshini burib. Iskandar beixtiyor ichkariga kirib qolganini, jarrohning ko'zoynak ortidagi tikandek o'tkir ko'zları o'ziga tikilib turganini endi payqadi.

– Nima, sizniyam butilka bilan urishdimi?

Iskandar uning ovozidagi zaharxandani sezib, achchig'i chiqди.

– Nega kalaka qilasiz? Ahvolini ko'rib turibsiz-ku, – dedi bemorga imo qilib. – Bir odam najot kutib tursa-yu, siz tergov qilsangiz? Qanaqa vrachsiz o'zi?!

– O'zingiz kimsiz? – Olimboyev shoshilmay o'midan turdi. Iskandar uning rangsiz yuzi yanada oqarib, qirra burni qisilib ketganini ko'rди. – Bu bola kimingiz bo'ladi? – dedi ko'zoynak ortidagi mitti ko'zları chaqnab. – Taniysizmi?

– Tanishim shartmi? – dedi Iskandar bo'g'ilib. – Kim bo'lsa ham odam-ku, axir! Bemor-ku!

– Marhamat qilib xonani bo'shatib qo'ying!

Iskandar daf'atan esankirab qoldi. Hech kimdan bunday qo'pol muomala eshitmagan edi.

– Menga qarang, – dedi ovozi titrab. „Bemorga hoziroq yordam ko'rsatmas ekansiz... Felyeton yozaman!“ demoqchi bo'ldi-yu, tilini tiydi. U hech qachon felyeton yozmagan, yozmoqchi ham emasdi. Ammo birovning dardiga tomoshabin

bo'lib turishni ham xohlamasdi. – Ketmayman! – dedi bo'-g'iq ovozda. – Najot kutib turgan odamni so'roq qilishga nima haqingiz bor? Prokuormisiz?

– Birovning ishiga aralashishga sizning nima haqingiz bor? – Olimboyev shunday deb bemorga yuzlandi. – O'l-maydi! Jarohati o'ladigan darajada emas. Birpas azobini tortsa, bezorilik qilmaydigan bo'ladi. Inqillamay o'tir, so'tak!

Iskandar qolishini ham, ketishini ham bilmay, ikkilanib turib qoldi. Do'xtirning buyrug'i bilan xonaga hamshira kirdi. Bemorning boshini tekshira boshladilar.

– O'n sakkizinchı palatada bitta joy bo'sh, – dedi Iskandar. – Yonimdagı cholga bugun javob tekkan.

Olimboyev ko'zoynak ortidan haliyam shu yerdamisan degandek istehzoli qarab qo'ydi.

– Joyingizga boring!

\* \* \*

Iskandar yig'i tovushidan uyg'onib ketdi. Boshini ko'tarib, Anvarning karavotida, oyoq tomonda o'tirgan xotinni ko'rdi.

Kecha Anvarni shu palataga olishganida „Mening gapim Olimboyevga ta'sir qipti-da“, deb o'ylagan edi Iskandar. Keyin bilsa, boshqa joy yo'qligi uchun yigitchani shu yerga kiritishgan, miyasi chayqalgan-chayqalmaganini aniqlash uchun ikki kunga olib qolishgan ekan.

Kechqurun ham mana shu chigirkadek ozg'in, qop-qora xotin Anvarning oldiga kelib ketgan edi. U tomirlari bo'r-tib ketgan ozg'in qo'llari bilan yuzini to'sgan ko'yi o'ksib-o'ksib yig'lar, o'g'lini koyir edi.

– Otangning kuydirgani yetmasmidi, juvonmarg! Endi sen bormiding, yergina yutgur! Ishlamasang, o'qimasang. Ajalning tig'i parroniga uchragur, otang topganini ichsa! Xah, peshanaginam qursin-a!

Iskandar uning ozg‘in yelkalariga, ingichka qo‘llariga qarab rahmi keldi. Balki, yagona umidi shu o‘g‘lidandir!

Anvar sallaga o‘xhatib bint bilan tang‘ib tashlangan boshini devor tomonga o‘girib yotar, indamas edi.

– Xah, peshanaginam qursin! – dedi ayol yana iztirob bilan.

Anvar yotgan joyida jerkib berdi:

– Ko‘p vaysayvermang!

Iskandar uh tortib o‘rnidan turdi. Ayol kaftini tushirdiyu, yoshli ko‘zlarini unga tikdi:

– Sizniyam uyg‘otib yubordikmi?

– Ziyoni yo‘q, – dedi Iskandar karavot tepasidagi sochiqni olib tashqariga chiqarkan.

Uning ketidan Anvarning onasi ham chiqdi. Uch-to‘rt qadam yurmasdan yetib olib, Iskandarning qo‘lidan ushladi.

– Nasihat qiling, o‘rgilay, – dedi muhim bir sirni aytayotganday pichirlab. – O‘rtoqlari o‘lgur yomon... Uchtaсини yerga qo‘yib, topgan bolam shu. Kechqurungi mактабда binoyiday o‘qib yuruvdi. Bozor-o‘charimni birpasda qilib keladi. Oyog‘idan o‘t chaqnaydi. Otasining ichishini maktabdagi o‘rtoqlari yuziga solgan ekan, o‘qishni tashlab ketdi... Shu odam bo‘lsin, deb o‘n yetti yildan beri ko‘cha supuraman. – Ayol yelkasiga tashlab olgan xalatining etagini qayirib, burnini artdi.

Iskandar birovning ko‘zyoshiga toqat qilolmasdi. Hozir ham tomog‘iga iliq bir narsa tiqilib, ko‘ngli cho‘kdi.

– Kuyinmang, xolajon, – dedi xo‘rsinib. – Anvar hali yosh. Yo‘lini topib ketadi.

– Esli yigit ko‘rinasiz, – ayol yana yig‘lamsiradi. – Nasihat qiling, Xudoyo baraka toping.

– Xo‘p, – dedi Iskandar yutinib. – Albatta, aytaman. Iloji bo‘lsa, o‘zim ishga joylab qo‘yaman...

Iskandar yuvinib kelganda, Anvar tumbochka ustida turgan stakandagi choyga qand solib, qoshiq bilan aylantirib o‘tirardi.

– Choy iching, – dedi u do'rillab.

„Yosh bola, – deb o'yladi Iskandar uning yonib turgan ko'zlariga, hali ustara tegmagan mo'yloviqa qarab. – Hali go'dak-ku, bu! Yo'lga solish kerak“.

– Rahmat.

U bir zum o'ylanib turdi-da, so'radi.

– Nega urishding?

– Qiz talashdik, – dedi Anvar hamon qoshiqni aylantirarkan, ahmoqlarcha iljayib.

Iskandar bu yoshdagি bolalarga nasihat yoqmasligini bilar, shuning uchun kechadan beri nima voqeа ro'y bergenini surishtirmagan edi.

– Qiz seni yaxshi ko'rsa, talashishning nima keragi bor! – dedi u iloji boricha tabiiy gapirishga urinib.

Anvar yana boyagiday iljaydi:

– Tanimayman o'zini!

– Tanimasang, nega talashasan?

– Iye, qiz bo'lgandan keyin talashadi-da.

– Endiyam talashsang, kaltakning bundan kattasini yeysan! – Iskandar uning boshidagi qon dog'i qotib qolgan „salla“ga imo qildi. – Bu safar oson qutulibsан!

– Menmi?! – Anvar tumbochkani shu qadar zarb bilan mushtladiki, tagida ozgina choy qolgan stakan zirillab ketdi. – Endi kaltakni boshqasi yeysi! Qonini ichaman!

\* \* \*

Iskandarni operatsiya stoliga yotqizishlari bilan tepasida Olimboyev paydo bo'ldi. Uning og'iz-burni doka niqob bilan to'silgan, faqat yiltirab turgan ko'zoynaginiн o'zi qolgandek edi. Iskandarning yuragida qo'rquv aralash shubha uyg'ondi. Uni professor Narimonov operatsiya qilishi kerak edi-ku!

Olimboyev uning ko'nglidan o'tganini sezgandek boshiga egildi.

– Domla sanaviatsiyada Navoiyga uchib ketdilar. Og‘ir kasal bor ekan. – So‘ng mitti ko‘zlar qisilib, kulimsiradi. – Qo‘rqmang, sizning operatsiyangiz murakkab emas. Uzog‘i bilan bir haftada oyoqqa turib ketasiz.

Iskandar taqdirga tan berishdan boshqa iloji qolmagani ni bilib, ko‘zini yumdi. Rostini aytganda, endi unga baribir edi.

– Bilasizmi, do‘stim, – dedi Olimboyev uning boshiga egilib. – Meditsina eng insonparvar kasb deyishadi. Ammo xirurgiyada shafqatni yig‘ishtirib qo‘yish kerak. Bo‘lmasa, jarrohning qo‘li qaltiraydigan bo‘lib qoladi... Gumanizm – sizlarning soha...

Bir necha lahzadan keyin shunday jimlik cho‘kdiki, Iskandar o‘z yuragining urishini o‘zi aniq eshitayotgandek bo‘ldi...

\* \* \*

Insonning doimiy hamrohi – xayol bo‘lmanida odam nihoyatda qashshoq bo‘lib qolarmidi... Iskandar oppoq shiftga muttasil tikilib yotgan uch kun mobaynida o‘sha beedad xayollar uni tark etmadni. Operatsiyadan keyin qornida paydo bo‘lgan og‘riq azob berganida ham, osma ukol tagida yotib, ikki kun tuz totmaganida ham o‘sha xayollar bilan ovundi. O‘zining qishloqdagi chorborg‘ida bo‘lgan to‘yini esladi. Har gal qishloqqa borsa, uning huzuriga iymanibgina chiqadigan, sog‘inib ketganini qulog‘iga shivirlab aytib, unsiz yig‘laydigan xotini Shohidaning rangpar, ammo ko‘rkam yuzi, quralay ko‘zlar tasavvurida jonlandi.

Iskandar uchinchi bosqichni bitirgandan keyin ota-onasi ko‘zimiz tirikligida ko‘rib qolaylik, deb uning to‘yini o‘tkazishgan edi. U Toshkentda yurganida hech kimni chandon yaxshi ko‘rmagani uchun qo‘shti qishloqning eng suluv qizi olib beramiz, deyishganida ko‘nib qo‘ya qolgandi. Avvaliga Shohidani yaxshi ko‘radimi, yo‘qmi, o‘zi ham bilmay

yurdi. Faqat xotini vafot etganidan keyin uni yaxshi ko'rishi-ni, jonidan ortiq sevishini his qildi.

Shohidaning yuragi tug‘ma „porok“ ekan. Doktorlar unga tug‘ishi mumkin emasligini aytishsa ham, Iskandardan yashirib yuraveribdi. Ona bo‘lishni xohlamaydigan ayol bormi? Ustiga-ustak, qishloq tug‘uruqxonasi.

...Iskandar uning azasiga yetib bordi. Ham suygan ayolidan, ham yulduz ko‘rmay jon bergan begunoh chaqaloqdan judo bo‘lish og‘ir ekan. Shundan keyin Iskandar qishlog‘iga qaytib bormadi. Yuqori bosqichda o‘qiyotganida amaliyotda qatnashgan gazeta tahririyatida eng „kichik“ lavozim – korrektor yordamchisi qilib ishga olishganiga rahmat dedi...

Daraxt bir yerda ko‘karishi rost ekan. Bora-bora gazetaning yetakchi xodimlaridan biriga aylandi. Jurnalistning qattiq noni, goho kecha-kunduz tinim bilmay ishlash unga yoqar, to‘g‘rirog‘i, yarasining eskirishiga yordam berayot-gandek edi...

Kecha hamkasblari ko‘rgani kelishganida o‘zining behalovat hunarini qattiq sog‘inganini his etdi. Erta-indin o‘ziga javob berishlarini, tag‘in ishga sho‘ng‘ib ketishini o‘ylab taskin topdi.

So‘ng Anvarga ishga kiritib qo‘yaman, degani esiga tu-shib, hamshiradan turar joyini yozib oldi. Bitta-bitta yurib hovliga chiqdi. Ikki chetiga archalar ekilgan yo‘lkadan ohista yurib ketdi.

Quyosh hali botmagan, ammo havo tund, ko‘ngilni g‘ash qiladigan bulutli oqshom edi. Hovlida odam siyrak, aftidan, yomg‘ir yog‘sа kerak, namxush shamol esib turardi. U yo‘l-kaning oxiriga borib, orqasiga burilgan edi, tanish ovozni eshitib to‘xtab qoldi.

– Qo‘y deyman, joyiga! – dedi o‘sha ovoz. Keyin qo‘pol qilib so‘kindi. – Qo‘y, bo‘lmasa abjag‘ingni chiqarib tashlayman, onangni...

Iskandar ovoz chiqqan tomonga – kasalxona devori yoni-

dagi yong'oq tagiga qaradi-yu, davra qurib o'tirgan bir to'da odamlarni ko'rdi. Yo'q, bular bemorlar emasdi. Iskandar sinchiklab qarab, maykachan bo'lib olgan Anvarni ko'rdi. U o'tirgan joyida yonidagi yigitning qizil ko'ylagiga yopishib olgan, yigit o'rnidan turmoqchi bo'lar, Anvar qo'yib yubormas edi.

„Qayoqdan kiribdi bular! – deb o'yladi Iskandar o'sha tomonga yurarkan. Keyin tushundi. – Devor oshib tushgan“.

U yetib borguncha qizil ko'ylakli yigit o'midan turdi. Anvar ham uning yoqasiga yopishgancha turib ketdi.

„Ahmoq! – deb o'yladi Iskandar ichida Anvarni koyib. – Yana janjal boshlayaptimi?“

U yaqin kelib, maysa ustida sochilib yotgan mayda-yirik aralash pullarni ko'rdi. Nariroqda ikkita araq shishasi dumalab yotar, davradagi to'rt erkak bamaylixotir sigaret tutatib, Anvar bilan qizil ko'ylakli yigitning janjalini kuzatar, ammo ajratib qo'yay deyishmasdi.

„Ablahlar, kap-katta odamlar yosh bolalarni urishtirib tomosha qilib o'tirsa!“

U qorni og'riy boshlaganiga qaramay, qadamini tezlatib keldi-da, Anvarning bilagidan ushladi.

– Qo'yvor! – dedi sekin, ammo qat'iy qilib.

Anvar yarq etib qaradi. Uning rangi o'chib ketgan, harsillar, ammo raqibini qo'yib yubormas edi. Qizil ko'ylakli novcha yigitning ham rangi gezarib ketgan, bir og'iz ham gapirmay yulqinar, Anvarning changalidan chiqmoqchi bo'-lar edi.

– Pulni yutib olib endi qochadimi? – qichqirdi Anvar tukuk sachratib.

– Qo'yib yubor! – dedi Iskandar qat'iy qilib. – Kim senga qimor o'ynasin dedi!

Iskandar bir qarashdayoq Anvarning ko'zlarida sovuq o't yonib ketganini sezdi. Lekin e'tibor bermadi. U hech qachon qimor o'ynamagan, poyezddami, boshqa joydami, shunday

davrani ko'rsa, chetlab o'tar, bu o'yinning qoidalarini ham, yovvoyi zavqini ham bilmas, tan olishni xohlamas ham edi. Yerda o'tirganlardan biri, mast bo'lsa kerak, qiyqirib kului.

– O'qituvching zo'r-ku, Anvar!

Anvar shuni kutib turganday Iskandarga o'shqirdi.

– Xo'jayinmisan menga?!

Iskandarga uning sensirashi alam qildi. Chigirtkaday ozg'in, qon qaqshab yig'layotgan ayol ko'z oldiga keldi-yu, yuragi ezilib ketdi.

– Kallang ishlaydimi, ahmoq! – dedi bo'g'ilib. – Nima deb kelishgandik sen bilan?!

Anvar hamon raqibiga yopishgan ko'yi xirilladi:

– Bor-r-re, onangni!..

Iskandar o'zini tutolmay qoldi. Anvarning yuziga tarsaki tushirdi. Sekin, ayab...

Kutilmaganda Anvar uning qorniga shu qadar zarb bilan musht tushirdiki, Iskandarning ko'zidan o't chaqnab ketgandek bo'ldi. Biqinida chidab bo'lmas og'riq uyg'onib, hamma yoqni zulmat qopladi-da, gursullab yerga yiqildi...

U ko'zini ochganida eng avval bir juft yaltiroq narsani ko'rди. Sinchiklab qarab, bu – bu ko'zoynak ekanini, boshida Olimboyev engashib turganini anglatdi. So'ng tag'in o'sha tanish jarrohlik stolida yotganini, atrofini oq libosli odamlar o'rab olganini ko'rди.

Olimboyevning yupqa lablari qimirlandi. Iskandarning hamon g'uvullab turgan qulog'iga uning ovozi uzoq-uzoqdan eshitilgandek bo'ldi.

– Xavf o'tdi... Qo'rqmang, do'stim, tuzalib ketasiz. Faqat bu gal ko'proq yotasiz... – Bir zum sukut saqlab, qo'shib qo'ydi. – Gumanizm yaxshi narsa... Faqat bilgan odamga...

## BAXT

Uch soatdan keyin yangi yil kiradi. Uch soatdan keyin Munira o'ttizga qadam qo'yadi. Bu safar ham u yangi yilni yolg'iz kutib olyapti. Unchalik ham yolg'iz emas. Narigi uyda jajji Nilufar uxlab yotibdi. Yaxshiyam baxtiga shu qa-qajon qizcha bor ekan. O'z onasidan Munirani yaxshi ko'radi. Ishdan kelishi bilan bo'yniga osiladi.

Bugun Munira singlisi bilan o'tirmoqchi edi. Bo'ljadi. Sayyoraning odati shu o'zi. Bir gapni aytishga aytib qo'yadi-da, oxirida aynib qoladi. Bolasi besh yoshga chiqibdi-yu, o'zi yosh bolaga o'xshaydi. Boya qizchasini bog'chadan olib keldi-da, Muniraga topshirib, ko'chaga yugurdi. Munira nima gapligini surishtirgan edi, zinadan qaytib chiqib, „Aynaniy o'zimning opajonimdan“, deb u yuzidan, bu yuzidan o'pdi-da, ketdi-qoldi.

Muniraning bir o'zi yana mung'ayib qolaverdi.

U sekin-sekin yurib, oshxonaga kirdi. Kosadagi guruchni shoshilmasdan yuva boshladи. Guruch yuziga qalqib chiqqan oppoq suvni to'karkan, negadir onasini esladi.

Munira yetti yoshidami, sakkizdam, opa-singil baravar ko'kyo'tal bo'lishgandi. O'shanda onasi unga guruch yuvilgan suvni ichirgani Muniraning esida qolgan. Guruch suvi allaqanday ko'pikli, bemaza edi. Munira-ku o'sha bemaza suvni uch-to'rt qultum ichdi-ya, Sayyora „lo'lilik“ qilib, hamma yoqni buzib yubordi. O'shanda oyisi „Senlarni odam qilguncha o'zim ado bo'laman“, deb yig'lagandi.

Umuman, oyisining chehrasi negadir hamisha ma'yus ko'rinar, ayvon burchagida turadigan oyoq mashinada ish tikayotganida ham, uy yig'ishtirayotganida ham boshini bir yonga tashlagancha xayolga cho'mib yurardi. U ish tikayotganida bir ashulani ko'p qaytarardi. Qayta-qayta eshitgani uchunmi, o'sha so'zlar Muniraning xayoliga muhrlanib qolgan:

*„Oh, urarman, oh urarman,  
Ohlarim tutgay sani,  
Ko'z yoshim daryo bo'lib,  
Baliqlari yutgay sani...“*

Munira mактабга qatnab, esini tanigandan keyin, onasi nima uchun „oh urgани“ni tushundi. U otasini es-es tanir, baland bo'yli, mo'ylovli bu odamga tuzuk-quruq mehr qo'yib ulgurgan ham emasdi. Sayyora tug'ilganidan keyin ko'p o'tmay otasi qayoqqadir g'oyib bo'ldi. Munira bu „sir-sinoatni“ ham keyin, esini taniganda tushundi: otasi ularni tashlab ketgan ekan. U bir narsani – onasiga ko'maklashishi zarurligini juda erta tushundi. Oltinchi sinfda o'qiyotganida oyoq mashinada ish tikishni o'rgandi. Sakkizinchи sinfni bitirganidan keyin Oloy bozori biqinidagi tikuvchilik atel-yesiga ishga kirdi.

...Qozon qattiq-qattiq qaynab, Muniraning xayoli bo'lindi. U guruch soldi-da, oshxona derazasini qiya ochdi. Musaffo qor havosi yopirilib kirdi. Deraza ortidagi daraxt-larning shoxi qordan ishkomdek egilib ketgan. Bu ham kamlik qilgandek, oq ukparlar to'zib yotgan pastak osmondan momiq zarralar yog'ilaveradi, yog'ilaveradi. Go'yo butun tabiat yangi tug'ilgan chaqalog'-u, samo uni pokiza yo'rgakka o'rayotgandek. Ro'paradagi to'rt qavatli uy derazalarida chiroqlar mash'ala bo'lib yotibdi. Shodon kuy yangraydi.

Ha, bugun bayram... Munira suvini tortgan guruch us-tiga tovoq yoparkan, sekin xo'rsinib qo'ydi. Bugun bayram,

yangi yil kiryapti. U ohista yurib yotoqqa kirdi. Nilufar sochlari to'zigancha uxbab yotar, peshanasini terlab ketgandi. Munira qizchaning peshanasini kafti bilan ohista artarkan, jilmayib qo'ydi. „Shayton-ey! Hali qo'shni bolalar bilan rosa chana uchdi. Sovuq elitgan“. Shu ondayoq u archa chiroqlarini yoqishi kerakligini esladi-yu, ildam o'rnidan turdi.

Qaysi kuni archani bezatishayotganida Nilufar hadeb, chiroq'ini yoqib bering, deb xarxasha qilgan, o'shanda Munira, yangi yil kechasi archanining chiroq'ini qorbobo yoqib beradi, deb ishontirgan edi.

U tez-tez yurib mehmonxonaga kirdi-da, chiroq marjoni ulangan simni tokka tiqdi. Shu ondayoq qizil, yashil, sariq, yana ko'pdan ko'p anvoyi rangdagi jajji chiroqlar yondi-yu, xona birdaniga allanechuk sukutbaxsh, munis bo'lib qoldi. Munira sehrlanib qolgandek archa ro'parasida bir zum qotib turdi. Keyin divanga borib o'tirdi. Ancha o'tirdi. Tashqarida hamon kuy sadolari yangrar, deraza ortidan o'tayotgan odamlar shodon shovqin solishar, qah-qah urib kulishar, bularning hammasi ichkaridagi, mana shu xonadagi sukunatni, tanholikni yanayam chuqurlashtirayotganga o'xshardi. Qiziq, bunaqa kunda, bayram kunida yolg'iz qolsang, g'alati bo'larkan. Go'yo butun dunyo bir taraf-u, yolg'iz o'zing bir taraf.

Munira olti yildan buyon yangi yilni bir o'zi kutadi. Har gal xuddi shunaqa ahvolga tushadi. Butun dunyo bir taraf-u, yolg'iz o'zi bir taraf. To'g'ri, u ham shu paytda eri bilan, bola-chaqalari bilan gavjum bir uyda o'tirishi mumkin edi. Bo'lmadi... Hayot shunaqa ekan. Inson hamma orzusiga bir yo'la yetavermas ekan...

Zokirjon yaxshi yigit edi. Qaddi-qomati kelishgan, og'irvazmin... Ular Zokirjonning „Marshrutka“sida tanishgan edilar. Munira har kuni marshrut taksida uyiga qaytar edi. Zokirjon shu mashinani haydardi. Bir-birlariga yulduzlarini to'g'ri kelib qoldimi, yo Muniraning o'zi ko'hlikmidi, xul-

las, „shofyor yigit“ unga tinchlik bermadi. Uyidan chiqsa, ko'cha boshida kutadi. Ishdan qaytayotganda atelye ro-parasidagi bekatda mashinasi bilan poyleydi. Muniraning g'ashi kelgandek bo'ladi-yu, ammo „shofyor yigit“ yo'lini poylab turishini juda-juda xohlaydi...

Munira endi bilsa, o'sha kunlar hayotining eng shirin damlari ekan. Kimningdir intiqlik bilan senga talpinib turganini his etishdan kattaroq baxt yo'q ekan.

Ha, Munira baxtiyor edi. Ammo baxt bilan baxtsizlik doim yetaklashib yuradi. To'satdan onasi o'lib qoldi. Yurak dardi tutdi-yu, „Tezyordam“ mashinasi yetib kelguncha tamom bo'ldi. Faqat bir og'iz so'z aytdi: „Singlingni xo'rlama, bolam. Otasi yo'q edi. Endi men ham yo'qman, senga topshirdim...“

Munira onasining ruhi oldida Sayyorani yetim qilib qo'ymaslikka qasam ichdi. Bitta irmoq to'xtab qolgani bilan daryo suvi qurimaydi. Hayot o'z yo'lidan ketaverdi. Oy o'tdi, yil o'tdi, bir kuni Zokirjon dardini aytdi.

– To'yni tezlashtirmasak bo'lmaydi. Uydagilar qo'ymayapti.

Munira ikki yo'l orasida qoldi. Sayyorani tashlab qayoqqa boradi? O'n olti yashar qizaloqning taqdiri nima bo'ladi?

Munira rostini aytdi.

– Singlim hali o'zini eplay olmaydi. Men oyimlarga va'da bergenman.

Oradan yana oy o'tdi, yana yil o'tdi. Ular hamon bir-birlariga talpinishar, ammo endi Muniraning ko'nglida qandaydir mavhum xavotir bor edi. Zokirjon bilan ko'rishganida negadir ko'ngli bir nimani sezayotgandek zirqillab turardi.

Bu orada Sayyora maktabni bitirdi. Zokirjon o'sha taklifini yana qaytardi. Munira yana rostini aytdi.

– Singlim Politexnika institutiga imtihon topshirmoqchi, kirib olsin-chi...

– Keyin-chi? – dedi Zokirjon qandaydir begona shiddat bilan. – Keyin nima bo'ladi?

– Keyin... – Munira tutilib qoldi. Keyin nima bo‘lishini o‘zi ham bilmasdi. Baribir, Sayyoraning qismati bir yoqlik bo‘lmaquncha tinchiy olmasligiga aqli yetib turardi. – Axir, siznikiga singlimni ergashtirib borolmayman-ku, – dedi Zokirjonga termilib.

U Zokirjonning jahli chiqqanini hech ko‘rmagan edi. Shu kuni ko‘rdi.

– Nima, siz men bilan yashaysizmi, singlingiz bilanmi? Singlingiz siz uchun yashamasa kerak, axir?

– Nima qilay? – Munira yerga qaradi. – Boshqa ilojim yo‘q.

– Mening ham boshqa ilojim yo‘q. Men sizga ichkuyov bo‘lолmayman. Yoshim o‘ttizdan oshdi. Shuncha yil uylanmay yurib, malomatga qolganim ham yetadi.

Munira yarq etib qaradi-da, Zokirjonning ko‘zlarida, o‘zi uchun qadrdon bo‘lib qolgan, kechalari tushiga kirib chiqadigan oqil ko‘zlarida g‘azab olovini ko‘rdi. Ko‘rdi-yu, ko‘ngli bo‘m-bo‘sh bo‘lib qoldi.

– Men sizning qo‘lingizni ushlayotganim yo‘q. Yo‘lingiz ochiq.

Tamom. U kechalari singlisiga bildirmay, ko‘rpaga burkanib yig‘lasa ham, Zokirjoni olisdan ko‘rganida yuragi ko‘ksidan otilib ketgudek bo‘lsa ham, tutqich bermadi unga. Kech kuzda uning to‘yi bo‘lganini eshitdi. Munira esdan og‘ib qolsam kerak, deb o‘ylagan edi. Yo‘q, odam chidar ekan. Munira chidadi. U Zokirjoni ayblay olmasdi.

Sayyora o‘qishga kirdi. Ajab, Zokirjon rost aytgan ekan. Singlisi Munira uchun yashamasligini isbot qildi. Erta bahorda Munirani quchoqlab yig‘ladi:

– To‘y qilmasak bo‘lmaydi. Tushunyapsizmi, opajon, bo‘lmaydi.

Munira tushundi. To‘y qilmasa bo‘lmasligini, Sayyoraning o‘zi uchun ham, paxta terimida hasharga borishganida uni yaxshi ko‘rib qolgan uchinchi kurs talabasi uchun ham yomon bo‘lishini tushundi. O‘zi ne umidlar bilan yig‘ib

qo'ygan seplarining hammasini singlisiga berdi. Ataylab Zokirjon bilan borib olishgan uzugini ham, „otpuska“ haqiga olgan gilamini ham, kassa o'ynab yig'gan puliga xarid qilgan chinni servizlarini ham – hammasini... Onasining ruhi shod bo'lishini, singlisi baxtini topganini o'ylab quvondi. Yelib-yugurib xizmat qildi. Faqat kuyovjo'ralar qars-bada-bang qiyqiriq bilan eshikdan kirib kelishganida, „To'ylar muborak“ni aytishganida nuqlu xayoliga Zokirjon kelaverdi. Chidab turolmadi: ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi.

Singlisini uzatganidan keyin u qandaydir o'ychan, odamovi bo'lib qoldi. O'tirishlarga borsa, dugonalari zim-dan bir-biriga imlayotgandek bo'ladi. Unga shirin muomala qilishsa, ko'ngli yarimligi uchun yetim boladek yupatisha-yotganga o'xshaydi. U ishdan yupanch topdi. Butun mehnini ishiga berdi. G'ayrati, halol mehnati bilan obro' topdi. Faqat ko'nglining bir chekkasi bo'm-bo'sh. Go'yo Zokirjon Muniraning ko'ngliga nomini o'yib yozgan-u, o'zi g'oyib bo'lgan. O'zi bo'lmasa ham, nomi o'sha o'yilgan joyga har kuni, hech qursa, bir marta nashtar sanchib qo'yadi.

...Bu yoqda singlisi tag'in bir „ishkal orttirdi“: shosh-qalоq bodomga o'xhab „erta gullab qo'yib, sovuq urib ketgan“ qizlarning qismati shunaqa bo'ladi o'zi. Uchinchi bosqichda o'qiyotganida (qizalog'i ikki yoshda edi) Sayyora yig'lab keldi. Eri o'qishni bitiribdi. Qishlog'iga olib ket-moqchi emish. „Opketsa, juda yaxshi, – dedi Munira. – Er qayerda bo'lsa, xotin shu yerda bo'ladi-da!“ „Erim o'lsin, – dedi singlisi bobillab, – u yoqdayam xotini bor ekan! Menga bildirmagan ekan, o'qishdan haydalib ketmaslik uchun men-ga uylangan ekan, xohlasang, shu – ikkinchi xotin bo'lib turaverasan, xohlamasang – katta ko'cha, deyapti!“

O'sha kuni Munira singlisini birinchi marta tarsakilab yubordi. O'zi urib, o'zi yig'ladi... Shu kecha onasi tushi-ga kiribdi. Oyisi negadir nuqlu uning boshini silar emish. Qo'llari yumshoq, issiq emish...

...Shundoq bo'ldi. Sayyora „ikki latta, bir sochig'i“ni ko'tarib qaytib keldi. Qiziq, turmushi buzilganiga chandon kuyunmadi ham. O'qishni bitirib, ishga kirib ketdi. Munira mana shu qizaloqqa – Nilufarga bog'lanib qoldi. Qaqajon ham o'zining onasi qolib, Muniraga yopishadi. Ayajon, deydi eshikdan kira solib, bo'yniga osiladi. Shunaqa paytlarda Munira o'zining ham baxti ochilishi, go'dak isidan mast bo'lishini tasavvur qilib, entikib ketadi. Qiziq, har gal yangi yil kirayotganda shuni o'ylaydi...

Kim bilsin, balki, o'sha baxt endi kirib kelar. Ana, soat zangi o'n marta vazmin jarangladi. Demak, ikki soat qopti.

Nilufar uyg'ondi, shekilli, karavotchasining g'ichirlaganı eshitildi. Zum o'tmay, eshik unsiz ochildi-da, sochlari to'zg'ib ketgan qizaloq ko'zini ishqlab chiqdi. Burchakka, archa tomonga qaradi-yu, birdan qichqirib yubordi:

– Voy, qorbobo keldimi, aya?

Munira kulib yubordi.

– Keldi.

– Archaning chirog'ini yoqdimi?

– Ko'ryapsan-ku, qorbobo kelib, archaning chirog'ini yoqib ketdi. Nilu uyg'onib suyunsin, dedi. – Munira qizaloqning qo'lidan tutdi. – Yur endi, yuvinamiz, osh suzamiz.

Nilufar uch-to'rt qadam yurdi-da, to'xtab qoldi.

– Sizga-chi, – dedi to'satdan. – Sizga nima opkeldi qorbobo?

– Mengami... – Munira o'ylanib qoldi. – Menga... Baxt olib keldi.

Birdan Nilufarning labi cho'chhaydi.

– Nega meni uyg'otmadingiz?

Munira qizaloqning astoydil xafa bo'lganini ko'rib, quchoqladi.

– Nimaydi?

– Qorboboden menam baxt so'rardim.

Munira kulib yubordi.

— Voy, puchug‘-ey, sen nima qilasan baxtni?  
— Sizga beraman! — Qizaloq ko‘zlarini katta-katta ochib,  
ta’kidladi. — Keyin-chi, sizda-chi, ko‘-o‘-o‘p baxt bo‘ladi!

Muniraning yuragi qalqib ketdi. Qizchani bag‘riga bosib,  
u yuzidan-bu yuzidan o‘parkan, ko‘zlaridan tirqirab yosh  
chiqib ketdi. Shu alpozda uzoq o‘tirdi. Unsiz yig‘ladi. Bu —  
quvonch yoshlarmidi, o‘kinchmi, o‘zi bilmasdi...

Ostonada esa yangi yil eshik qoqib turar, yaxshi niyatli  
kishilarga baxt ulashadigan, norasida go‘daklarning niyatini  
mustajob qiladigan yangi yil kirib kelmoqda edi...

1977

## **UMR SAVDOSI**

Xurshida ishdan kelsa, Qumri xola ayvon o'rtasida cho'kkalab olgancha ko'rpa qavib o'tiribdi. Enkayib olgani uchunmi, mushtdek gavdasi yanayam kichrayib qolganga o'xshaydi. Xurshidaning onasiga rahmi keldi. Bechoraga qiyin. Bir yildirki, To'lqinjonni uylantirish tashvishida. To'y qilish osonmi? Goh unisi yetishmaydi, goh bunisi.

– Bo'ldi endi, oyi, charchab qolasiz, – dedi Xurshida sumkasini ayvon burchagidagi stulga qo'yib. – To'y ertaga boshlanayotgani yo'q-ku!

Qumri xola boshini ko'tardi. Oyoqlari uvushib qolgan ekan, og'riqdan yuzi burishib tizzalarini uqaladi.

– Ko'nglim g'ash, bolam, – dedi to'satdan.

Xurshida tushunmadi.

– Nima bo'ldi?

– Ertalab borsam, darvozasi taqa-taq yopiq. Avval oq-shomdan yotib olib, kech peshingacha uxlaydi, shekilli, bular.

Xurshida kulib yubormaslik uchun teskari qaradi. Kam-piri tushmagur-ey! Bundan chiqdi, xo'roz qichqirmasdan quda bo'lmishnikiga borgan. O'zining kallayi saharlab borgani bilinmaydi-yu, aybni qudalarga ag'daryapti. Nuqlul yulduzi chap kelyapti-da shular bilan!

– Qiz bola degan kun yoyilguncha yotmaydi, yalpayib!!! – Qumri xola pisanda qildi. – Darvozasining oldi supurilmagan...

Qumri xolaning odati shu. Saharlab turib oladi. Xurshida esini tanishi bilan uniyam shunga o'rgatgan. „Qiz bola uy jig'adek taxt bo'lishi kerak, uyat bo'ladi“, deb azonlab hovli supurtiradi.

– Kelinning akasi icharkan. Uniyam eshitdim! – dedi Qumri xola hamon o'sha tajang ohangda. – Otasiniyam og'zi shaloq, deyishyapti.

Onasining keyingi da'vosi Xurshidaga yoqmadı. O'ziku: „Uylanasanmi, yo'qmi? Tanlaganiningni ayt“, deb To'l-qinjonnı holi-joniga qo'ymadi. Oxiri To'lqinjon yoqtirgan qizini aytdi. Qumri xola uch-to'rt marta sovchilikka borib „oq o'rabi“ keldi. Ammo negadir keyin aynib qoldi. Goh kelinni dangasa deydi, goh quda xolani ezma deydi. Mana, endi akasining ichishi bahona bo'lib turibdi.

– Kelin ham icharkanmi, oyi, bir so'ramabsiz-da, – dedi Xurshida achitib.

Qumri xola ip qatimini shaxt bilan tortarkan, Xurshidaga chaqchayib qaradi.

– Tappi tappidan uzoqqa tushmaydi, bildingmi?

– Bizlar ham oppoq emasmiz-ku, oyi! – dedi Xurshida. – Quda tomon surishtirsa, bizlardan ham ayb topar. Mana, men... – U bir zum jim qoldi-yu, xayoliga kelgan gapni qaytarmadi: – Meniyam turmushim buzilgan. Ular ham surishtirib yurgandir. Kuyovning opasi nega erdan chiqqan, deb. Gapni kovlasa gap chiqaveradi-da!

Qumri xola to'satdan mung'ayib qoldi.

– Sening turmushing buzilgan bo'lsa... Shu ish shunaqa bo'lganiga... O'zing sababchisan... Endi To'lqinning turmushi shunaqa bo'lmasin, deyman-da, bolam.

Onasining birdan bo'shashib qolishi, taskin ohangida gapirishi Xurshidaga og'ir botdi. Dushmaning tosh bilan urgani nima-yu, do'sting paxta otgani nima? Yo'q, onasi ta'na qilayotgani yo'q. Achinib gapiryapti. Shunaqa-yu, baribir, qalampirni shakarga botirib yegan bilan shirin bo'lib qolmaydi-da.

Xurshida siltab-siltab igna tortayotgan onasiga bir zum qarab turdi-da, indamay ichkariga kirib ketdi. Shu tobda u oyisi ketidan mo'ltirab qarab qolganini his qilar, his qilgan sayin yuragi ezilardi.

Qiz bola bo'yiga yetganidan keyin g'alati bo'larkan. O'z uyingda ota-onang bag'rida turasan-u, baribir, bu xonadon ertami-indin senga begona bo'lib qoladigandek, go'yo, al-batta, qandaydir o'zgarish bo'lishi shartdek tuyulaveradi.

Xurshida, ayniqsa, sovchilar kelganida buni chuqur his qilar, shuning uchun eshikdan uzun-qisqa bo'lib kirib keelayotgan xotinlarni ko'rsa, allaqanday begonasirab turardi. Bora-bora ularni ko'rsa g'ashi keladigan bo'ldi. Qumri xola bo'lsa, sovchilar bilan ochilib-sochilib so'rashar, kuyov bo'l mishni ipidan ignasigacha surishtirardi. Sovchilar ketgandan keyin Xurshidaga nasihat qilardi:

– Qizlik uy – bozor, bolam! Shoh ham keladi, gado ham. Boshingda otang bo'lmasa. Munosib joyingni topgin, deyman-da, qizim.

Xurshida tutaqib ketardi:

– Hech qanaqa bozor-pozorni bilmayman, tushundi-nizmi? Menga dallol kerakmas.

Shunday derdi-yu, hayotida qandaydir o'zgarish ro'y berishini kutib yurardi. Bu o'zgarish to'rtinchi iyun kuni bo'ldi. Shu kuni u o'n to'qqiz yoshga to'lgan edi. Kechqurun atelyeda birga ishlaydigan dugonalarini uyga chaqirmoqchi bo'ldi. Bozorga tushdi. Chillaki, gilos, yangi pomidor xarid qilguncha kun qizib ketdi. Bir qo'lida sumka, bir qo'lida to'rxalta ko'tarib bekatga keldi. Aksiga olib avtobus ham kelavermadi. Bir mahal qizil luks „Jiguli“ osoyish-ta silkinib Xurshidadan xiyol nariroqda to'xtadi. Xurshida qo'l ko'tarmagani uchun ham e'tibor bermadi. Lekin o'sha tomondan ovoz keldi:

– Qayoqqa borasiz, singlim?

Birozdan keyin boyagi savol yana qaytarildi:

– Sizga aytayapman.

Shundagina Xurshida bu gap o'ziga tegishli ekanini bilib, burilib qaradi. Mashinasining rangiga mos – qizil vodolazka kiyib olgan yigit bir oyog'i ichkarida, bir oyog'i yerda, shu tomonga qarab turardi.

– Qayoqqa borasiz? – dedi u yana.

Xurshida „sobstvenniy“ mashinaga o'tirishni umuman xushlamasdi. Hozir ham chimirilib:

– Hech qayoqqa! – dedi-yu, teskari qarab oldi. U motorning guvullashini, mashina jo'nab ketishini kutib turardi. Chindan ham eshik qarsillab yopildi. Ammo motor gurullamadi. Boyagi yigit uning ro'parasida paydo bo'ldi.

– Qo'lingizda yuelingiz ko'p ekan, – dedi Xurshidaga jiddiy tikilib.

Xurshida uning silliq taralgan sochlariga, chimirilib turgan qoshiga bir lahza qaradi-yu, ko'zini olib qochdi:

– Qancha so'raysiz?

Yigit kulib yubordi:

– Savob ham kerak-ku odamga!

– Unaqa bo'lsa o'tirmayman.

Yigit yana kulib, uning sumkasiga qo'l cho'zdi:

– Bo'pti, benzin haqini berarsiz.

Xurshida mashinaning parolon g'ilof qoplangan orqa o'rindig'iga o'tirarkan, yigit so'radi:

– Qayoqqa hayday?

– Ko'kchaga!

Xurshida endi uyg'a yetguncha bir og'iz ham gapirmslikka ahd qildi.

Anchagacha indamay ketishdi. Xurshida yigitning ro'paradagi oynachadan o'ziga qarab qo'yayotganini his qilar, shuning uchun ko'chalarni tomosha qilib borar edi.

– Issiqqa qolib ketibsiz? – dedi yigit orqaga burilib. Xurshida mo'ylov qo'ygan yigitlarni yomon ko'rardi. Ammo haydovchining mo'ylovi o'ziga juda yarashib tushganini

ichidan tan oldi. Indamay ketaverdi. – Issiqqa qolib ketibsiz, deyman? – Yigit yana savolini qaytardi.

– Shundoq bo‘ldi! Endi otimni so‘rang! Qayerda o‘qishimni so‘rang! Iloji bo‘lsa, yigitim bor-yo‘qligini ham bilib oling! – Xurshida bu gaplarni shu qadar jahl bilan bidir-bidir qilib aytib tashladiki, o‘ziyam hayron qoldi.

Yigit bunaqa zarbani kutmagan bo‘lsa kerak, anchagacha jimb qoldi. Keyin orqasiga qaramasdan sekingina gapirdi:

– O‘zining tug‘ilgan kunida o‘zi bozor qilgan odamni birinchi ko‘rishim.

Endi Xurshida esankirab qoldi. Xuddi uning yuzini yax-shiroq ko‘rib olgisi kelgandek oldinga egildi.

– Siz... qayoqdan bilasiz? – dedi ko‘zlarini pirpiratib.

– Men hamma narsani bilaman! Telepatman. – Yigit orqasiga qarab jilmaydi. Shunda Xurshida uning mo‘ylovi o‘ziga yarashganini yana bir bor his etdi-yu, xayoliga kelgan fikrdan uyalib, ko‘zini olib qochdi. – Siz hech nimani ayt-may qo‘ya qoling, – dedi yigit hamon jilmayib. – Otingizni ham, bugun necha yoshta to‘lganiningizni ham, hammasini bilaman. Siz bo‘lsa meni bilmaysiz. Shuyam insofdanmi? Keling, siz ham meni tanib oling. Otim – Anvar...

Xurshida qarasa, gap gap bilan-u, mashina boshqa yoqqa burilib ketyapti.

– Ko‘kcha u yoqdamas, – dedi u ovozini balandlatib. – Yo yo‘lni bilmaysizmi?

– Bilaman! Bir minutga!

Zum o‘tmay mashina pastak, oynaband magazin ro‘parasida to‘xtadi. Anvar ko‘cha chetidagi sement ariqchadan hatlab o‘tdi-da, magazinga kirib ketdi. Xurshida o‘tiraverishini ham, tushib ketishini ham bilmay turgan edi, Anvar ichkaridan bir savat gul ko‘tarib chiqdi. Xurshida shundagini bu gul magazini ekanini bildi.

Anvar negadir orqa eshikni ochib, savatdagи gulni shundoqqina Xurshidaning oyog‘i tagiga qo‘ydi.

– Nima qilyapsiz? – dedi Xurshida oyog‘ini nari surib.  
 – Tug‘ilgan kuningiz bilan chin qalbimdan tabriklayman.  
 Illoyo, baxtli bo‘ling! – Anvar qo‘lini shunaqa qoyilmaqom  
 qilib ko‘ksiga qo‘ydiki, Xurshida kulib yubordi:

- Artistmisiz, nima balo?
- Artist bo‘lsam, jon derdim. Epolmayman. Aspirantman.

Anvar rulga o‘tirdi-yu, mashinani g‘izillatib haydab ketdi. Qiziq, endi u Xurshidalarning ko‘chasiga yetguncha bir og‘iz ham gapirmadi. Faqat Xurshidaning yuklarini, savat-dagi gulni tushirayotganda sekkingina: „Yaxshi dam oling-lar“, deb qo‘ydi.

Xurshida hech qachon tug‘ilgan kunini bunchalik xush-chaqchaq nishonlamagan edi. Qizlar bilan rosa o‘ynashdi, yarim kechagacha xursandchilik qilishdi. U ora-chora negadir Anvarni eslab qo‘yar, ammo o‘sha zahoti uni xayolidan haydashga urinardi. „Yaxshi yigit ekan. Odamgarchiligi bor ekan. Shu bilan nima bo‘pti? Endi qaytib ko‘rishamizmi, yo‘qmi? Ko‘chada uchragan bir odam-da!“

Shunaqa deb o‘ylardi-yu, baribir, ko‘nglida noaniq umidga o‘xshash bir narsa aylanaverardi. Kechasi mehmonlarni kuzatayotganida xuddi o‘sha mashina yana kelib qoladigan-dek beixtiyor atrofga alangladi. Ertasiga, indiniga, ko‘chalar-da yurganida ham qizil „Jiguli“ ko‘rinsa, burilib qaraydigan bo‘ldi. Oradan bir haftami, o‘n kunmi o‘tdi. U endi Anvarni xayolidan chiqara boshlaganida yana ko‘rishib qolishdi.

Xurshida uzoqdan kelayotgan qizil „Jigulini“ ko‘rdi-yu, negadir yuragi jiz etdi. Mashina uning ro‘parasiga kelib to‘xtadi.

– O‘qishga ketyapsizmi? – Anvar o‘tirgan joyida cho‘zilib eshikni ochdi. Xurshida ikkilanib orqa o‘rindiqqa o‘ti-rarkan, unga qarab qo‘ydi.

– O‘qishga kirolmaganman, ishlayman, e’tiboringiz uchun! – dedi ta‘kidlab. – Men to‘g‘rimda hamma ma’lumot-ga ega odam shuniyam bilmaysizmi?

Anvar kului:

- Ochig‘ini aytsam, otingizniyam bilmayman.
- Qiziq bo‘ldi-ku! – Xurshida yelka qisdi. – Bo‘lmasa, tug‘ilgan kunimni qayoqdan bildingiz?
- Ko‘zingizdan! – Anvar jilmaydi... – Qalay, ziyofat yaxshi o‘tdimi?

Xurshida indamay bosh silkidi.

- O‘sha kuni sizning baxtingiz uchun men ham ichdim.
- Yolg‘on! – Xurshida qo‘l siltadi.
- Yolg‘on gapirsam, yorilib o‘lay!

Xurshida kulib yubordi.

- Qo‘ying, hali bola-chaqangizga kerak bo‘lasiz.
- Shunaqami, a? Ayta qoling, sizga judayam kerakmanmi?

Xurshida gap suyuqlashib ketayotganligidan g‘ashi keldi-yu, ammo shunga yaqinroq mavzu davom etishini baribir xohlardi. Shuning uchun indamay qo‘ya qoldi.

Ertasiga Anvar uning ishdan chiqishini poylab turdi. O‘zining ishxonasiga olib bordi. Kibernetika bo‘yicha ilmiy ish qilayotgan ekan. Hozircha laboratoriyada kichik ilmiy xodim bo‘lib ishlarkan. Xurshida allaqanday chizmlar, yaltiroq apparatlar bilan to‘la nim qorong‘i xonaga kirib qoldi.

– Bizning ishimiz suratlar bilan bog‘liq, – deb tushuntirdi Anvar. – Xohlasangiz, sizniyam suratga tushiraman...

O‘sha kundan boshlab u Anvarning laboratoriyasiga tez-tez borib turadigan bo‘ldi. Laboratoriyaning yarim qorong‘iligi ham, turli vaziyatlarda suratga tushish ham endi uni cho‘chitmas edi.

Uyda bo‘lsa sovchilar bozori qaynar, Qumri xola har kuni yangi gap topib qo‘yardi. Kuyov bo‘lmishning biri za-vuch emish, yana biri „pekar niy“da ishlarkan, „Matatsikli“ bormish. Tag‘in bittasi „perevodniylik“ qilarkan. Moskva-dan gilam olib kelarkan.

...Bir kuni Xurshida onasining ro'parasiga o'tirib oldi-da, ochiq-oydin qilib aytib qo'ya qoldi:

– Qing'ir-qiyshiq sovchilaringizga aytib qo'ying, oyi! Mening tanlaganim bor. Eskilik sarqitidan qachon qutulasiz?

Onasi Xurshida kutgandek sapchib tushmadi. Faqat so'-radi:

– Kim o'zi u? Qanaqa odam?

– Yaxshi odam. Aspirant. Yaqinda olim bo'ladi. – Onasi birovning matatsiklini gapirgani uchun Xurshida ham ataylab qo'shib qo'ydi: – Mashinasi bor, „Jiguli“.

Ertasiga u uyiga sovchilar ko'p kelayotganini gap orasida qistirib qo'ydi. Anvar odatdagidek masalani ko'ndalang qo'ydi:

– Bo'pti, ertagayoq ZAGSga ariza topshiramiz.

Hamma ish ko'ngildagidek ketayotganida Qumri xolanning qaysarligi tutib qoldi. Ikkala oyog'ini bir etikka tiqib turib oldi.

– Mening ko'chada qolgan qizim yo'q! Uylanadigan odam besh-olti marta sovchi yuboradi, odam qo'yadi. Otini bilmasam, zotini bilmasam. Yo'q, bo'lmaydi!

Xurshidaning bir kulgisi kelar, bir jahli chiqardi.

– Nimaga tushunmaysiz, oyi? Besh marta sovchi yuborish degan qonun qayerda yozilgan? Anvar aka Qashqadaryodan kelgan. Ota-onasi yoshlidiga o'lib ketgan ekan. Dallolning nima keragi bor?

– Ota-onasi bo'lmasa, qarindosh-urug'i bordir, ishxonasini, xo'jayinlari bordir. O'zim boraman.

Xurshida kului:

– Ishxonasiga borganingiz bilan siz nimani tushunardингиз? Kibernetikaga aqlingiz yetadimi? O'zim ming marta borganman ishxonasiga, bildingizmi!

Qumri xola baribir bo'sh kelmadi:

– Sen echki emassanki, duch kelgan odamga yetaklatib yuborsam. Bo'lmaydi.

- Balki, hali qalin ham so‘rarsiz?
- Tag-taxtini surishtirmay turib bermayman! Bo‘lmaydi.

Qumri xola bo‘lmaydi, degani bilan to‘y to‘xtab qolmadi. Anvarning tog‘asi bor ekan, o‘sha o‘rtaga tushdi. To‘y boshlandi-yu, Qumri xola zada bo‘lgan qushdek mung‘ayib qoldi.

Bahor kunlari g‘alati: to‘satdan jala quyadi-yu, yerko‘kni shalabbo qilib yuboradi. Ketidan yarq etib oftob chiqadi. Olam yashnab ketadi. Zamin-u osmon tarovatli bir isdan – bahor isidan mast bo‘lib qoladi. Xurshidaning hayotida ham shunday bo‘ldi. U Anvarni butun vujudi bilan to‘satdan sevib qoldi. Muhabbat evaziga baxt quyoshi unga jilmayib boqdi-yu, butun dunyo yashnab ketgandek bo‘ldi. Qizil lentani ko‘ndalang taqib olgan ZAGS mudirasingning nutqi, peshanasiga qo‘g‘irchoq qo‘ndirilgan mashinada sayr qilishlar, gul isi may hidiga qovushgan charog‘on restoran... U baxtiyor edi. Baxt degan lazzatli tuyg‘u hayotiga shunchalik tez kirib kelganiga ba’zan o‘zi ham hayron qolardi. Nazarida, onasi ham uni tushungandek edi. Faqat to‘ydan keyin Qumri xola Anvarning Yunusoboddagi ikki xonali uyiga bormadi. Umuman bormadi. „Ziyoni yo‘q, oyim shunaqa bir lovullaydilar-u, o‘chadilar“, deb yupatdi Xurshida erini.

To‘ydan keyin bir hafta o‘tgach, nikoh sayliga chiqishdi. Avgustning o‘rtalari edi. Bunaqa paytda dengiz yangi sog‘ilgan sutdek iliq bo‘larkan. Bir kuni ikkovlari oydin kechada cho‘milishdi. Qiziq, Xurshida suzgan sayin qo‘lining uchidan sachragan tomchilar xuddi marvariddekları yaraqlab ko‘rinardi. Bunday lazzatli manzarani xuddi shunaqa paytda dengizda cho‘milgan odamgina biladi. Xurshida qorayib, yanayam husni ochilib qaytdi.

- Bir kuni Anvar ishdan tashvishliroq qiyofada keldi.
- Chamadon tayyorlang, – dedi to‘satdan.
  - Yana qayoqqa boramiz?

– Siz emas, men ketaman. – Anvar endi osoyishta tu-shuntirdi. – Ilmiy ishim bo'yicha Leningradga borishim zaru bo'lib qoldi. Domla chaqiribdi.

– Anchagami? – Xurshida birdan ichi huvullab qolgan-dek eriga termildi.

– Nari borsa bir oy.

Xurshida kuzatib qo'ymoqchi edi, Anvar uni ayadi. Vok-zalga chiqartirmadi.

Ikki xonali katalakda Xurshida yolg'iz qoldi. Hovlida, mahallada odamning yolg'izligi bilinmaydi. Ammo seksiyada bir kun tanho qolgan kishi yorilib ketay deydi. Bunaqa joyda qo'ni-qo'shnilar, nimagadir, salomlashishdan nariga o'tmaydi. Xurshida uch kunda siqilib ketdi. Ishga boray de-sa, Anvarning gapiga kirib bo'shab olgan. U o'z uyiga bordi. Qumri xola haliyam jahlidan tushmagan ekan. Xurshida ikki kun turgan edi, sekingina tushuntirdi:

– Uzatilgan qiz uyga kelib yotib olmaydi. Qo'ni-qo'shnilar halitdan gap qilyapti.

– Bo'lmasa yuring biznikiga, – dedi Xurshida.

– Yo'q, bolam. Og'zimga so'z olganman.

Xurshida umrida birinchi marta onasini yomon ko'rib ketdi. Ona degan ham shunchalik bemehr bo'ladimi? U uyiga keldi. Televizor bilan andarmon bo'ldi. Har kun yildek cho'zilar, aksiga, Anvardan na xat, na xabar bor edi. Ba'zan Dilbar degan o'rtog'i kelib turar, ammo uning ham o'z tirik-chiligi bor edi. Kunduzi ishga boradi, kechqurun o'qishga...

Bir oqshom eshik jiringlab qoldi. Xurshida ochib qarasa, „sim“ ro'mol o'ragan ayol, do'ppi kiygan olti-yetti yosh-lardagi bola turibdi. „Qishloqdan kelishibdi, – deb o'yladi Xurshida ayolning yaltiroq ro'moliga, beo'xshovroq osilib turgan jemperiga qarab. – Adashgan odamlarga o'xshaydi“. U hamroh topilganiga quvonganday beixtiyor ichkariga tak-lif qildi.

– Kelinglar! – dedi yo'l bo'shatib.

Ayol dadil ichkariga kirdi. Bola sho'xgina ekan. Birpasda yugurib borib magnitofon qulog'ini buray boshladi.

– Akbar, tek o'tir! – dedi ayol jerkib. Keyin Xurshidaga qaradi. – Siz Xurshidaxonsiz-a?

Xurshida hayron bo'ldi.

– Men sizni tanimayroq turibman, – dedi iymanib.

– Tanib qolarsiz. – Ayol xotirjamlik bilan jemperini yechib stul suyanchig'iga tashladi. Uning bepisandligi, kinoya qilib gapirishi Xurshidaning g'ashiga tegdi. „Kim o'zi bu? Nimaga oliftagarchilik qiladi?“

– Kimsiz o'zi? – dedi u qoshini chimirib.

– Ketdimi? – Ayol negadir iljaydi. – Ancha bo'ldimi?

– Kim ketadi?

– Uzum opketdimi, tarvuzmi?

Xurshida shahd bilan o'rnidan turib ketdi.

– Menga qarang! – dedi tahdid bilan. – Maynavozchilikni yig'ishtiring! Kimsiz o'zi?

Ayol o'g'liga qarab qandaydir notabiiy, asabiy qiyqirib kuldi:

– Dadang Sibirga ketibdi, o'g'lim. Uzum opketibdi. Shu yerda kutib o'tirsang, senga velosiped olib keladi.

Bolakay ko'zlarini katta-katta ochib onasiga tikildi:

– Qachon, buvi, qachon?

– Unisini manavi ayachangdan so'raysan! – deb ayol Xurshidani ko'rsatdi. Yana o'sha g'ayritabiyy ohangda kuldi. – Qachon qaytaman degan Akbarning dadasi?

Xurshida nimanidir tushungandek bo'ldi-yu, ichida bir narsa uzilib ketdi. Bemador bir holatda eshikka suyanib qoldi.

Ayol tantana qilgandek yana qiyqirib kuldi.

– Sizniyam mashinasiga o'tqizib, qo'lga tushirdimi? Sizgayam aspirantman, dedimi? Sizniyam to'y bo'lmasidan „ishingizni to'g'rilib“ qo'ydimi? „Hech kimim yo'q, yetimman“, degandir? Bir oy ichida to'y qildimi? „Svadebniy puteshestiya“ga olib borgandir, hoynahoy? Endi ilmiy ish bilan Leningradga ketgan bo'lsa kerak.

Ayol har gapi bilan Xurshidaga bir tarsaki tushirayotgan-dek bo'lar, bundan rohatlangandek vahshiylarcha qiyqirib kular edi:

– Leningradda pishirib qo'ygani yo'q! Novosibirskka ketgan. Uzum opketgan.

Xurshida boshidan hushi uchib borayotganini his qilib turar, yuragi gursullab urar edi.

– Yolg'on! – U yer tepinib chinqirib yubordi. – Yolg'on! Yolg'on!

Keyingi daqiqada u vahshiylarcha kulayotgan xotinga tashlandi. Boshidagi „sim“ ro'moliga chang soldi. Ammo shu on iztirobga to'la bir chinqiriq yangradi-yu, Xurshida-ning qo'llari havoda muallaq qotib qoldi.

– Buvi! Buvijon! – Boyadan beri magnitofon oldida o'ralashib yurgan bolakay o'qdek otlib kelib onasiga yopishdi.

Shundagina Xurshida ayolning ko'zlaridan oqib tushayotgan yoshni ko'rdi. Ayol negadir kalovlanib o'rnidan turdi. Bir qo'li bilan bolaning boshini silay boshladi, bir qo'li bilan Xurshidaning yelkasidan quchdi.

– Peshanang sho'r ekan, singlim! Ko'zingga qarasang bo'lmasmidi? – Shunday dedi-yu, yelkalari silkinib yig'lab yubordi.

O'sha kecha tun bo'yi ikki „kundosh“ hasratlashib chiqishdi. Bola uqlab qolgan, uy nim qorong'i, ayolning ovozi g'amgin, ammo o'ktam edi. U asli andijonlik ekan. Texnikumda o'qib yurganida Anvarning qo'liga tushibdi. Es-husshini yig'ib olguncha, Anvarning ikkinchi xotiniga aylanib qolibdi.

– Siz uchinchisisiz! – dedi u qandaydir kinoyasiz ohangda. – Xorazmda ham xotini bor. Lekin ishni pishiq qiladi. „Zakonniy“ ajrashadi.

Xurshida ich-ichidan toshib kelayotgan yig'ini arang bosib yotardi. „Zakonniy“ ajrashganining nima foydasi bor? Bu bilan dardi yengillasharmidi?

Anvar hech qanaqa olim emas, suratkash ekan. Goh u, goh bu institut laboratoriyasida suratkash bo'lib ishlab yurarkan. Kuzda allaqanday sheriklari bilan Sibir shaharlariga borib uzum sotarkan. Manavi kooperativ uylar-u mashinalar, restoranlar-u dengiz sayohatlari shundan ekan.

Xurshida bu gaplarning tush bo'lib qolishini juda xohlardi. Qani endi to'xtovsiz gapirayotgan mana shu xotin ham, divanda pishillab uxlayotgan anavi bola ham tush bo'lса. Tush bo'lsa-yu, u uyg'onib ketsa.

Yo'q, tush bunaqa bo'lmaydi!

– Balki, biron narsa tama qilib keldi, dersiz. Yo'q, hech nima kerakmas. Toshkentda qarindoshlarimiz bor. Shularni-kiga keluvdim. Bu gaplarni eshitib qolib, sizni ogohlantirib qo'ygim keldi. Agar yaxshi ko'rsangiz, mahkam ushlang. Anvar – tullak yigit.

...Ona-bola zinadan tushib ketayotganida Xurshida bir dan uyga yugurdi. Kecha bolakay o'ynagan yaponcha magnitofonni stoldan yulib oldi-da, zinalardan chopib tushdi.

– Ma, Akbar! – dedi bolaga tutqazib. – Baribir shu... seniki.

Kundoshi qarshilik qilgan edi, qo'ymadi.

– Baribir menga kerakmas. Endi kerakmas.

Lovullab turgan gulkanga suv sepilsa nima bo'ladi? Achchiq, bo'g'uvchan hovur ko'tariladimi? Hozir shunday bo'ldi. Xurshidaning lovullab turgan muhabbatiga suv sepildi. U o'zining achchiq hovuriga o'zi bo'g'ilib qoldi. Nima qildi u? Nima qilib qo'ydi? Shirin gaplariga uchdimi? Mo'ylovi-gami? Bir savat guligami? Mashinasigami? Balki, jaraq-jaraq pullariga uchgandir. Nimasiga uchdi? Hammasiga! Mashinasida kataysa qilish yoqarmidi? Yoqardi. Judayam yoqardi. Restoranlarga kirish, dengizga borib cho'milish, qorong'i laboratoriyaga kirib o'pishish yoqarmidi? Yoqardi. O'zi-ku suratkashni aspirantdan, chayqovchini olimdan ajratolmas ekan, nega surishtirmadi? Nega onasi surishtiraman desa, bir chekkaga yig'ishtirib qo'ydi? Eskilik sarqiti, deb to'yga ham

chandon aralashtirmadi. Eskilik sarqiti emish! Sarqit kim?! Oyisimi, o'zimi?! Oyisining ko'ngli bir narsani sezgandirki, oyoq tirab turib olgandir.

U Anvar kelsa nima qilishini bilmas edi. Albatta, bo'y-niga olmaydi. Uylanganini ham, bolasi borligini ham ayt-maydi. Ana o'shanda boplaydi. Shunaqa boplasinki, erkak bo'lganiga ming pushaymon qilsin.

Qiziq, Anvar hech nimadan bo'yin tovlamadi.

– Nima qipti? Avvalgi xotinlarim bilan zakonniy ajrash-ganman. Uzum masalasi... Nima, men o'g'irlik qilyap-manmi? Odamlarning hojatini chiqaryapman. Buyam savobli ish... Ilmiy ish ham bo'pqolar. Biron mirzaquruq domlaga „qurug'i“dan cho'zsam, uch oyda nomzodlik dissertatsiya-sini yozib beradi.

– Nega meni aldadingiz? – dedi Xurshida alamdan to'lg'anib.

– Qiziq ekansiz, to'yni tezlashtiring, degan menmi, sizmi?

Xurshida alam ichida uni tarsakilab yubordi, Anvar bir rangi o'chdi-yu, indamadi.

– Bo'ldimi? – dedi kulishga harakat qilib. – Alami-ningizdan chiqdingizmi endi?

Xurshida bu odam bilan o'rtalarida kattakon jarlik paydo bo'lganini his qildi. Bu jarlik ikkovilarini ikki sohilga uloq-tirib tashladi. Kim bilsin, balki, ilgari ham jarlik bo'lgan-dir-u, Xurshida ko'rlik qilib, narigi sohilga qadam bosgandir.

...Ayvon tomondan Qumri xolaning tovushi keldi.

– To'lqinjonning to'yi yurishib qoldi, ovsinjon! Shunaqa-yu, ko'nglim g'ashroq. Kelinning akasi icharkan. Ota-siniyam og'zi shaloqroq deyishadi.

– Sinang, o'rgilay, obdan sinang. Qush uyasida ko'rga-nini qiladi. Keyin kuyib, alangasiga isinib o'tirmang, ov-sinposhsha!

## NURLI HALQACHALAR

– Oyim ketaman deyaptilar...

Xurshid chizmalar yozib tashlangan stoldan bosh ko‘tar-di-yu, xotinining gapiga tushunmaganday unga qarab qoldi. Nazira atlas ko‘ylak ustidan tutib olgan fartukning etagiga tiqmachoq qo‘llarini artib, ostonada turardi.

– Shu tobda qayoqqa boradilar, kech bo‘lib qoldi-ku?

– Aytdim, – dedi Nazira loqayd qiyofada boshini bir yonga egib. – Shuncha qistasam ham ko‘nmayaptilar.

Xurshid xonaning bir devorini egallagan kitob javoni ustidagi soatga qarab qo‘ydi:

„Olti bo‘libdi. Yarim soat bor. Ulgurarmikanman?“

– Mashinada olib borib tashlasammikan? – u xayolining davomini so‘ragandek xotiniga qaradi. Nazira uzun kipriklarini pirpiratib, yelkasini qisdi.

– Bilmasam...

Bu uning „yo‘q“ degani edi. Xurshid xotinining fe’lini yaxshi biladi. Mana shu so‘z olovida ko‘p marta oilaviy jan-jallar pishgan.

– Domla xafa bo‘lmaydilarmi, va’da bergansiz-ku? – dedi Nazira yana o‘sha loqaydlik bilan.

„Albatta, xafa bo‘ladi-da“, deb o‘yladi Xurshid taraddudlanib o‘rmidan turarkan. U devorlariga cho‘g‘dek gilamlar osilgan xonadan o‘tib, yo‘lakka chiqdi.

Fazilat xola amirkon mahsi-kavushini kiyib allaqachon tayyor bo‘lib olgan, tugunini quchoqlaganicha mushtdek

bo'lib kresloda o'tirar edi. Odatda, ona bolasidagi qildek o'zgarishni ham payqaydi-yu, bola onadagi o'zgarishni chandon bilavermaydi. Xurshid hali onasi kelganida durust-roq razm solmagan ekan. Hozir ko'ziga onasi yana ham kichrayib qolgandek ko'rindi. Yuzida ajinlari ko'payib, ko'z osti salqib qolganini sezdi.

– Oyda-yilda bir kelasiz-u, shunaqa qilasiz-a, oyi? Nima, u uyingiz bo'lganida bu uyingiz emasmi? – dedi Xurshid ranjib.

Kampir tugunni quchoqlab, o'rnidan turdi.

– Mavlu yolg'iz-a, jon bolam, bilasan-ku...

– Mavluda yosh bola emas. Qolasiz. – Xurshid onasining ko'ziga iltijo bilan tikildi. Ammo shu ondayoq xayolidan lip etib „baribir qolmaydilar“, degan fikr o'tdi.

– Doming bor bo'lsin, bolam, siqilib ketaman.

– Bo'lmasa tashlab kela qolay... – Xurshid shunday dedi-yu, bu gapni til uchida aytganini, buning ustiga orqasida xotini tikilib turganini sezib, g'ijindi.

– Qo'y, bolam, sen ishingdan qolma! – dedi onasi uning ahvolini tushunganday, soddagina jilmayib. – Chinoz qochib ketgani yo'q. Kelib-ketib yurgan joyim.

\* \* \*

Avtostansiyada odam siyrak edi. Oynaband zalning bir chekkasidagi kursiga o'tirgan chol qopiga yonboshlab mudraydi. O'rtta yashar xotin bola emizib o'tiribdi. Kassa oldida uymalashgan uch-to'rt qiz xandon otib kuladi. Ah-yon-ahyonda direktor qaysi avtobus qaysi maydondan, qachon jo'nashini hijjalab e'lon qiladi. Chinozning avtobusi jo'nashiga xiyla vaqt bor ekan. Fazilat xola yuragi siqilib tashqariga chiqdi.

Qish kuni bir tutam. Darrov qorong'i tushib qolibdi. Stansiya binosining peshtoqidagi lampochka yonib turibdi. Ro'paradagi akatsianing shoxlarida kechagi qor

jimirlaydi. Katta ko'chadagi qor erib ketgan, ammo yo'l chekkasidagi ariq qirg'oqlari oppoq. Besh-olti yoshlardagi bir bola etikchalarining poshnasi bilan muzni teshmoqchi bo'lib tepkilaydi.

Zina oldida to'nkarilgan paqirga o'tirib olgan mantipaz xotin bolaga qarab qichqirdi:

- Etikni yirtasan, yer yutkur.
- Bolani qarg'amang, o'rgilay, – dedi Fazilat xola ovozi titrab.
- E, qirilib ketsin, shularni deb umrimni xazon qildim. Otasi bo'lsa topganini ichadi.

„Yaratgandan ham o'rgilay, – deb o'yladi Fazilat xola kelib to'xtagan avtobus tomon yurarkan. – Tilaganlarga bermaydi bolani“. U Xurshidning farzandsizligi uchun ichidan o'kinishi, shu boisdan o'g'li bilan kelini o'rtaida ko'p janjal chiqishini bilardi. O'g'linikiga kam kelishining boshqa sababi ham bor. Bu uyda o'zini zargarlik do'koniga kirib qolganday his qilar, u yoqqa burilsa ham, bu yoqqa burilsa ham bir nimani sindirib qo'yayotganday bo'laverar edi.

Avtobus beton yo'lga chiqqanidan g'izillab ketdi. Fazilat xola oldingi o'rindiqda o'tirar, tashqarini tomosha qilib borar edi. Havo ochilib ketgan, ko'kda osilib turgan oy sovuqdan junjikkandek rangi o'chib, avtobusga ergashib borardi. Dalalarni qor bosgan, ahyon-ahyonda lip o'tib qolayotgan daraxtlar gulga belangandek oppoq, yalangliklar mayin oy nuri-da mudrab, afsonaviy tush ko'rayotgandek sukutga cho'mgan.

Fazilat xola bu yo'llardan ko'p yurgan. Odamning boshi tolening toshi ekan. Xohlasa, u yoqqa otadi, xohlasa, bu yoqqa. Lekin inson hammasiga chidaydi, ko'nikadi.

Eri urushga ketganida Xurshid uning qo'lida qoldi. Osmon uzoq, yer qattiq. Qo'shni xotin bir kuni Fazilat xolaga o'rgatdi. „Sigirning dumiga mahkam yopishing, sut-qatiqning ortganini shaharga olib borib sotsangiz, harna bir kunningizga yaraydi-ku“.

Rais insofli odam edi. Tushga qolmasdan dalaga chiqish sharti bilan ruxsat berdi.

Fazilat xola ertalab soat to'rt yarimda o'tadigan poyezdga bir bidon sut yo qatiq olib chiqardi. Toshkentning gav-jum ko'chalarida „kisle moloko!“ deb sotardi. Keyin ilinsa, poyezdga chiqib, bo'lmasa o'tkinchi aravada uyiga qaytardi, ketmonni yelkasiga tashlab dalaga jo'nardi. Xurshid yuvosh ekan-da, o'shandayam. Uzzukun tanchaning bir chetida in-damay yotaverardi. Bora-bora Fazilat xola mijoz orttirdi. Shundan keyin ko'cha-ko'yda yugurib yurmay, sutini mijoz-lariga berib qaytadigan bo'ldi.

Hech esidan chiqmaydi, bir kuni Xurshid muz yegan ekan, alanga-otash bo'lib yotib qoldi. Fazilat xola tun bo'yi kasal bilan olishib chiqdi. Tongga yaqin uqlab qolibdi. Stan-siyaga chiqsa, poyezd o'tib ketibdi. Bormasa, mijozlari aynib ketadi. Yo'lning yarmigacha aravada, u yog'iga piyoda sarpoychang qor kechib, tushga yaqin mijozinikiga yetib bordi. Oyoqlari akashak bo'lib qotib qolgan, kalishiga qor to'lgan edi. Shu-shu bod orttirib, uzoq vaqt ko'rpa-to'shak qilib yordi. Qo'shnilar uni qattiq koyishdi.

– Nima, bolangiz sizga marmar tosh qo'yarmidi? Joningiz o'zingizga kerakmasmi!

Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug'. Ro'shnolik kunlar ham keldi. Urush to'xtadi. Yarimjon bo'l-sa ham eri qaytdi. Xurshid maktabga qatnay boshladı. Orada mana shu Mavluda tug'ildi. Ammo Fazilat xolaning quvon-chi uzoqqa bormadi: to'satdan eri o'lib qoldi. Endi uning yolg'iz umidi o'g'lidan edi. Xurshid maktabni yaxshi bitirdi. Institutga o'qishga kirdi.

Fazilat xolaning orzulari katta edi. Xurshid tezroq o'qishini bitirib qaytsa, uni qishloqning eng suluv qiziga uylan-tirsam, dang'illama to'ylar qilsam, deb yurardi. Bu safar ham niyatiga yetolmadi. Xurshid institutni bitirdi-yu, qishloqqa qaytmadi. O'qishni yana davom ettirishini, olim bo'lmoqchi

ekanini aytdi. Keyin to'satdan uylanadigan bo'lib qoldi. To'y shaharda bo'lди. Fazilat xola necha yillardan buyon to'plagan bisotini o'rtaga qo'ydi. Qishloqdagilar „o'g'ling ichkuyov bo'lsa“, deb ta'na qilishganida ichidan zil ketsa ham, sirtiga chiqarmadi. „Bekor gap! Hecham ichkuyov emas-da, boshqa turadi. O'zining bolasi olim bo'lib ko'rsin-chi!“

Shukur, Xurshid o'zidan tindi. Uyli-joyli bo'lди. Mana, mashina oldi. Faqat Fazilat xola o'g'linikiga kam keladigan bo'lib qoldi. Mayli, yolg'iz emas-ku, Mavludasi bor. O'g'lidan ko'rmaganini qizidan ko'rар. O'g'lidir-qizidir, ishqilib, o'zidan ko'paysin.

Avtobus g'iyqillab to'xtadi, Fazilat xolaning xayollari to'zib ketdi. U derazadan mo'ralab, tanish yog'och uychani ko'rdi-yu, manzilga yetganini sezdi. Avtobusdan tushayotganida nimagadir yuragi hovliqib ketdi: „Voy o'lmasam, hech bunaqa bo'lmasdi-ku, Mavlu tinchmikan?“

U hovliqqancha dala o'rtasida qorayib yotgan qatqaloq so'qmoqdan qoqlila-surina jo'nadi. Yuragi hamon xapriqar, noxush bir narsaning daragini sezgandek besaranjom edi. Ni-hoyat, olisdagi pastak uyning derazasida nur ko'rib, ko'ngli joyiga tushdi, bo'shashib to'xtadi. Ro'molining uchi bilan peshanasini artdi.

\* \* \*

Xurshid kresloda xomush o'tirar, onasining tugun quchoqlagancha allaqaysi bekatda diydirab turganini ko'z oldiga keltirib, ich-etini yer edi. Nazira esa burchakdagi toshoyna oldida o'tirib, to'g'nag'ichlarini tishiga qistirgancha sochini turmaklar, erining ko'zgudagi aksiga qarab-qarab qo'yar edi.

Shu tobda ikkovining o'rtasida elektromagnit maydoni kabi ko'z ilg'ammas, ammo tarang sukonat cho'kkан, uni birinchi bo'lib buzishga ikkovi ham jur'at etolmayotgandek edi.

– Bo'lmaysizmi! – dedi, nihoyat, Nazira burilib qarab. – Mehmonlarga o'xshab kirib borsak, domlaning oldida nima degan odam bo'lamic?..

– Namuncha shoshasiz? Nima, men yugurdakmidim? – Xurshid qovog'ini solib o'rnidan turdi.

Nazira to'g'nag'ich ushlagan qo'lini ko'targancha qoshi-ni chimirib, zarda bilan unga tikildi. Xotini hech nima demasa ham, Xurshid shu tobda uning nima o'ylaganini fahmladi.

Har qalay, Xurshid Fayoz Mahmudovichdan qarzdor edi. Domla unga otasi qilmagan yaxshiliklarni qildi. Bugun u doktorlik dissertatsiyasi yoqlayapti. Fayoz Mahmudovich kechayoq Xurshidga tayinlagan: „Himoyaga kelmasangiz ham, restoranda stollarni tayyorlab qo'ying, kechqurun kelin bilan borib, mehmonlarni kutib olinglar, mashinangizni ham mina keling“.

Xurshid kun bo'yi yugurib-yelib, stol tayyorladi. Endi boshqalardan oldinroq borib, mehmonlarni kutib olishi kerak. Shuning uchun tayyor mashinada onasini qishloqqa tashlab kelolmadi.

U segment zinalardan tushib borarkan, yana onasini o'y-ladi: „Oyim ham qiziq, shu paytda ketish zarurmidi?“

Xurshid garajga kirib, mashina eshigini ochdi. „Moskvich“ning motori sovib qolgan ekan, hadeganda o't olaver-madi. Xurshidning asabi qaqlash, gazni bosaverdi. Aslida, shu mashina ham, bir chekkasi Fayoz Mahmudovichning sharofati bilan olinib qolgan. Xurshid domлага har qancha xizmat qilsa, e'zozlasa arziydi. Studentning stipendiyasi nima bo'lardi! Xurshid darsdan bo'sh paytlarida tovar stansiyasiga borib, yuk tashir, ammo buni hech kimga – hatto yotoqdagi hamxonalariga ham bildirmas edi. Besh yil shunday o'tdi. Oxirgi kursda o'qiyotganida siri oshkor bo'lib qoldi.

Bir kuni konteynerda garnitur kelgan ekan. Qorong'i tushib qolgan edi. Xurshid g'ira-shirada turgan yuk egasi – shlapali kishining yengidan tortdi.

– Agar xo‘p desangiz, yuqingizni ortib berardim.

Yuk egasi o‘girilib qarashi bilan Xurshid qotib qoldi. Qani endi yer yorilsa-yu, kirib ketsa. Bu – kechagina maqtab-maqtab unga „besh“ qo‘ygan domla – dotsent Fayoz Mahmudovich edi.

– Familiyangiz Avazov-a? – dedi u Xurshidning yelkasiga qoqib. – Bo‘pti, orting.

O‘sha kuni domla Xurshid bilan yarim kechagacha gaplashib o‘tirdi.

– Siz menga kechayoq yoqib qolgandingiz, – dedi domla xayrlashayotganida. – Bilimingiz puxta ekan. Aspiranturaga kirishingiz kerak.

Bir haftadan keyin Xurshidni Fayoz Mahmudovichning laboratoriyasiga ishga olishdi. Oxirgi kurs studenti bo‘lgani uchunmi, dekan ham qarshilik ko‘rsatmadni.

...Motor hamon o‘t olmas, Xurshid g‘ijinar edi. Garaj eshigida po‘stinga o‘ranib Nazira turar, jazzi etikchalarini bir-biriga urishtirgancha betoqat yer tepinar edi. Birinchi bor tanishgan kunlarida ham, Nazira, xuddi shunday po‘stin, etikcha kiyib olgan edi.

O‘shanda, yangi yil kechasida, Xurshid qachondir maktab to‘garagida o‘rganib olgan Gamlet monologini o‘qidi. Chamasi, yaxshi chiqdi, shekilli, hamma olqishladi.

Baldan keyin trolleybus bekatiga chiqsa, po‘stin kiyigan oppoq, chiroyli qiz turibdi. Xurshid negadir undan ko‘z uzolmay qoldi. Nazarida, qiz ham unga jilmaygandek bo‘ldi. Baribir Xurshid qizga gapirishga jur‘at qilolmadi. Qizning o‘zi unga birinchi bo‘lib gapirdi.

– Gamletning o‘zi bo‘larkansiz, Ofeliya kim?

– Ofeliya... yo‘q, – dedi Xurshid dovdirab. Chindan ham shuncha yil o‘qib, Xurshid birorta qizni bilagidan ushlama-gan edi. „Men o‘qishim kerak, boshqasi keyin bo‘laveradi“, derdi o‘ziga o‘zi. To‘g‘rirog‘i, qizlar bilan yurishga vaqt ham yo‘q edi.

O'sha oqshom u Naziraning Politexnika institutining kimyo fakultetida o'qishini bilib oldi.

Ehtimol, qiz ham kelishgan, baland bo'yli, og'ir-bosiq Xurshidni yoqtirgandir, lekin Xurshid Nazirani bir kun ko'rmasa, turolmaydigan bo'lib qoldi.

Bahor chiqqanida qiz uyiga sovchilar ko'p kelayotgani ni, ota-onasi ham uni uzatish niyatida ekanligini aytdi. Xurshid tipirchilab qoldi. Tayin gapki, u hozir to'y qilolmaydi. Qizning oilasi katta dargoh ko'rinadi. Uncha-munchaga rozi bo'lmasa kerak.

Bir kuni u Fayoz Mahmudovichga ko'nglini ochdi.

– Kelinni olib keling, o'zim gaplashaman, – dedi domla.

Bu safar ham baxt unga kulib boqdi. Naziraning qaysidir korxonada boshliq bo'lib ishlaydigan otasi Fayoz Mahmudovichning tanishi ekan.

To'y juda katta bo'ldi. Naziraning otasi bitta-yu bitta qizi uchun borini to'kdi. Fazilat xolaning latta-puttalari hech nimaga yaramay qoldi. Naziraning onasi kuyov tomonning kamxarjligidan ensasi qotganini, to'yga kelgan qishloqliklar bir chekkaga chiqib qolganini Xurshid ham sezdi.

O'shanda onasi to'yning uchinchi kuniyoq so'ppayib jo'nab ketganini Xurshid hozir yana esladi. „Mana, bugun ham shunaqa bo'ldi-ku. Dili og'rib ketdi-da... Avtobusga ilindimikin?“

Starter hadeganda o't olavermagach, Xurshid butun ala-minni mashinadan olmoqchi bo'lganday, qora terga tushib, ruchkani shiddat bilan aylantira boshladi. Nihoyat, motor gurullab ketdi. Xurshid mashinani ehtiyyotlab garajdan olib chiqdi. Nazira uning yoniga o'tirib uf tortdi.

– O'lzin, kech qoldik! Nima balo, dadam o'ziga „Volga“, sizga ataylab „Moskvich“ olib bergenmi?

„Yana o'sha gap, – deb o'yladi Xurshid mashinani chiroqlar charaqlagan serqatnov ko'chadan ohista yurgizib bo'rarkan. – Padariga la'nat, mashinaning ham, pulining ham!“

Odatda, rulda o'tirgan kishi hamisha ziyrak bo'ladi. Shu tobda Xurshid harchand urinmasin, ko'ngil g'ashligi tarqamadi.

Uylanibdiki, shu gap. Ayniqsa, Nazira aytgan „yuksak aristokratiya“ davrasiga kirganida Xurshid bo'g'ilib ketadi. Qaynatasining ham, atrofidagilarning ham topgan gapi – kim qancha maosh oladi, kimning „Moskvich“i bor-u, „Volga“si yo'q, qaysi zargarlik magaziniga qanday „komplekt“ kelgan, kim Rigadan necha ming so'mga garnitur olib keldi... Bu davraga kirganida Xurshid havosi so'rib olingan vakuumga tajriba uchun qamab qo'yilgan sichqonga o'xshab qoladi. Ustiga-ustak, farzandsizlik er-xotinni asabiy qilib qo'ydi.

Nachora, o'zga iloj yo'q. Xurshid bu xonadondan qarzdor. Shuni o'ylagan sayin battar azob chekadi. O'z qishlog'ini, bolaligini qo'msaydi.

Esida, shundoq ularning chorborg'i ostidan kattakon anhor o'tar edi. Bolaligida, studentlik chog'ida ta'tilga chiqqanida ham Xurshid shu anhorda cho'milishni yaxshi ko'rardi. U charchaguncha suzar, keyin sohildagi qum ustida chalqancha yotib olardi-da, ko'zlarini yuminqirab, quyoshga tikilar edi. Shunda uning ko'z o'ngida son-sanoqsiz binafsharang halqachalar olovlanib yonar, Xurshid ularni soatlab tomosha qilishdan zerikmas edi. Mana shu nurli halqachalar ham shirin tushdek allalar edi uni. Hozir u atrofini o'rab oлган hamma narsani ana o'sha nurli halqachalarning bir nafaslik jilvalanishiga alishishga tayyor edi. Bugun onasi keldi-yu, o'sha sehrli damlarni yana eslatib ketdi.

Mashina silkinib, Xurshidning hushi o'ziga keldi. U yo'l chekkasidagi o'nqir-cho'nqir yaxmalakdan o'tdi-da, yana o'sha tezlikda yurib ketdi.

Yarim yil ilgari Fayoz Mahmudovich Xurshidning oldida uning qaynatasiga yarim hazil, yarim chin qilib: „Kuyovingizga mashina olib bermaysizmi?“ deb kulgan edi. Mana, u „Moskvich“li ham bo'ldi. Mashinali bo'ldi-yu, tashvishi yana

ko'paydi. „Yuksak davradagilar“ endi Xurshidga ochiqdan ochiq ta'na qiladigan bo'lib qolishdi. „Dissertatsiya cho'zilib ketdi-ku, qachon olim bo'lasiz?“

Rost, u uch yil aspiranturada o'qidi. Yana ikki yil o'tdi. Ishining oxiri ko'rinxayapti. Xurshid aspiranturaga kirayotganidayoq ko'ngli g'ash bo'lgan edi: konkursda u bilan teng ball olgan xorazmlik qizni emas, Xurshidni qabul qilishdi.

Xurshid „Lazer nuridan kosmonavtikada foydalanish“ degan murakkab mavzuga qo'l urdi. Ammo bu ishni eplay olmasligini o'zi ham bilardi. „Oyog'i yerdan uzilgan odam osilib o'ladi. Ikki o'rtada domlangning yuzini yerga qaratding. Qo'lingdan kelmas ekan, boshqalarning yo'liga g'ov bo'lib nima qilarding“, deb o'zini ko'p bor koyidi. Ammo nima foyda? Olimlik yo'liga tasodifan kirib qolgan, domlasining etagiga yopishib, yugurdaklik qilib yurgan aspirantlar ozmi?.. O'zi-chi, o'zi? Mana, bugun Fayoz Mahmudovich doktor bo'ladi. Xurshid ziyofatga kelgan mehnatlarga choy tashiydi. Oxirida hammani uy-uyiga tashib, aravakashlik qiladi.

To'g'ri-da, har kim qo'lidan kelgan ishni qilishi kerak!

Uning o'ylarini allaqanday vahimali gumburlagan ovoz, ketidan Naziraning chinqirgan tovushi buzib yubordi. Xurshid dahshat ichida rulga yopishib xotiniga qaradi. Nazira ikki kafti bilan yuzini to'sgancha enkayib qolgan edi.

„Avariya!!“ – shu xayol miyasiga chaqmoqday urildi-yu, rulni keskin o'ngga burdi. Ammo rul unga bo'ysunmas, mashina allaqanday g'ayritabiyy ravishda shiddat bilan ko'ndalangiga sudralib borar edi. Xurshid beixtiyor orqasiga o'girilib qaradi. Kattakon samosval buferi bilan Xurshidning mashinasini shundoq yonboshidan ilib olgancha shiddat bilan sudrab borardi.

„Hozir mashina ag'dariladi-yu, samosval ustimizdan o'tib ketadi“, deb o'yladi Xurshid qo'rquvdan titrab. Negadir shu tobda onasi ko'z o'ngiga keldi. Yana bir-ikki soni-

ya o'tgan bo'lsa kerak. Ammo bu onlar yilga teng edi. Ni-hoyat, samosval to'xtadi. „Moskvich“ ham unga ko'ndalang yopishgancha, silkinib to'xtab qoldi. „Xayriyat, ag'daril-madi“, – Xurshid a'zoyi badanini muzday ter bosganini endi payqadi.

– Qo'rwmang, – dedi Naziraning yelkasidan quchoqlab, – qo'rwmang, tirik qoldik-ku!

Nazira qo'lini tushirdi. Uning rangi dokadek oqarib ket-gan, qo'llari qaltirar edi. U birdan titrab-titrap yig'lab yubor-di. Xurshid mashinadan tushmoqchi edi, eshik ochilmadi. Pachoq bo'lib, o'rindiqqa yopishib qolibdi.

– Eshikni oching! – dedi u hamon yig'layotgan Naziraga.

Nazira behush bir tarzda yerga tushdi-da, kalovlanib borib simyog'och tagiga – uyib qo'yilgan qorga o'tirib qoldi. Xurshid ham oyoqlarini arang bosib mashinani aylanib o'tdi. Samosvalning eshigi ochildi-da, rangi quv o'chgan, ko'zlar qo'rquvdan olaygan yigit sakrab tushdi. Kirza etiklarini do'qillatib yugurib keldi.

– Tirikmisiz, aka? – dedi yig'lamsiragan tovush bilan. U entikib nafas olar, ingichka mo'ylovi uchib-uchib turar edi.

Xurshid indamasdan o'z mashinasiga qaradi. „Moskvich“ning eshigi ichkari kirib, oynasi chil-chil singan, tomi-gacha pachoq bo'lgan edi. Qiziq, u nimagadir achinmadi ham, faqat mashinasining hozirgi ko'rinishini o'z ahvoliga o'xhatgisi keldi.

Birpasda tumonat odam to'plandi. Xurshid ko'zlar bilan xotinini izlab topdi. Nazira uch-to'rt qadam narida dovdirab turar, semiz bir xotin uning chakkasiga qor ishqalar edi.

Shovqin-suron, baqiriq-chaqiriq orasida hech nimani anglab bo'lmay qoldi. Allaqayoqdan yetib kelgan inspektor odamlarni tarqata boshladi. U Xurshidga yaqin kelib so'radi:

– Mashina siznikimi?

Xurshid indamay bosh silkidi.

- Baxtingiz bor ekan, – inspektor jilmaydi. – Bunaqa avariyanadan tirik chiqqanlar oz bo'ladi. Samosval kimniki?
- Meniki, – dedi boyagi yigit yana yig'lamsirab.
- Nima bo'ldi?
- Bu kishi sekin kelayotgan ekanlar, – dedi yigit bo'shashib. – Quvib o'tmoqchi edim, ro'paradan taksi chi-qib qoldi.
- Mashinani rasvo qildi, to'lab bersin...

Xurshid xotinining ovozini eshitib, burilib qaradi. Nazira uning yonida turar, yig'isi tigan edi.

- To'lab beradi, opa, to'lab beradi, – dedi inspektor, yigitning hujjatini olarkan. – Sudga berib hammasini undirib olasiz.

Shunday deyishi bilan unniqib ketgan qora duxoba kamzul kiygan kampir to'daga yorib kirdi-yu, „Voy, bolam“, deb dodlagancha shofyorini quchoqlab oldi. Keyin inspektoring yelkasiga osildi:

- Rahm qiling, o'g'lim, bitta-yu bitta bolam shu.

Xurshid nima gapligini, bu kampir qayoqdan kelib qolganligini tushuna olmay qotib turar, faqat bir narsani bilar edi: bu kampir shofyor yigitning onasi ekan. Kampirning ushoqligimi, duxoba kamzulimi, nimasidir, o'z onasini eslatdi. Negadir ko'ziga yosh olib, inspektorga yopishib olgan kampirni quchoqladi.

- Qo'ying, oyи, xafa bo'l mang, o'g'lingizga hech nima qilmaydi.

Kampir endi uning bo'yniga osilib iltijo qila boshladi.

- Jon bolam, o'g'il-qizlaringizning rohatini ko'ring.

– O'zimning ham oyog'im tortmay turuvdi-ya! E o'sha xotinning so'ziga kirgan erkakning... – shofyor bola qo'pol so'kindi. – Oyim kecha opamnikiga – Kelesga ketgan edilar. Hali ishdan borsam, xotinim turib oldi-da, palakat! Oyimni olib kelasiz, deydi. Bilmadim, qaynanasi bilan kindigi bit-tami?

Xurshid hamon kampirni ovutarkan, beixtiyor jilmaydi.  
Xotinini bemalol so‘kayotgan bu chapani yigitga ham,  
uning onasini shunchalik yaxshi ko‘radigan xotiniga ham  
havasi keldi.

– Sudga berasizmi? – dedi simyog‘ochdan tushib turgan  
lampochka yorug‘ida protokol yozayotgan inspektor Xur-  
shidga qarab.

Xurshid indamay turgan xotiniga zimdan qarab qo‘y-  
di-yu, xotirjam gapirdi:

– Qiziqmisiz, sudning nima keragi bor. O‘zimiz ke-  
lishamiz. Tasodif-da... hayotda bundan battarları bo‘ladi-ku...

Inspektor „O‘zingiz bilasiz“ deganday yelkasini qisdi.  
Shofyor bolaning onasi esa hayratdan ko‘zlarini katta ochib  
Xurshidga uzoq tikilib qoldi.

1970

## TARNOV

Erta bahor edi. Hordiq kuni edi. Kech turdim. Hovliga tushsam, havoning avzoyi buzuq. Yuvinib chiqib qarasam, tunuka tom peshidagi tarnov bir tomonga qiyshayib yotibdi. Qishda yog‘gan qor zalvoridan qiyshayib qolgan shekilli... Qattiqroq shamol bo‘lsa, tushib ketadigan...

Yo‘lakda yotgan narvonni ko‘tarib kelib tomga tiraguncha tinkam quridi: zax tortib, zildek bo‘p ketibdi.

Narvon zinasiga oyoq qo‘yishim bilan ayvondan onam tushib keldi.

- Nima qilmoqchisan? – dedi ko‘zimga termilib.
- Hozir, – dedim beparvo qo‘l siltab. – Tarnov qiyshayib qopti.
- Shoshma, bolam, avval choyingni ichib ol...
- Hozir tushaman.

Shunday dedim-u narvonga tirmashdim. Tomga chiqishim bilan pastdan onamning xavotirli xitobi eshitildi:

- Ehtiyyot bo‘l, tom labiga borma!
- Uyga kirsangiz-chi! – dedim og‘rinib.

Tunuka tomni taraq-turuq bosib, qiyshaygan tarnov oldiga keldim. Uvallo urinaman, tarnov la’nati o‘nglansa qani! Zanglab ketganmi, bo‘yog‘i yopishib qolganmi...

Aksiga olib, yomg‘ir shivalay boshladı. Avvaliga tomchilab turdi-da, keyin shiddat bilan yog‘ib ketdi. Tom labida o‘tirgancha, tarnovni qo‘shqo‘llab surishga urindim. Qilt etmaydi!

Pastdan yana onamning ovozi keldi:

– Menga qara, bolam!

Narvon oldiga qaytib keldim.

– Nima deysiz?

– Jon bolam, mana buni kiyib olgin...

Qarasam, onam bir qo‘li bilan narvonni changallagancha, ikkinchi qo‘lida to‘n ushlab turibdi. Yupqa ro‘moli, nimchasi ho‘l bo‘lib ketgan...

Xunobim oshdi.

– Hozir tushaman, dedim-ku! Men yosh bolamanmi?

– Shamollab qolasan!

– Obbo! Siz uyga kiravering! Hozir tushaman.

Shunday deb, tag‘in tarnov oldiga qaytdim. Jahd bilan tarnovni mushtlay boshladim.

Bir mahal pastdan yana ovoz keldi:

– Ada! Adajon!

– Ha! – dedim battar xunob bo‘lib.

– Varragim yirtildi!

Qarasam, yetti yashar o‘g‘lim hovli o‘rtasida turibdi. Oyo-g‘i ostida yirtilib, qamishlari qovurg‘adek turtib chiqqan varrak loyga qorishib yotibdi. O‘zi ko‘ylakchan. Boshyalang. Yomg‘ir ostida diydirab turibdi.

– Uyga kir, Farruh! – dedim baqirib. – Uyga kir, shamol-lab qolasan!

Quloq salsa qani! Goh varragiga, goh menga qaraydi.

Kapalagim uchib ketdi. Tomda sirg‘alib-sirg‘alib, narvon tomon yugurdim.

Uch-to‘rt pillapoya tushib qarasam, onam hamon narvon oyog‘ini changallab turibdi. Ro‘moli jiqqa ho‘l bo‘lib, sochlariqa yopishib qolgan... Bir qo‘li narvon oyog‘ida. Bir qo‘lida to‘n...

## TUYA VA ESHAK

To‘rtinchi „A“ sinfda o‘qirdim. G‘alati o‘qituvchimiz bor edi. O‘zi naynov. Bo‘yni uzun. Har qadam bosganida boshi liqillaydi. Tuyaning o‘zi... Sho‘xlik qilsak, koyimaydi, faqat „ha, bolajon-a, bolajon!“ deb xo‘rsinib qo‘yadi. Unga sayin biz battar to‘polon qilamiz... Ammo ko‘zlarini yarim yumib she‘r o‘qiganida sinfimiz jim bo‘lib qoladi.... O‘sha she’rlarning ba‘zi satrlari chala-yarim esimda qolgan. „Haqiqatni ko‘rganlarning ko‘zi ko‘rdir, haqiqatni tinglaganning qulog‘i kar...“

Kunlardan birida o‘qituvchimiz darsga kirmadi. Ertasiga ham... Indiniga ham...

Qiziq, biz uni sog‘ina boshladik.

Bir haftadan keyin yangi muallim keldi. To‘rtinchi „B“-ning muallimi. „Kitelli“ muallim. Ko‘rinishi shu qadar qo‘rqqulik ediki, hamma pildirpis bo‘lib qoldi. Oramizdagι dadilroq bola „o‘zimizning ma’lim qani?“ deb so‘ragan edi, „kitelli“ muallim sapchib o‘rnidan turdi.

— Shoir ma’liming Magadanda! — dedi qo‘lini paxsa qilib. — U ma’lim emas. Xalq dushmani! Antisovet shoir-larning shig‘irini o‘qigan! Mutaassib! Dindor! Ma’limingni sog‘ingan bo‘lsang, otangga ayt: ikkalangni ma’limingni oldiga jo‘natamiz!

Keyin bir-biridan vahimali gaplar tarqaldi. „Shoir – o‘qituvchi xalq dushmani ekan. Yangi ma’lim „tegishli joyga yozib beribdi...“ „Kitelli“ muallim yana ancha yil dars berdi. Ammo biron marta „shig‘ir“ o‘qimadi...

Oradan ko‘p yillar o‘tdi. Navro‘z bayrami bo‘layotgan edi. Bir mahal mikrofonda tanish, viqorli ovoz jaranglab qoldi:

– Birodarlar! Yaratgan egamga shukronalar qiling! Mustaqillik qadimiy an'analarimizni tikladi. Navro‘z – xalq bayrami. Hammamizning bayramimiz!

...Qarasam, o‘zimizning „kitelli“ muallim. Deyarli o‘z-garmabdi. Hamon tetik. Hamon viqorli... Faqat egnida jigar-rang kitel emas, to‘n. Boshida do‘ppi...

„Kitelli“ muallimning gapiga mahliyo bo‘lib, ro‘paramda o‘tirgan qariyaga e’tibor bermabman.

Bir mahal qariyaning o‘zi gap boshlab qoldi:

– Siz meni tanimaysiz. Men sizning kitoblarlingizni o‘qiyan, bolajon!

„Bolajon“ degani qalbimda qandaydir sog‘inch tuyg‘ularni uyg‘otgandek bo‘ldi. Pokiza kiyimli, qaddi bukik qariyaga sinchiklab tikildim.

– Siz...

– Ha-da! – dedi qariya muloyim kulib. – Men o‘sha „shoir“ o‘qituvchingizman... Xursandman, bolajon, yozgan-laringizdan xursandman.

...Agar mikrofonda „kitelli“ muallim va’zini cho‘zmasa, boshqa mavzuga ko‘chgan bo‘larmidik...

– Domla, – dedim qariyaga. – Manavilar hamon va’zxonlik qilib yotibdi. Axir siz...

– Nachora, – dedi qariya xotirjam alpozda. – Eshak qachon xohlasa, qayerda xohlasa, hangrayveradi, bolajon... Mening hech kimga xusumatim yo‘q... – Bir zum o‘ylanib turdi-da, siniq jilmaydi. – Bir hangomani aytib beraymi?.. Esini yeb qo‘ygan cholni ma’zur tutasiz. Bu gaplarni kitobdan o‘qiganmidim, yo ellik ikkinchi yili „uyoqqa“ jo‘natishganida etapda eshitganmidim, esimda yo‘q. Ammo ma’nosibunday.

Qadim zamonda bir sarbon bo‘lgan ekan. Ko‘p yurtlarga boribdi. Ko‘p aziyat chekibdi... Yoshini yashab, oshini

oshab, vaqtি-qaqosi yetganini sezibdi. Bola-chaqalari, qarindosh-urug'lar bilan rozi-rizolik tilashibdi. „Mendan rozimisizlar?“ debdi. „Mingdan-ming rozimiz“, deyishibdi.

Nogahon yana bir qadrondi sarbonning esiga tushibdi. Qirq yil xizmatini qilgan tuyasi bor ekan. Shu bilan ham vidolashadigan bo'pti.

„Vaqti kelsa, keragidan ortiq yuk ortdim, vaqtি kelsa, suvsiz qolding, och qolding, mendan rozimisan?“ deb so'rabi tuyadan.

„Roziman, – debdi tuya. – To'g'ri, yuk ham ortding, suvsiz ham qoldirding. Nimaiki qilsang, karvon manzilga be-xatar yetsin, deb qilding... Ammo bir marta sendan qattiq dilim og'rigan. Bir gal mening jilovimni eshakning dumiga bog'lab qo'ygansan... O'shanda eshak tuproq changitgani yetmagandek, bir-ikki marta tumshug'imga tepdi... Sen bo'lsang, kulib tomosha qilding...“

Qariya jimb qoldi. Tag'in siniq jilmaydi.

– Yaxshi sarbon yuk ortadigan tuyasini eshakka teptirib qo'ymaydi...

Mikrofonda esa, hamon „kitelli“ muallim nutq irod etar edi:

– Mana, xudoga shukr, dinimiz tiklandi. Imonli bo'laylik. O't balosidan, suv balosidan, tuhmat balosidan asrasin...

Qayerdadir eshak hangradi. Uzoq, kuchanib hangradi....

Qishloqda kuz pallasi tomsuvoq qilish udumi bo'lardi. Uning yozilmagan qoidasi bor. Birinchidan, hech kim tomini yolg'iz o'zi suvamaydi: hamma hasharga keladi. Ikkinchidan, beva-bechora, qo'li qisqa xonadonning uyi eng avval tomsuvuoq qilinadi. Keyin, navbatma-navbat davom etaveradi...

O'qituvchimizning hashariga ko'p odam yig'ildi. Uyi katta yo'l yoqasida edi. Shundoq ko'cha chetidan loyxandaq qazilgan ekan. Somon, katta yo'lning ko'pchib yotgan tuprog'iga qovushib, obdan yumshabdi. O'qituvchimizning Azim aka degan qo'shnisi ishboshi bo'ldi. Birov xandaqqa

tushib loy soberib turibdi, birov paqirlab loy tashidi, yana birov tomda turib, ilgak bilan tortib oladi, boshqasi hafsala bilan suvaydi...

Erta peshindayoq hamma ishni qoyil qilib tashladik. Hovli o'rtasidagi tut tagida ovqatlanib o'tirsak, o'qituvchimning keksa onasi kelib qoldi. (Keyin eshitsak, bir hafta avval ko'zi yorigan qizinikiga ketgan ekan.)

Kampir hassasini do'qillatib, to'ppa-to'g'ri o'qituvchimizning oldiga bordi.

– Nima qilding? – dedi o'g'lining salomiga alik ham olmay. – Nima ish qip qo'yding?!

Hammamiz hayron bo'lib qoldik. Muallim o'quvchilarining oldida mulzam bo'ldi shekilli, qizarib ketdi.

– Nima qipman, oyi? – dedi ko'zlarini pirpiratib.

– Dard! – kampir hassasi bilan yerni nuqidi. – Sanga qachon aql kiradi, nodon bola! – Keyin Azim akaga yuzlandi. – Bu-ku ahmoqliq qilishga qipti, siz qayoqda edingiz? Nega ko'chadan loy qildinglar?! Ko'chaning tuprog'iga tegib bo'ladimi, nobakor! Ko'pchilikning haqi-ku bu! – Bir zum harsillab turdi-da, to'satdan yig'lab yubordi. – Man yurtning haqiga suvalgan tom tagida turmayman! – Shunday dedi-yu, supa labiga borib, ters o'tirib oldi...

...Hammamiz qaytadan tomga chiqdik... Suvoq qilishdan ko'ra loyni ko'chirish qiyin bo'larkan. Bitta qoldirmay, qirtishlab, tomdan tushirdik. Paqirlab tashib, ko'chadagi loyxandaqni to'ldirib qo'ydik...

...Oradan ko'p yillar o'tib, kampir ko'z yumganida tumonat odam uni o'sha ko'chadan so'nggi manziliga ko'tarib bordi...

Ko'cha tuprog'i iliq edi... Mayin edi...

## DEHQONNING BIR KUNI

Muyassar tong saharda uyg'onib ketadi-yu, Alijonning bir tekis, chuqur-chuqur nafas olishiga quloq solib, jimgina yotadi. „Qachon qaytganini bilmabman ham“, deb o'laydi u satin ko'rpadan boshini chiqarib. Devordagi osma soat besh marta zang uradi. Uning titroq sadolari uyning shiftiga, zal-devorlar, kirpechlar osilgan devorlarga yumshoqqina urilib, singib ketadi. Uy ichi yana jimjit bo'lib qoladi. Soat kapgiri sukunat qo'ynida goh sekin, goh qattiqroq chiqillayotganday bo'ladi. Oy derazadan o'ychan mo'ralaydi. Muyassar erining yelkasidan quchgisi keladi-yu, o'ylab qoladi: „Charchagan, dam olsin...“

U o'rnidan ohista sirg'alib chiqadi. Sandiq ustida yotgan nimchasini kiyib oladi-da, yana erining tepasiga keladi, uzoq qarab qoladi. Alijonning keng, tarang peshanasiga mayda ter tepchib chiqibdi. „Bechoraginam, – deb o'laydi Muyassar undan ko'z uzmay, – biram toliqibdiki, do'ppisini ham olib qo'ymabdi“.

U erining peshanasini kafti bilan avaylab artadi. Keyin ayvonga chiqadi.

Ayvon labiga tegib turgan gultojixo'roزلار boshida, hovli etagida uyib qo'yilgan g'o'zapoyalar ustida shabnam yaltiraydi. Yum-yumaloq to'lin oy qishloqni o'zining nurli yo'rgagiga o'rab, uyquga, shirin tong uyqusiga chorlaydi, unda-munda yulduzlar mudraydi. Ammo qishloq allaqachon uyg'ongan. Har qaysi hovlining burchagida tunning baxmal

pardasini parchalab o‘t yaltiraydi: odamlar tandirlariga olov yoqishgan.

Muyassar ham ayvondan chaqqon sakrab tushadi-yu, samovarga o‘t tashlaydi. Keyin o‘choqboshidan suprani olib ke-lib, cho‘kkalab o‘tirgancha xamir qoradi. Tog‘orani dasturxon bilan o‘rab-chirmab, hovli burchagidagi uyilib yotgan g‘o‘-zapoyalar oldiga boradi. Bir quchoq g‘o‘zapoyani olayotgani-da, qo‘llarini havoda muallaq tutgancha to‘xtab qoladi.

Pastak devorning orqasidagi, qo‘shni hovlidagi bir tup o‘rikning duv to‘kila boshlagan yaproqlari tong shamolida ohista pirpiraydi. Muyassarning yaqin o‘tmishini, kechagi kunlarini yodiga solganday shivirlaydi. Bir paytlar mana shu o‘rik shoxiga arqon ilib arg‘imchoq uchardi. Shu o‘rikning g‘o‘rasini birinchi bo‘lib o‘zi yerdi.

Endi u sho‘x qizaloq emas, kelin. Devor-darmiyon qo‘shnisiga tushgan. Dadasi ham ularga – Muyassar bilan Alijonga o‘z qo‘li bilan fotiha bergen. „Alijon yaxshi yigit, o‘zimizning sinashta bola. Yetim o‘sgan. Bir-biriga ko‘ngil qo‘yibdi, bo‘ldi-da“, degan.

Muyassar, to‘y kuni dadasi qanchalik uzundan uzoq duo qilganini eslab jilmayib qo‘yadi-yu, g‘o‘zapoyani olib teztez yurib ketadi. Qoq-quruq g‘o‘zapoya guv yonadi, yuziga olov tafti uradi.

U endi uy tomonga yurganida buzoq ma’raydi. Sigir ham Muyassarning qadam tovushlaridan uyg‘onganday asta mo‘-rab qo‘yadi.

Muyassar ayvon labidagi kattakon sirli chelakni ko‘ta-rib xashak isi anqib turgan og‘ilxonaga kiradi. Nimqorong‘i burchakda yotgan sigir o‘rnidan turadi.

„Tagi ho‘l bo‘libdi, tozalash kerak“, deb o‘ylaydi u. Keyin sigirning yelinini ho‘llangan eski sochiq bilan tozalab artadi-da, cho‘qqayib o‘tirgancha sog‘a boshlaydi. Iliq sut tomchilari chelakka shovullab tushib, ko‘pirib ketadi, bilak-lariga sachraydi.

Chelak to'lganidan keyin qoziq atrofida aylanib onasiga talpinayotgan buzoqchaning arqonini yechib yuboradi. Buzoq shodon dikonglab, sigir tagiga kirib ketadi.

Muyassar bolalikdan odat bo'lib qolgan chaqqonlik bilan non yasaydi. Bir savat qilib tandir oldiga ko'tarib bora-di, bitta-bittadan yopa boshlaydi. Oxirgi nonni yopadi-yu, yengil nafas oladi.

– Muyas!

U erining ovozini eshitib, chaqqon burilib qaraydi. Be-qasam to'nini yelkasiga tashlab olgan Alijon ayvon labida unga qarab turibdi.

– Keling! – deydi Muyassar obdastaga suv quya turib.

Alijon ayvondan ildam tushib, gulzor labiga keladi.

Muyassarga tikilib jilmayadi.

– Punktda navbat kutish yomon-da, Muyas... Har kecha yuzlab mashina, telejka qatorlashib ketadi. Qo'yib bersa tong otguncha turaverasan kishi, – deydi sekingina. Muyassar uning kecha uyga barvaqt qaytolmagani uchun uzr so'-rayotganini tushunadi.

Erining baquvvat yelkasidan ushlab jilmayadi...

– Engashing.

Alijon ham uning arazlamaganini payqaydi-yu, boshini quyi soladi.

– Mana, boshim sizniki, – deydi kulib.

Muyassar suv quya boshlaydi. Alijon muzday suvdan ses-kanib, pishqira-pishqira yuvinadi.

– Yuvinayotganingizda har doim otga o'xshab pishqira-siz-a... Qarang, ko'ylagimni jiqqa suv qilib yubordingiz, – deydi Muyassar ho'l bo'lgan etaklarini ko'rsatib.

Alijon bosh ko'tarib astoydil yalinadi:

– Hech bo'lmasa toychoq deng, Muyas.

Muyassar uning yosh bolalarday boshini bir yonga tashlab turishiga qarab, kulib yuboradi.

Shu ondayoq tandirdagi non esiga tushadi-yu, yuguradi. Qo'llari kuya-kuya bir savat non uzib oladi.

Tong yorishadi, tun qushi qop-qora qanotlarini yig'ib, qishloq ustidan olislarga uchib ketadi-da, chor-atrof odatdag'i qiy-chuvga to'lib-toshadi.

Ikkovlari shosha-pisha shirchoy ichishadi. Aljon tushlik ovqatini belbog'iga tugadi-da, mashinasining yoniga ketadi. Darvozaxona tomondan motorning gulduragan ovozi eshitiladi. Kabina eshiklari qarsillab yopiladi.

Muyassar uyni naridan beri yig'ishtiradi-da, ikki chetida qator-qator teraklar shovullab turgan toshloq yo'lidan dala tomon yurib ketadi. Uzoqda, tog' ortidan quyosh bosh ko'taradi, Qishloq suv quyganday jimb qoladi. Paxtazor katta-kichik hammani, hatto mакtab bolalarigacha o'z komiga tortgan.

Muyassar etakni beliga bog'lab olgancha paykalga sho'ng'iydi. Paxtalar yonog'iga ilingan qirov sekin-sekin shudringga aylanadi. U esini tanigandan beri o'rganib ketgan ishini tag'in qaytadan boshlaydi. Zum o'tmay etak to'lib-toshadi. Bora-bora beli zirqillab og'riy boshlaydi. Zax, yumshoq egat ichiga etakni ag'daradi-yu, yana qayta bog'laydi. Ko'z o'ngidan o'nlab, yuzlab, minglab chanoqlar birma-bir o'tadi. Goho shunday boshi aylanib ketadiki, ko'zini yumsa, tasavvurida oppoq chanoq pardan boshqa hech narsa ko'rinnay qoladi. Ammo u to'xtamaydi. Engashib oldinga intilaveradi.

Peshinga yaqin kun qizdira boshlaydi. Muyassar nimchasi yechib tashlab, tag'in g'o'zalar orasiga sho'ng'iydi.

Shu payt muloyim kuz quyoshida erigan yumshoqqina havoni titratib, hisobchi Shoqosim akaning tanish ovozi yangraydi.

– Hoy, ho-oy qizlar-ov, ovqatga-e-e!

Uning tovushi paxtazor ustida anchagacha elas-elas sado berib turadi.

Muyassar tergan paxtalarini uyib, etakka bosadi, yukning og'irligidanmi, o'yga tolibmi, boshini quyi solgancha, xirmonga chiqib boradi.

Shoqosim aka etakni temir taroziga qo'yib, toshni surarkan, salqi qovoqlarini lipillatib Muyassarga qarab qo'yadi. Burushiq yuzi oqarib ketganday bo'ladi:

– Qirq sakkiz kilo... Mazangiz yo'q-ku, kelin!

Muyassar uning nimaga shama qilayotganini bilib, g'ijindi. „O'yin-kulgidan bo'shamay qolding“ demoqchi-da.

U bir gap bilan qayirib tashlagisi keladi-yu, yoshini hurmat kilib, o'zini tiyadi. „Mayli, – deb o'ylaydi paxtani xirmonga ag'dara turib. – Bu odamning odati shu. Yuz yil asal bilan boqsangiz ham og'zidan shirin gap chiqmaydi“...

Qizlar kattakon qayrag'och soyasida, hovuz labida o'tirib tushlik qilishadi. Qayrag'och shoxlarida yuz-yuzlab chumchuqlar chirqillaydi. Qayoqdandir shamol kelib, hovuz yuzidagi mayda-mayda jilolar yelkasiga minib oladi.

Orqa tomondan mashina tovushi eshitiladi.

– Rais buva kelyaptilar! – deydi qaysidir qiz qo'ng'iroqday ovoz bilan.

Baland bo'yli, qotma, tetik rais ochiq chehra bilan hayqiradi:

– Hormanglar, qizlar!

Qizlar quvnoq salomlashishadi.

– Barakalla, qizlar!!! Yashanglar! Plan to'lgan kuni hamangizni Toshkentga – tomoshaga olib boraman.

– Naq Toshkentning o'zigami? – deydi orqaroqda o'tirgan qizlardan biri ishonqiramay.

– Naq Toshkentning o'ziga!

– Kinoga ham tushamizmi?

Rais beg'araz qah-qah uradi:

– Teatrgayam tushamiz!

Rais yaxshi odam. Chindan ham har yili qizlarni bir-ikki marta shaharga – teatrga olib boradi.

– Qani, – deydi u hammaga bir-bir qarab. – Kim eng yaxshi ishlasa, o'shani kelin qilaman. Xohlasa, mexanizatorlar kursiga jo'nataman.

Hovuzda kosasini yuvayotgan qop-qora qiz – E’tibor yel-kasi osha o’girilib qarab, bijir-bijir qilib gapirib tashlaydi:

– O’zi bitta o’g’lingiz bor, qaysi birimizni kelin qilasiz? Uyam bo’lsa shaharda o’qiydi. Kim bilsin, hali bola-chaqasini boshlab keladimi.

Hamma qah-qah urib kuladi, rais ham.

...Yana o’sha paykallar, chanoqlar, paxtalar... Muyassar yana ishga sho’ng’ib ketadi... Qo’llari yana chanoqlar uchida o’ynaydi. Oqshom shafag‘i yuziga kul tortgani-da paykaldan chiqishadi. Muyassar uyga qaytishdan oldin kanal bo'yiga keladi: sigirga o't yulish kerak. Muyassarning yonginasida chigirtka nag’masini boshlaydi. Oromli sukunat-ni chuqurlashtirib uzoq, tinimsiz chirillaydi. Suv yuzida baliq sakraydi. Cho’lp etgan ovoz eshitiladi-yu, yana sukunat qu-yilib keladi, Allaqayoqdan uchib kelgan baliqchi qush suvga sho’ng’iydi. Shu ondayoq qiyqirib havoga ko’tariladi. Muyassar qirg’oqda o’sib yotgan maysalarni shart-shurt yulishga tushadi. Allanechuk qadrdon, mast qiluvchi ko’katlar isidan boshi aylanib ketadi. Suv yuzi qop-qorayib qoladi. Eng avval uyg’ongan shoshqaloq bir yulduzcha kanal suviga sho’ng’iydi. Goh jilolarga ko’milib ketadi, goh yana qaytib chiqadi.

Orqa tomondan mototsiklning gurullagan tovushi eshitiladi. Mototsikl sukunatni tilka-pora qilib yaqinlashadi-yu, uning yonida taqqa to’xtaydi.

– Yana so’ramasdan o’t yulyapsanmi?

Muyassar qayrilib qaramasdanoq taniydi. O’sha – Sho-qosim aka. U sekin boshini ko’tarib qaraydi. Hisobchi mototsiklining egaridan tushgisi kelmay, bir oyoqlab yerga tiralib turgan bo’ladi. Muyassar uning yuzini g’ira-shira qorong‘ida aniq ko’rmasa ham, qovoqlari pir-pir uchib tur-ganini payqaydi.

Bu odam shunaqa o’zi: otdan tushsa ham, egardan tushgi-si kelmaydi. Bir vaqtlar rais bo’lgan edi. Unda Muyassar qizaloq edi. Bir kuni sigiri paxtazorga tushib ketgani uchun

Qoravoy taqachining to'qqiz yashar o'g'lini o'lar holatda do'pposlagan.

Shoqosim aka haliyam o'sha kunlarini qo'msaydi. Menga odamlarning dimog'-firog'i emas, paxta kerak, deydi. Muyassar bu safar ham olishib o'tirmay, qishloqqa qaytadi. U endi o'choqqa olov yoqqanida eshikdan ola sigir mo'rab kirib keladi. Muyassar gullarni payhon qilib tashlamasin deb, darrov arqonlaydi. Kattakon sirli chelak yana iliq, serko'pik sutga to'ladi. Muyassar buzoqchani yechib yuboradi.

Taom pishgandan keyingina Muyassar qattiq toliqkanini sezadi. Uch-to'rt jazni og'ziga soladi-yu, tovoqni berkitib qo'yadi. „Hali Alijon akam kelsa, birgalashib ovqatlanamiz“.

Lekin Alijon hali-beri qaytmasligini o'zi ham biladi. Terim kunlari haydovchilar kecha-kunduzning farqiga bormay qolishadi,

Guzar tomondan baland musiqa yangraydi. „Klubda kino bo'lyapti, – deb o'ylaydi Muyassar jimgina qulq solib, – Qanaqa kino ekan?“

U uyiga kirib, chiroq yoqadi. Burchakdag'i toshoynaga o'zini soladi. Qoraqosh, qorako'z, mo'jazgina qiz unga qarab jilmayib turadi. Birdan uning sho'xligi tutib ketadi-yu, o'zining aksini o'zi masxara qila boshlaydi. Tilining uchini chiqarib, boshini likillatib qo'yadi. Keyin mayin jilmayib, oyna tokchasidagi upani oladi. Upaga botirilgan paxtani yu-ziga yaqinlashtirishi bilan to'xtab qoladi.

„Yana qo'lim yorilibdi“. G'o'zapoya tirnab tashlagan qo'llariga qaraydi. Tag'in jilmayib qo'yadi. Mana shu nozik, chayir barmoqlari, tiqmachoqday qo'llari bilan allaqachon o'ziga haykal bitgulik ishlar qilib qo'ygani, bugun ham o'sha haykalga yana jilo bergani uning xayoliga ham kelmaydi.

Keyin, uxbab qolishdan cho'chib, yechinmasdan o'miga cho'ziladi-yu, kuta boshlaydi. Ana, ko'chadan mashina ovozi keldi. Muyassar ildam qaddini rostlab o'tirib oladi. Motor

tovushi kuchaya-kuchaya yaqinlashadi-da, yana sekin-sekin uzoqlashib ketadi. „Yo‘q, Alijon akam emas. Idora tomonga o‘tib ketdi-ku“.

U shiftga tikilib uzoq yotadi. Lekin endi motor ovozi kelmaydi. Itlar akillamaydi. Bedana ham sayramaydi. Qishloqni uyquning sukunat to‘lqinlari o‘z bag‘riga oladi.

Faqat qayerdadir – uzoqda alla eshitiladi. Qaysidir ona o‘z kichkintoyining boshida qo‘sishq aytyapti.

Muyassar shirin jilmayib qo‘yadi. Mana, bir yildan keyinmi, ikki yildan keyinmi o‘zi ham ona bo‘ladi. O‘shanda o‘zi ham shunaqa sokin kechalarga jon kiritib, alla aytadi. Bir vaqtlar ayasi kenja ukasiga alla aytayotganida qulq solib o‘rganib olgan.

Bora-bora uyqu uning ham kipriklarini aldab-aldb qovushtirib ketadi. Muyassar toliqqan oyoq-qo‘llarini yozgancha, dong qotib uxbab qoladi.

U tush ko‘radi. Tushida jajjigina qizaloq emish. O‘riking shoxiga arqon tashlab arg‘imchoq uchayotgan mish. O‘rik qiyg‘os gullagan mish. Arg‘imchoq har silkinganida uning boshiga bir dunyo gul sochilarmish. Arg‘imchoq borgan sayin qattiqroq lopillarmish. U borgan sayin balandga, osmoni falakka chiqib tusharmish. Yer ham, osmon ham, arg‘imchoqning arqoni ham, hamma yoq gul emish. Oqish, pushti gul emish. U xandon urib kularmish. Ko‘zlaridan yosh chiqib ketarmish...

U tush ko‘radi. Ammo oy fonusining piligini pasaytira boshlaydi. Kunchiqar tomonda osmon sutday oqish rangga kirodi. Yangi kun boshlanadi.

## SIRLI YULDUZ

Yoz kechalari tom ustida tunaganmisiz. Somonsuvoq qilingan tomda? Biz bolaligimizda ko‘pincha tomda yotardik. Hovlidagi supada uxlasangiz ham bo‘ladi-yu, tom boshqacha-da! G‘ir-g‘ir shabada esib turadi. Tomning bir chekkasiga, bo‘yra ustiga yoyib qo‘yilgan o‘rik bargi yal-piz hidiga qo‘shilib shunaqangi yoqimli is taratadiki! Hamma yoq jimjit. Chigirtkalar muttasil chirillaydi, ammo siz ularning ovoziga darrov ko‘nikib qolasiz. Eshitmay ham qo‘yasiz. Faqat onda-sonda it akillaydi. Paxsa devorning allaqaysi teshigida kaltakesak chirqillab qoladi. Olis-olislardan poyezdning taq-taq, taqa-taq tovushi bir zum quloqqa chalinadi-yu, tag‘in qorong‘i sukunat qo‘yniga singib ketadi. Osmonda yulduzlar g‘uj-g‘uj... Xuddi qora kigizga bir o‘choq cho‘g‘ sachrab ketgandek. Bir joyda to‘da-to‘da, bir joyda siyrakroq...

Hammamiz qator o‘rin solib yotamiz: oyim, ukam, men, opam, o‘rtancha akam, katta akam, dadam... Oyim bilan dadam biz – bolalar kechasi turganimizda uyqusirab tomdan yiqilib ketishimizdan qo‘rqib, yonimizda yotishadi. Ikkalovi ikki tomonda.

Oyim ertakka usta. Juda bo‘lmasa ming marta qaytargan cho‘pchagini yana aytib beraveradi. Dadam hech aytmaydi. Faqat bir marta, o‘shandalayam aka-ukalar yetti yulduz ustida tortishib qolganimizda aytib bergen.

Shundoq qilib hammamiz osmonga-yulduzlarga tikilib yotibmiz. Eng avval ko‘zga tashlanadigan yulduz qaysi? Al-

batta, yetti og‘ayni-da! Yetti og‘aynini bilmagan odam bor-mi? Katta akam bo‘lsa o‘sha kuni hammamizni „yengdi“.

– Hech qanaqa yetti og‘aynimas. Bu – Katta cho‘mich yulduzi. Ana, cho‘michining bandi ko‘tarilib turibdi.

Opamning jahli chiqib ketdi.

– Hecham-da! Bu – Katta ayiq! Kitobdan o‘zim o‘qiganman!

Birimiz u dedik, birimiz bu dedik. Oyim qo‘yib bersa o‘rtada janjal chiqadigan.

Odatdagidek dadamni o‘rtaga solib, po‘pisa qildi:

– Jim! Adang charchaganlar. Hozir urishib beradilar. Ana, uxlayaptilar.

Biz darrov pildirpis bo‘lib qoldik. Ammo dadam uxlama-gan ekan. Urishmadi ham. O‘sha kecha umrida birinchi marta (ehtimol oxirgi martadir, negaki, dadamning boshqa ertagini eshitmaganman) cho‘pchak aytib berdi.

Qadim-qadim zamonda bir chol bo‘lgan ekan. Cholning bir emas, yettita o‘g‘li bor ekan. Chol bolalariga o‘zi yemay yediribdi, ichmay ichiribdi. Yetti o‘g‘li yetti azamatga aylanibdi. Bir kuni chol bolalarini oldiga chaqiribdi-da, nasihat qilibdi.

– Bolalarim, – debdi, – endi men qarib qoldim. Sizlar katta bo‘ldinglar. Bilib qo‘yinglar: birontangizga bir qo-shiq ovqatni harom yegizmadim, bir qultum suvni harom ichirmadim. Birovingdan qolgan kiyimni biroving kiygan bo‘lsang kiygandirsan. Ammo-lekin shunisigayam shukr qil: kiygan kiyiming ham, yegan ovqating ham halol bo‘ldi. Men sizlarga bergen tuzimga mingdan ming roziman. Bitta shar-tim bor: halol bo‘linglar, haqgo‘y bo‘linglar. Shu bugundan boshlab o‘z tirikchililingi o‘zinglar qilinglar. Gapim shu, – debdi-yu, bolalariga oq fotiha beribdi.

Shundoq qilib, yetti og‘ayni yetti tomonga ravona bo‘lib-di. Yettovi yo‘l yuribdi, yo‘l yursayam mo‘l yuribdi, dun-yoning yetti iqlimiga borib qolibdi. Otaning nasihatiga amal

qilib, har qaysisi qo'lidan kelgancha mehnat qila boshlabdi. Oradan oy o'tibdi, yil o'tibdi... Ammo boyib ketishdan hech darak yo'qmish. Shunda yetti og'aynining hammasiyam otaning nasihatini esdan chiqaribdi. Hammasi birin-ketin qaroqchiga aylanibdi. Pul to'plashibdi, oltin yig'ishibdi. Lekin qaroqchining taqdiri nima bo'lardi? Biri amallab dor tagidan qochibdi. Biri yuz darra yeb o'lishiga sal qolibdi. Tag'in bit-tasi zindonda yotib tuzalmas dardga chalinibdi. Faqat bitta kenja o'g'ilning omadi yurishib, boy-badavlat bo'lib ketibdi. Dunyoning yarim xazinasini to'plasa ham qo'lga tushmabdi. Topgan-tutganini kemaga ortib o'z yurtiga ravona bo'libdi. Buni qarangki, ayni dengizning o'rtasiga borganda to'satdan bo'ron boshlanibdi-yu, kemani parcha-parcha qilib tashlabdi. Qaroqchi yigit bir amallab yerga yetib olibdi.

Xullas, oradan qancha oy, qancha yil o'tganidan keyin yetti og'ayni tag'in keksa otaning oldiga yetib kelishibdi.

– Xo'sh, bolalarim, dunyo kezib nimalar ni ko'rdinglar? Nima ishlar qildinglar? – deb so'rabdi chol.

Yetti o'g'ilning hammasi bir-biriga gal bermay, dunyoning adolatsizligini, o'zlarining omadsizligini aytib yig'lab-siqtashibdi.

Chol o'g'illarining arzini obdan eshitibdi-da, uzoq o'y-lab qolibdi. Bilibdiki, yetti og'aynining hech biri to'g'ri yo'lidan yurmagan. Bo'lmasa, aqalli bittasi baxtini topgan bo'lardi.

– Mayli, – debdi chol oxiri. – O'limdan boshqa hamma narsaga chora bor. Mening berkitib qo'ygan shunday xazinam borki, unga ega bo'lgan odam bir umr rohat-farog'atda yashaydi. Shunaqa katta xazinaki, egasining yetti pushtiga, yetti pushtining yana yetti pushtiga yetib ortadi.

Shunday debdi-da, qo'ynidan chiroyli oltin qoziq chiqazibdi.

– Yettovingiz ham mening pushti kamarimdan bo'lgsizlar. Yettovingizni ham baravar yaxshi ko'raman. Bu boy-

likka qaysi biring ega bo'lsang, menga baribir. Ammo aytib qo'yay: bu xazina nuqul haq ish qilgan, pok odam qo'liga tegadi. – Chol shundoq deb oltin qoziqni osmon peshtoqiga qoqib qo'yibdi. O'sha zahoti o'zi ham olamdan o'tibdi.

Yetti og'ayni qaroqchi emasmi, hammasi baravariga oltin qoziqqa tashlanibdi. Lekin bittasining ham bo'yи yetmabdi. Bir oy tortishibdi, bir yil tortishibdi, ming yil tortishibdi...

O'shandan buyon ko'p zamonlar o'tibdi. Yetti qaroqchi oltin qoziq atrofida haliyam charx urib aylanarmish-u bittasiyam ega bo'lolmas mish. Osmondag'i hamma yulduzlar oltin qoziq atrofida charx urib yotarmish. Oltin qoziq bo'lsa haliyam joyida qimir etmay turarmish. Cho'l-biyobonlarda adashgan karvonlarga yo'l ko'rsatarmish, to'fonda qolgan kemalar unga qarab manzilni topib olarmish... Lekin bu yulduzning bitta siri bormish: sarbonning niyati buzuq bo'lsa, kema darg'asining dili nopol bo'lsa, karvon ham, kema ham yo'ldan adashib, xarob bo'larmish...

... Tom ustida qator o'rın solib yotibmiz. Yetti kishi: oyim, ukam, men, opam, o'rtancha akam, katta akam, dadam... G'irg'ir shabada esadi. O'rik bargagi bilan uning ustiga sepilgan yalpiz hidi dimog'ga uriladi. Hamma yoq jimjit... Hatto onda-sonda akillab qo'yadigan itlar ham pinakka ketgan. Olis dan poyezd tovushi ham eshitilmaydi, chigirkalar chirilla maydi. Faqat osmonda yulduzlar yaraqlaydi. Osmon to'la yulduz: g'uj-g'uj... Siz jimgina yotib quloq soling, ularning shivirlashayotganini eshitasiz. Yo'q, nima deyayotganini tu shunmaysiz, ammo gaplashayotganini eshitasiz, albatta, eshitasiz... Ana, yetti qaroqchi! Qarang, boyta „dumi“ balandda edi, endi pasayib qolibdi. Bundan chiqdi, dadam rost aytyapti: ular Oltin qoziq atrofida aylanishyapti, har qaysisi men ega bo'lsam deydi! Oltin qoziqning o'zi qani deysizmi? Ana-ku! Yetti qaroqchining yonginasida simob tomchisidek yaltirab turibdi. Lekin yetti og'aynining bittasiyam uni ololmaydi. Nega deganda ularning niyati yaxshimas...

...Oradan ko‘p yillar o‘tganidan keyin bir astronom do‘s-timdan g‘alati gaplarni eshitdim. Yoz kechalaridan birida tog‘ga chiqdik. Ming xil tashvishlar bilan bo‘lib osmonga qarash ham esdan chiqib ketgan ekan. Qolaversa, shahar joyda osmonga qarab nimaniyam ko‘rardingiz? Chiroqlar yoritib turgan osmonda yakkam-dukkam yulduzdan boshqa narsa ko‘zinizga chalinmaydiyam... Biroq o‘sha kecha tasodifan osmonga tikildim-u, tag‘in bolaligimga qaytib qolgandek bo‘ldim... Hech e’tibor bergenmisiz: onda-sonda bolaligingiz o‘tgan ko‘chalar tushingizga kirib qoladi: o‘sha anhor, o‘sha daraxtlar, o‘sha uylar... Sizni bilmadim-u, men shunaqa paytda uyg‘onib ketsam, tushimning davomini ko‘rish uchun yana ko‘zimni yumib olaman... Bu safar ham xuddi shunaqa ahvolga tushdim. Hamma yoq jimjit. Itlar akillamaydi, chigirtka chirillamaydi, allaqayerdan yalpiz hidi dimog‘ga uriladi... Osmon to‘la yulduz. Xuddi qora kigizga bir o‘choq cho‘g‘ sachrab ketgandek...

Do‘sstimga bir vaqtlar dadam aytib bergen afsonani, go‘yo katta yangilik topgan odamdek qaytadan gapirib berdim. Qarasam, shu qadar hayajon bilan, shu qadar kuyunib gapiryapmanki, do‘sstimning kulib yuborishidan qo‘rqib o‘zim xijolat chekdim. Qiziq, astronom kulmadi. Buni qarangki, dadamning aytgan gaplari to‘ppa-to‘g‘ri ekan. Oltin qoziq bir joyda qimirlamay turishi ham, yetti og‘ayni uning atrofida aylanishi ham, adashgan kemalar unga qarab yo‘l topishi ham...

Nima bu? Afsona qayerda qoldi-yu, hayot qani? Ertak qayerdan boshlanadi-yu, haqiqat qayerdan davom etadi?

– Hammasi to‘g‘ri, – dedi do‘sstim xarsangtosh ustida yulduzlar charaqlagan osmonga tikilib o‘tirarkan. – Oltin qoziq Yer o‘qi bilan bitta chiziqdagi joylashgan. Shuning uchun u Yerga nisbatan doim bir xil holatda turadi. Albatta, uyam harakat qiladi, lekin...

Yo‘q, u yog‘ini eshitishni xohlamayman! Ishonaman,

dadam aytgan o'sha afsonaga ishonaman! Qadim zamonda o'sha donishmand chol yashaganiga, oltin qoziqni osmon peshtoqiga qoqib kettaniga: bu yulduz mangu yaraqlab turi-shiga, so'nmas nur sochishiga ishonaman. Haqiqat deb tal-pinganlar,adolat deb intilganlar, diyonat deb yashaganlar shu yulduzga qarab manzilini topganiga ishonaman! Bo'lmasa, bu dunyoda yashashning nima ma'nisibor? Ehgimol, bu yulduzni uzib olmoqni ixtiyor etganlar oz bo'limgandir. Ajabki, u hamon porlab turibdi. Negaki, haqiqat,adolat, diyonat degani hech qachon bir odamning mulki bo'lgan emas. Rostini ayting, siz o'sha sirli yulduzni uzib olishga qodirmisiz? Shunday baxtga loyiqmisiz? Siz-chi? Balki siz munosib-dirsiz? Yo'q, hecham munosib emassiz! Men ham munosib emasman! Sirli yulduz o'z joyida yaraqlab turaversin. U hali odamlarga kerak, ko'p odamlarga kerak!

## MUNDARIJA

Quyosh tarozisi .....	5
Oq bulut, oppoq bulut .....	18
Muhabbat .....	31
Hayollarga bo‘laman tutqin .....	40
Hurkitilgan tush .....	54
Laylak .....	60
O‘zbeklar .....	62
Yanga .....	83
Uch xil odam .....	92
Baxt .....	103
Umr savdosi .....	111
Nurli halqachalar .....	125
Tarnov .....	138
Tuya va eshak .....	140
Dehqonning bir kuni .....	144
Sirli yulduz .....	152

*Adabiy-badiiy nashr*

O'TKIR HOSHIMOV

## **HURKITILGAN TUSH**

*Hikoyalar*

**„Ziyo nashr“ nashriyoti**  
Toshkent – 2019

Muharrir	<i>Abdurahmon Jo'rayev</i>
Badiiy muharrir	<i>Hojiakbar Saydaliyev</i>
Musahhih	<i>Oybek Haydarov</i>
Sahifalovchi	<i>Habibulloh Haydarov</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019  
20.11.2019-yilda bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108   
Offset qog'oz. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 8,4. Nashriyot-hisob tabog'i 8,53.  
Adadi 10000 (2-zavod 5000). Shartnomा № 07-19.  
Buyurtma raqami 1145.

„Ziyo nashr“  
Mas'uliyati cheklangan jamiyat  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ  
Kitob fabrikasida chop etildi  
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.  
Tel.: 71 234-44-01/05  
[www.credoprint.uz](http://www.credoprint.uz)

**Hoshimov, O'tkir.**

H 71 **Hurkitilgan tush.** [Matn]: hikoyalar / O'. Hoshimov. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2019. – 160 b.

ISBN 978-9943-5704-3-6

**UO'K: 821.512.133-32**

**KBK 84(5O')6**